



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024, № 1

**DJURAYEV Risbay**  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-  
da № 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsa-  
tilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Abdug'appon* QIRQIZBOYEV  
*Uzoqboy* BEGIMQULOV  
*Xolboy* IBRAGIMOV  
*Laylo* AXMEDOVA  
*Roxatoy* SAFAROVA  
*Leyla* DJURAYEVA  
*Dono* G'ANIYEVA  
*Lobar* QARAXANOVA  
*Dusmurod* DJURAYEV  
*Baxodir* AKBAROV  
*Komiljon* KARIMOV  
*Komiljon* GULYAMOV

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **A.K. Kirgizbayev, O'.E.Xo'janazarov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirish masalalari
- 7 **X.I. Ibragimov**  
Ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarga tarbiya berishda uzluksiz hamkorlik masalalari
- 11 **E.B. Xujanov**  
«Ideal gaz va uning xossalari» mavzusini pedagogika oliy ta'lim muassasalarida izchillik tamoyili asosida o'qitish metodikasi
- 16 **I.E. Shernazarov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida kreativ savodxonlikni shakllantirish bosqichlari
- 20 **G.R. Abdusalomova, Z.B. Sangirova**  
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim
- 25 **P.X. Ljucpaev**  
Значение учебника для развития научно-педагогических понятий у студентов
- 29 **A.B. Kamilova**  
Дидактические аспекты формирования регулятивных действий обучаемых в учреждениях непрерывного образования
- 33 **I.M. Ganueva**  
Вопросы фортепианной педагогики: педагогические новации в непрерывном образовании

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 38 **D.Sh. Temirov**  
Korporativ boshqaruv metodologiyasi va jamoatchilik nazoratining o'zaro aloqadorlikdagi faoliyat tizimi
- 42 **D.S. Saydaliyeva**  
Filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish
- 46 **P. Amanov**  
Методика Слil как основа билингвального обучения и развития билингвально-коммуникативной компетенции

## MA'NAVYI TARBIYA

- 51 **A.T. Tilegenov**  
«Hamkorlik zanjiri» asosida talaba-yoshlarda milliy istiqbol g'oyasini shakllantirishning o'ziga xos pedagogik jihatlari
- 56 **A.I. Saidov**  
Yoshlarni sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirishda ota-ona va bola munosabatlari
- 60 **G.M. Qurbonova**  
Talaba-qizlar ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga qaratilgan jarayon mazmuni
- 64 **N.E. Nizomxonova**  
O'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda muzey pedagogikasining ilmiy ahamiyati
- 68 **I.G. Galuychenko**  
Процесс познания наследия мыслителей востока как фактор творческого развития студентов-музыковедов в системе непрерывного образования
- 72 **I.A. Samatova**  
O'quvchilarda ijtimoiy tarbiya va siyosiy tarbiyani shakllantirishning o'zaro aloqadorligi

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 76 **Sh.T. Ergashev**  
Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishni amalga oshirish metodikasi
- 81 **F.X. Ibraimova**  
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari
- 85 **O.O. Bagoyev, A.K. Avliyakulov**  
Professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining malakaviy amaliyotlarini tashkil etish samaradorligi
- 90 **O'.T. Mamajonov**  
«Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish
- 100 **G.M. Akramova**  
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini deontologik faoliyatiga tayyorlash jarayonining mazmuni
- 103 **S.U. Ibraximov**  
Bo'lajak sport murabbiylarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik strategiyalarning faoliyatdagi o'rni

## XORIJYIY TA'LIM

- 105 **G.T. Tulaboyeva**  
Filologiyani o'qitishda xorijiy tajribasi
- 109 **F. Tursunova**  
Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalar pedagogik tafakkurini shakllantirish



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**A.K.KIRGIZBAYEV,**

*Nizomiy nomidagi TDPU rektori, t.f.d, prof.,*

**O'E. XO'JANAZAROV,**

*Botanika va ekologiya kafedrası mudiri*

*Ushbu maqolada ekologik ta'limni zarurati va hozirgi kunda dunyo bo'yicha ruy berayotgan ekologik muammolarni hal qilish jarayoni, ilg'or mamlakatlarda ekologik ta'lim mexanizmlarini amalga oshirish bo'yicha yondashuvlar o'z aksini topgan. Jumladan, maqolada Germaniya, Janubiy Koreya va Finlandiya davlatlarida ekologik ta'lim sohasidagi qarashlar aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ekologiya, barqarorlik, madaniyat, istiqbol, dastur, ta'lim, tamoyil, beqarorlik.*

*This paper involves the need for environmental education and the process of solving environmental problems that are currently occurring around the world, approaches to the implementation of mechanisms of environmental education in advanced countries. In particular, the paper reflects views in the field of environmental education in Germany, South Korea and Finland.*

**Key words:** *ecology, sustainability, culture, perspective, program, education, principle, instability.*

Ma'lumki, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekolo-gik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillari ko'rsatib berilgan. Ushbu tamoyil-larni belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish asosida ekologik ta'limning samaradorligi yanada oshadi. Shuni aytib o'tish joizki, ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish muhim o'rin egallaydi.

O'zbekistonda ekologik ta'limning o'quv rejaları, dasturlari va standartlari barqaror ekologik rivojlanish komponentlaridan biri sifatida faqat Ekologik ta'limni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim strategiyalarini aks ettiradi [6].

Muhokama va tahlillar. Biz xorijdagi universitetlarda ekologik ta'limni rivojlantirish borasidagi sa'iy-harakatlar bilan tanishib chiqdik. Jumladan, Germa-niyada 200 dan ortiq universitetlarda milliy va xalqaro talabalarga «Atrof-muhit va ekologiya» fanlari bo'yicha mukammal dasturlar taklif etiladi [4]. Aksariyat universitetlarda «Atrof-muhit» fanlari alohida fakultetni tashkil etadi va bu fakultetlar fanlararo dasturlarni taklif qilish uchun bir xil yoki turli universitetlarning



boshqa fakultetlari bilan muvofiqlashadi. Atrof-muhitni o'rganish dasturini tugatgan talaba atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan turli sohalarida ishlashga tayyor. Bu sohalariga huquq, ta'lim, tadqiqot, muhandislik, menejment kabilar kiradi. «Atrof-muhit» va «Ekologiya» sohasi atrof-muhit salomatligi, atrof-muhit monitoringi va boshqaruvi, iqlim o'zgarishi kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim maskanlarida talabalarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish davr talabi bo'lib qoldi. Chunki, ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyat bilan yondashish har bir fuqaroning burchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Shu yerda biz yangi tahrirdagi konstitutsiyaga murojaat qiliishimiz kerak. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarga ajratilgan. Ushbu bobning 49-moddasida quyidagilarga e'tibor qaratilgan: Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Demak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qaroriga asosan, ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish; ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish muhim ahamiyatga egadir [2].

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim quyidagi ta'lim turlariga muvofiq amalga oshiriladi: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim.

Janubiy Koreyada bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida atrof-muhit fanlari darajalari talabalarga tabiati saqlash usullarini o'rgatadi va atrof-muhit muammolariga yechim izlaydigan fanlararo sohani umumlashtiradi [5]. Janubiy Koreyada ta'lim sohasini rivojlantirish jarayonida ekologiya sohadagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar ilmiy assotsiatsiyalar tuzish va ilmiy jumallarni nashr etish, tadqiqot va amaliyotni o'tkazish uchun konferensiyalar va simpoziumlarda to'planishadi. Koreyada ekologik ta'lim bo'yicha eng muhim jurnal bu – Koreya atrof-muhit ta'limi jurnali hisoblanadi. Bu jurnal 1990-yilda Koreya Ekologik Ta'lim Jamiyati tomonidan ochilgan va ekologik ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda. Xususan, ushbu jurnalda ekologik ta'lim siyosati, ekologiyadan o'quv rejarlar, ekologik mavzularni o'qitish



va o'rganish usullari o'rin olib, ekologik ta'lim istiqbollari bo'yicha muhokamalar va tahlillar bayon etiladi. Ekologik ta'lim sohasi rivojlanib borar ekan, boshqa jurnallar ham muayyan mavzular yoki ekologik muammolarni o'zida mujassamlashtira boshladi.

O'zbekistonda ekologik ta'lim mazmuni o'lkadagi ekologik muammolarni hal etish, iqlim o'zgarishi sharoitida mamlakatdagi ekologik vaziyatni optimallashtirishga qaratilgan.

Yaponiyada 1990-yillarda ekologik ta'lim global isish, kislotali yomg'irlar va ozon qatlamining emirilishi kabi dolzarb muammolarni o'rganishga aylandi. Boshlang'ich, quyi va yuqori, o'rta maktablarda ijtimoiy fanlar va tabiatshunoslik darslarida tabiiy resurslar va energiya muammolari mujassamlashtirildi.

1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi ishtirokchilari global muammolarga yo'naltirilgan ekologik ta'lim bo'yicha mavjud chaqiriqlarni ta'kidladilar va konferensiya Yaponiyaning ekologik ta'limiga katta ta'sir ko'rsatdi [1]. Yaponiya Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi 1991-yilda quyi, o'rta va yuqori maktablar uchun ekologik ta'lim bo'yicha yo'riqnomani va 1992-yilda boshlang'ich maktab ko'rsatmalarini chiqardi. 1997-yilda Yaponiyaning Kioto shahrida bo'lib o'tgan Iqlim o'zgarishi bo'yicha tomonlarning uchinchi konferensiyasidan so'ng, global ekologik muammolar, xususan, global isish ijtimoiy fanlar bo'yicha mashhur mavzularga aylandi.

Ushbu holatda boshlang'ich maktablarda qattiq chiqindilar muammolari o'rganila boshlandi. Bundan tashqari, o'quvchilarning tabiatdagi tajribalarini, tabiiy muhitni kuzatish va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida ishtirok etishini o'z ichiga olgan ekologik ta'lim endi alohida e'tiborga molik bo'ldi. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha fanlararo ta'lim ham ekologik ta'lim dasturlariga kiritilgan bo'lib, talabalarga oziq-ovqat mahsulotlarini ekologik xavfsiz tarzda yetishtirish, qayta ishlash va pishirish inson organizmiga qanday foyda keltirishi haqida ma'lumotlar bo'z aksini topdi.

Biz Finlandiyada ekologik ta'limni qanday yo'lga qo'yilganligi xususida tahliliy ishlarni olib bordik. Finlandiya tabiat va atrof-muhit tushunchalari milliy asosiy o'quv dasturlari (2003; 2004) asosida tarkib topgan va muhim vazifa sifatida barqaror turmush tarzi va ekologik mas'uliyatni rivojlantirish tamoyillari muhim o'rin egallaydi.

Ekologik siyosat milliy mentalitet bilan birgalikda Finlandiyaga atrof-muhit sifatini yaxshilash bo'yicha loyihalarni samarali amalga oshiruvchi yetakchi davlatlardan biri bo'lishga imkon beradi. Barqaror rivojlanish madaniyati nafaqat oilada, balki davlat ko'magida yoki ko'ngillilar asosida tashkil etilgan turli ta'lim muassasalarida ham erta yoshdan boshlab shakllantiriladi.



Tanho Xarakka orolida joylashgan tabiat markazi barcha yoshdagi bolalar va yoshlarni ekologik va ta'lim faoliyatiga jalb qilishga yordam beradigan ko'plab omillarning muvaffaqiyatli kombinatsiyasidir [3]. U Xelsinki markazi yaqinida joylashgan bo'lib, u tashrif buyuruvchilarga Boltiq dengizining holati, orolning flora va ornitofaunasi, shuningdek, ekologik toza turmush tarzining xususiyatlari haqida so'nggi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Xulosa. Respublikamizda umum o'rta ta'lim maktablarida ekologik ta'lim mazmuni barcha yoshdagi o'quvchilarning darsliklari mazmuniga singdirilgan. Chunki, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bugungi kunning ekologiya sohasida yuzaga keladigan muammolarini oldini olishda muhim omil sifatida qaraladi. Shunday bo'lsada, ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlarini ishlab chiqish, ta'lim tizimida bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish bo'yicha aniq dasturlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Bu jihatdan biz ilg'or xorijiy tajribalar va mintaqamizning tarixiy-geografik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ekologik muammolarni yechimi bo'yicha amaliy yodashuvlarni yangi fan yutuqlari asosida amalga oshirishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.asianstudies.org/publications/eaa/archives/teaching-about-environmental-issues-in-japan>
2. <https://lex.uz/docs/4354743>
3. <https://eco-cosm.com/articles/lokalno/ekologicheskoe-obrazovanie-v-finlyandii-na-primere-prirodnogo-parka-xarakk> <https://edupark.com.np/graduate-studies/environmental-sciences-in-germany>
4. <https://www.bachelorsportal.com/study-options/270352699/environmental-sciences-south-korea.html>
5. Kuchkarov Asomiddin, Eshtemirov Eldor, Khujanazarov Uktam Eshtemirovich. Education For Sustainable Development And Case Study Tasks On Some Endemic Plant And Animal Species. International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 9, Issue 12, December 2019. - Pp. 794-798. <http://dx.doi.org/10.29322/IJSRP.9.12.2019.p96100>



## TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLARGA TARBIYA BERISHDA UZLUKSIZ HAMKORLIK MASALALARI

**X.I.IBRAIMOV,**

*O'zPFITI direktori, O'zRFA akademigi, p.f.d.*

*Maqolada bola tarbiyasida oila, maktab, kasb-xunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, mahalla va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi, yosh avlodni komil inson qilib etishtirishda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish borasidagi fikrlar bayon etilgan.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *oila, oila hamkorligi, maktab, mahalla, kasb-hunar kollejlari, o'quvchilar, ta'lim-tarbiya, ta'lim muassasalari, ta'lim maskanlari va mahalla hamkorligi, jamoatchilik.*

*In this article describes the problems encountered in the education of the harmoniously developed young generation in the conditions of cooperation of the family, school, professional colleges and higher educational institutions with makhallas and the public.*

**Key words:** *family, cooperation of school, families, professional colleges, learners, training and education, educational institutions, cooperation of makhalla and educational institution, the public.*

*В данной статье изложены проблемы, встречающиеся в воспитании гармонично развитого молодого поколения в условиях сотрудничества семьи, школы, профессиональных колледжей и высших учебных заведений с махаллей и общественностью.*

**Ключевые слова:** *семья, сотрудничество школы, семьи, профессиональных колледжей, учащиеся, обучение и воспитание, образовательные учреждения, сотрудничество махалли и образовательного учреждения, общественность.*

Ayni vaqtda Respublikamizda jismoniy jihatdan etuk, sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelmoqda. Kelajak avlodni komil inson qilib etishtirishda oila, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, mahalla va jamoatchilikning mustahkam aloqasini ta'minlash zarur, busiz tarbiya sohasida ijobiy natijalarni qo'lga kiritib bo'lmaydi.

Farzand tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi uchinchi muhim omil – o'quv maskanlari bo'lib, ular tufayli bolalarimiz o'qimishli, hayot uchun zarur bilim asoslarini egallagan, komil inson bo'lib shakllanadilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchiga bilim va ta'lim beradi, oilada esa mazkur ta'lim-tarbiyaning davomi amalga oshadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida olib borilayotgan har qanday tarbiyaviy ishlarning tag zamirida o'quvchini etuk inson qilib etishtirishga qaratilgan ezgu maqsad yotadi.

Maktab va kasb-hunar kollejlari oilaga pedagogik malakali ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega. Xususan, darsdan so'ng o'quvchi bo'sh vaqtini



mazmunli, foydali o‘tkazishi uchun sinfdan tashqari to‘garak ishlari tashkil etilib, ular faoliyati o‘quvchi-yoshlarning aqliy va axloqiy rivojlanishida, xususan, yoshlarning turli darajadagi qonunbuzarliklarga moyilliklarining oldini olishiga qaratiladi. Yoki mahallada hashar va obodonchilik ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish, bayram yoki ommaviy tadbirlarga o‘smir va o‘spirinlarni jalb qilish oila tarbiyasini yaxshilashga amaliy yordam beradi. Natijada ota-onalarning hotirjam mehnat qilishiga qulay sharoit yaratiladi.

O‘z navbatida, oila ham o‘quv-tarbiya jarayonini qayta qurish, zamonaviy fan asoslarini egallashni tashkil etish kabilarda maktab jamoasiga moddiy-ma‘naviy yordam beradi. Bularning barchasi jamiyatimizda shakllangan ta‘lim-tarbiya institutlari: maktab, mahalla va oila hamkorligining nihoyatda zarur ekanligini ko‘rsatadi. Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda barkamol o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda maktab – oila – jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikdagi ta‘siriga ehtiyoj tobora ortmoqda.

Tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishiga umumiy javobgarlik bevosita umumiy o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi zimmasiga yuklatiladi.

Hozirgi vaqtdagi turmush tarzi odamdan haddan tashqari harakatchanlikni talab qilmaydi. Bu gap ayniqsa, talabalar, maktab o‘quvchilari, aqliy mehnat ishchilari, engil jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilar, turli darajadagi rahbarlarga aloqadordir. Biz o‘z kun tartibimizni tahlil qilib, aslida hech qanday jismoniy yuklama olmayotganligimizga ishonch hosil qilamiz. Misol uchun maktab o‘quvchilari va talabalarni olib ko‘radigan bo‘lsak, ularning ko‘pchiligi juda oz jismoniy harakat qiladilar.

Ular zo‘rg‘a uyqudan turadilar, ertalab badantarbiya bilan muntazam shug‘ullanmaydilar. O‘qishga jamoat transportida, ba‘zan esa shaxsiy mashinada boradilar. Deyarli harakatsiz 6-8 soat davomida maktabda yoki 10-12 soat mobaynida ilmgohda shug‘ullanadilar. Shundan keyin yana transportda uyga qaytadilar. Dars tayyorlab, uy yumushlarini bajariladilar, soat 23-24 gacha televizor tomosha qilib, so‘ng uyquga ketadilar. Shu tarzdgai tartib har kuni davom etib, organizm etarli darajada jismoniy harakat qila olmaydi.

Harakat uchun energiya zarur, energiya esa oziq-ovqat mahsulotlari yog‘ va uglevodlarni qayta ishlash yo‘li bilan olinadi. Harakat – nafas, qon tomirlari, ovqat hazm qilish, qon ishlash chiqarish tizimlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Bolalik, o‘smirlik davridan boshlangan chiniqish mashg‘ulotlari ayniqsa foydalidir. Har bir kishi o‘z organizmini mustahkam rejimga o‘rgatishi zarur. Badantarbiya, ochiq toza havoda sayr qilish, sport o‘yinlari kabi chiniqtiruvchi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish – uzoq umr va salomatlikni ta‘minlovchi omillardandir.

Hozirgi davrda bolalar va o‘smirlarning vazni o‘tmishdoshlarining vazniga qaraganda og‘ir, o‘sish protsessi ham ularga qaraganda 2 yil oldin to‘xtaydi.



Akseleratsiya jismoniy rivojlanishning tezlashuvini ifodalasa, bolalar yoki o'smirlar organizmi jismoniy rivojlanishining kechikishi gipodinamiya deyiladi. Gipodinamiya doimiy ravishda o'tirib ishlash, piyoda yurmaslik, kam jismoniy harakat, muskullarga tushadigan yuklamaning natijasida yuzaga keladi.

Demak, organizmni chiniqtirish, mehnat unumdorligini oshirish, sog'liqni mustahkamlash orqali uzoq umr ko'rishni istaganlar, albatta doimiy ravishda jismoniy harakat bilan shug'ullanib turishi va kun tartibiga rioya qilishlari kerak bo'ladi.

Yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi yana bir muhim maskan bu – oila bo'lib, farzand kamolotining negizini ta'minlashda uning olamshumul ta'sirga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Lekin ayrim hollarda bolani o'z oilasining noo'rin ta'siridan himoyalashga ham to'g'ri kelib qolishi mumkin. Shu sababli mahalla faollari ishlab chiqqan tarbiya dasturida yoshlarni oilaning salbiy ta'siridan himoya qilishga qaratilgan ish rejalari mavjud bo'lishi kerak. Masalan, oiladagi ichkilikbozlik, nashavandlik, ma'naviy buzuvchi kabi xunuk illatlarga berilgan kattalarning salbiy ta'siri bolaning ma'naviy majruh bo'lib qolishiga sabab bo'lishi hech kimga sir emas. Mazkur holatlarni bartaraf etishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishni oilaviy va ijtimoiy hayot taraqqiyoti talab etmoqda [4].

Oilada sog'lom muhitning yuzaga kelishi ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro munosabati, kattalarga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlarining to'g'ri tarbiyalanganligi, ota-onaning bolalar tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib va o'zlashtirilgan yaxshi odatlar, ota-onaning mehnat hamda ijtimoiy hodisalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kabi holatlar shular jumlasidandir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, o'sha oiladagi sog'lom muhitning yuzaga kelishi uchun sharoit yaratiladi. Nosog'lom oilaviy muhit o'sayotgan bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi, ularda yomon odatlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi.

So'nggi vaqtlarda chekishning boshqa turi giyohvand moddalarni iste'mol qilish yoki tamakiga qo'shib chekish, suyuqlikni hidlab kayf qilish holatlari orasida keng tarqalmoqda.

Zararli odatlardan yana biri – spirtli ichkiliklarni iste'mol qilish bo'lib, yoshlar o'zlarida bu boradagi bilimlarining etarli emasligi tufayli ularni iste'mol qilishga ruju qo'yadi. Shu bois 5-9 sinf o'quvchilarining ushbu odatni inson organizmiga salbiy ta'sir etishi borasidagi tushunchalar bilan qurollanishi muhim ahamiyatga ega. Manbalarda ko'rsatilishicha, 14-16 yoshli ug'il yoki qiz bolaga bir qadaq vino katta yoshli odamning bir shisha aroq ichganidek yomon ta'sir etadi.

Zararli odatlardan yana biri – giyohvandlik XX asr vabosi sifatida tez va keng miqyosda tarqalmoqda. O'smir va o'spirinlarga bu hususida tushunchalar berish ularning ushbu odatlar bilan shug'ullanishning oldini oladi. Giyohvandlikning jismoniy va ma'naviy zararlari to'g'risida dunyo ommaviy axborot vositalari orqali ko'p ma'lumotlar tarqalmoqda. O'zbekistonda ham bu borada bir qator



xalqaro anjumanlar o'tkazilmoqda, giyohvandlikka qarshi profilaktik ishlarni yo'lga qo'yish maqsadida mahalliy bir qancha tashkilotlar ta'sis etildi, xalqaro tashkilotlar faoliyat olib borilayotgan bo'lsa ham, afsuski, bu ofat doirasi hanzugacha keng yoyilmoqda.

Giyohvandlikning e'tiqodi yuksak insonlar tomonidan iste'mol qilinishi, ayrimlarning moddiy daromad orttirish maqsadida giyohvand moddalari bilan savdo qilishi hamda ko'plab yoshlarning uning qurboni bulayotganligi achinarli holdir.

Afsuski, ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajakdagi hayoti haqida hozirgi zamon talabi darajasida ota-onalik ijtimoiy mas'uliyatini his qilmaydilar. O'zlarining ish bilan bandliklari va boshqa sabablarni ro'kach qilib, farzand tarbiyasiga befarq qaraydilar. Ular ota-onaning eng asosiy vazifasi oilani moddiy jihatdan ta'minlash deb bilishadi. Ular farzandlarini aqliy va ma'naviy kamol toptirish, oila hayotini har tamonlamoq, ya'ni moddiy va ma'naviy boshqarish bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatishini tushunmaydilar yoki buni amalga oshirishda o'z vazifalarini to'g'ri belgilab olmaydilar. Oqibatda, oila tarbiyasida ko'plab muammolar yuzaga keladi 3.

Bunday hollarda mahalladagi namunali oilalar tajribasi va sinf rahbarlarining amaliy pedagogik maslahatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli maktab pedagogik jamoasi va mahalla oqsoqollari tarbiyaning ushbu ta'sirchan usullaridan amaliy foydalanish yo'llarini ishlab chiqishlari lozim.

Maqsadimiz o'quvchi-yoshlar barkamolligini ta'minlashdan iborat ekan, birinchi galda, ta'lim-tarbiya samaradorligini tashkil etishda mehnat jamoalari, xayriya va xalqaro fondlar ko'magida ota-onalarning bola tarbiyasi sohasidagi bilimlarini oshirish uchun alohida ilmiy-amaliy pedagogik jurnallar, tavsiyalar va qo'llanmalar nashr qilishni yo'lga qo'yish lozim. Ota-onalarning pedagogika va psixologiya fanlaridan zaruriy bilimlar bilan qurollantirish, bola tarbiyasida oila, maktab, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim, mahalla, mehnat jamoalari hamda jamoatchilikning hamkorlikdagi ta'sirini amalga oshirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Brexman I.I. Валеология - наука о здоровье. М.: Физкультура и спорт, 1990 г. - 196 с.
2. A.Saidov, Sh.Usanov. Tarbiyada oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla va jamoatchilik hamkorligi // Uzluksiz ta'lim. № 3. 2013. -B. 103-106.
3. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyat va sog'lom turmush tarbiyasi. - T.: O'zbekiston, 2000. - 216 b.



## «IDEAL GAZ VA UNING XOSSALARI» MAVZUSINI PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IZCHILLIK TAMOYILI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

**E. B. XUJANOV,**

*TDPU, Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,  
p.f.f.d. (PhD), dotsent*

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida «Ideal gaz va uning xossalari» mavzusini izchillik asosida o'rganilish holati tahlil etilgan va tavsiyalar bayon qilingan.*

**Tayanch so'zlar:** *ideal gaz, izchillik tamoyili, molekula, kredit-modul tizimi, metod, model, real gaz, molekulyar-kinetik nazariya, holat tenglamasi, molekula tezligi, temperatura, tushuncha, tasavvur, empirik usul, nazariy usul, termodinamika qonunlari.*

*В этой статье анализируется ситуация и излагаются рекомендации по последовательному изучению темы «Идеальный газ и его свойства» в общеобразовательных школах, академических лицеях и профессиональных учебных заведениях, а также в педагогических высших учебных заведениях.*

**Ключевые слова:** *идеальный газ, принцип согласованности, молекула, кредитно-модульная система, метод, модель, реальный газ, молекулярно-кинетическая теория, уравнение состояния, скорость молекулы, температура, концепция, воображение, эмпирический метод, теоретический метод, законы термодинамики.*

*This article analyzes the situation and provides recommendations for the consistent study of the topic «Ideal gas and its properties» in secondary schools, academic lyceums and vocational schools, as well as in pedagogical higher educational institutions.*

**Key words:** *ideal gas, consistency principle, molecule, credit-modular system, method, model, real gas, molecular kinetic theory, equation of state, molecular velocity, temperature, concept, imagination, empirical method, theoretical method, laws of thermodynamics.*

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat 601 10700-Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi uchun «Molekulyar fizika va termodinamika» fani uchun jami jami 150 soat (5 kredit) ajratilgan bo'lib, shundan 60 soat auditoriya mashg'uloti uchun, 90 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Ushbu dasturda «Ideal gaz va uning parametrlari» mavzusi uchun 4 soat auditoriya, 6 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Ideal gaz tushunchasi bu fizikada qo'llaniladigan modellardan biri bo'lib bu molekulyar fizikaning asosini tashkil etadi deb bimalol ayta olamiz.

Talabalarda ideallashtirishning nazariy metodlarini shakllantirish murakkab



va uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Real obyektlar va hodisalarni ideallashtirish fizikada tasodifan paydo bo'lgani yo'q. Talabalarni ideallashtirish metodi bilan qurollantirish o'ziga xos fikrlash jarayonidan iborat bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) ko'pchilik obyekt yoki hodisalar ichidan ideallashtirish zarurini ajratish;
- 2) ajratilgan obyekt yoki hodisaga taalluqli real jarayonlarga tegishli bo'lgan muhim xossalarni belgilash;
- 3) belgilangan xossani o'rinli bo'lish chegarasini aniqlash;
- 4) ideallashtirilgan obyekt yoki hodisani ta'riflash;
- 5) ideallashtirilgan ob'yektni fizik qonunga hamda nazariyaga kiritish;
- 6) hosil bo'lgan ideallashtirishdan foydalanish.

Fizika kursini o'rganish davomida talabalar deyarli barcha bulimlarda bu metod bilan tanishadi. Natijada ularda, o'rganilayotgan jarayonlar va ob'ektlarni to'g'ri ideallashtirish, muvaffaqiyatli o'qishni ta'minlaydigan muhim metodologik shart ekan, degan fikr tug'iladi. Undan tashqari, ideallashtirishning ilmiy-tadqiqotlardagi rolini ko'rsatish asosida, bu metodni fizika fanini rivojlantirishdagi ahamiyati tushuntiriladi.

Ideal gaz tushunchasi statistik fizika obyektining modeli bo'lib, u maktab fizika kursida umumiy va nazariy fizika kurslaridagina emas, balki fizika fanida xam muhim o'rin tutadi.

Birinci bo'lib, ideal gaz tushunchasini fransuz fizigi Reno va nemis fizigi Klauziuslar, kiritishgan Klauzius bo'yicha ideal gazning ta'rifi quyidagicha:

1. Molekulalar haqiqatda egallashi mumkin bo'lgan hajm butun gaz egallagan hajmga nisbatan hisobga olmaydigan darajada kichik bo'lishi kerak.
2. Molekulalarni to'qnashish vaqti, to'qnashishlar orasida o'tgan vaqtga nisbatan juda kichik bo'lishi kerak.
3. Molekulalarning ta'sir kuchi xisobga olinmaydigan darajada bo'lishi lozim.

Ideal gaz xossalari taalluqli bo'lgan statistik g'oya va tushunchalarni maktab fizika kursi, umumiy va nazariy fizika kurslarida o'rganish orasidagi izchillikni qarab chiqaylik.

Statistik tasavvurlarni ideal gaz modeliga qo'llashning birinchi sharti bo'lib, uni tashkil qilgan zarralarni tartibsiz harakat qilishi hisoblanadi. Tabiiyki, bunday sistema uchun statistik qonuniyatlar o'rindir. Ammo, yaqin vaqtlargacha maktab fizika kursida bu g'oya etarli darajada aks etmadi.

O'quvchilarning bilimini tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, ularni bunday usulda o'qitish, o'quv materialini o'zlashtirishda qiyinchilik tug'dirar ekan. Ularni matematik isbotlar, ideal gaz modeli va gaz qonunlarini qo'llanilish chegarasi bilan bog'liq bo'lgan bilimlari past darajada ekanligi aniqlandi.

Bu kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan ishlarning asosiy maqsadi bo'lib,



ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy tenglamasini va uni qo'llanish chegarasini o'rganish metodikasini takomillashtirishdan iborat bo'ldi. Issiqik hodisalari va termodinamik parametrlar ( $p$ ,  $V$ ,  $T$ )ni statistik xarakterini ochish esa e'tibordan chetda qoldi.

Izchillik tamoyilini amalga oshirish nuqtai nazaridan Maksvell va Bolsman taqsimotlarini ko'raylik. Maktab fizika kursida molekullarning tezligi haqida boshlang'ich tushuncha, sifat jihatdan 7-sinfda beriladi. Keyinchalik, 10-sinfda bu kattalik tajriba faktlari asosida, mikdor jihatdan bayon qilinadi. Alohida molekullarning tezligi ixtiyoriy, ammo tezlik modulining o'rtacha qiymati aniq bo'ladi degan fikr asosida, tezlik moduli kvadratining o'rtacha qiymati kiritiladi. So'ngra Shtern tajribasi asosida bu fikrni o'rinli ekanligi tasdiqlanadi, shu bilan birga, molekulaning o'rtacha kinetik energiyasi absolyut temperaturaga proporsional ekanligi ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, Maksvell tezliklar taqsimoti sifat jihatdan bayon qilinadi. Bu fikrni Bolsman taqsimotiga nisbatan ayta olmaymiz. 7-sinfda atmosfera bosimini balandlik bo'yicha o'zgarishi o'rganilib, uni molekulyar-kinetik tasavvurlar asosida tushuntirish talab qilinadi, buni esa maktab fizika kursida faqat sifat jihatdan bajarish mumkin.

Umumiy fizika kursida Maksvell va Bolsman taqsimotlari «Molekulyar fizika va termodinamikaga kirish» bo'limida o'rganiladi. Bu taqsimotlar turli usullarda keltirib chiqarilib, ularni ichida izchillik tamoyili nuqtai nazaridan mos keladigan, Maksvell va Bolsman taqsimotlarini olti o'lchovli koordinata va impuls fazosidan foydalanib topish hisoblanadi. Bunday fazoning har bir nuqtasi zarraning ma'lum bir holatiga mos keladi. Keyin esa, Maksvell va Bolsman taqsimot funksiyalari alohida tahlil qilinadi. Jumladan, Maksvellning tezlik proektsiyalari va absolyut qiymati bo'yicha taqsimotlari topiladi, o'rtacha, eng ehtimoliy va kvadratik o'rtacha tezliklar topiladi. Boshqacha aytganda, bularning barchasida zarraning tezligi tasodifiy kattalik deb qaraladi.

Nazariy fizikaning «Statistik fizika va termodinamika» kursida Maksvell va Bolsman taqsimotlari Gibbsning kanonik taqsimotidan topilib, uning natijasi sifatida qaraladi. Haqiqatda, Gibbsning kanonik taqsimoti statistik termodina-mikaning yadrosini tashkil qiladi, chunki undan fenomenologik termodinamikaga tegishli barcha munosabatlarni olish mumkin. Masalan, bu taqsimotni ideal gazga tatbiq kilib, holat tenglamasini, energiyani erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimlanishini, Maksvell va Bolsman taqsimotlari va boshqa natijalarni olish mumkin [2].

1 – jadvaldan maktab fizika kursiga taalluqli mavzular asosan energiyani erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimlanishi haqidagi qonun bilan bogliq ekanligi ko'rinib turibdi. Bu qonun umumiy fizika kursi doirasida sifat jihatdan isbotlanib, keyin ideal gazning issiqlik sig'imiga tadbiq qilinadi. Bu qonunning o'rinli ekanligi statistik fizikada, Gibbsning kanonik taqsimoti yordamida ko'rsatiladi. Olingan



natija bir va ko'p atomli ideal gazlarning issiqlik sig'imiga tadbiiq qilinib, topilgan ifodalar tajriba bilan solishtiriladi. Ularni farqi, ya'ni issiqlik sig'imini temperaturaga bogliqligi, keyinchalik kvant tasavvurlar asosida kvant statistikasida tushuntiriladi.

Ideal gazning holat tenglamasi o'rtacha va oliy maktab fizika kurslarida o'rganiladi. U turli usullar bilan topilishiga qaramasdan, ko'rinishi bir xildir. Masalan, maktab va umumiy fizika kurslarida bu tenglama MKNning asosiy tenglamasi orqali topilsa, statistik fizikada bo'lsa holat integrali yordamida topiladi.

Molekulyar fizika va termodinamikani izchillik asosida o'rganish tizimi

1-jadval

Statistik fizika va termodinamika	Molekulyar fizika va termodinamikaga kirish	Umumiy o'rtacha ta'lim maktab	AL va professional ta'lim muassalari molekulyar fizika kursi
Ko'p zarrali sistemalar. Fizikadagi dinamik va statistik qonuniyatlar. Klassik va kvant statistik fizikadagi Gibbsning kanonik taqsimoti. Statistik yig'indi yoki holat integrali va uni erkin energiya bilan bog'lanishi. Termodinamik kattaliklarni (o'rtacha energiya, bosim, entropiya va boshq.) Gibbsning kanonik taqsimoti orqali hisoblash. Kinetik energiyani erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimlanishi haqidagi teorema va uning tadbiiqi. Maksvellning tezliklar taqsimotini kanonik taqsimotdan topish. Maksvell - Bolsman taqsimoti. Barometrik formula. Gibbsning kanonik taqsimotini bir va ko'p atomli gazlarga tadbiiqi. Broun harakati. Eynshteyn-Smoluxovskiy tenglamasi. Van-der-Vaals tenglamasi.	Gazlar molekulyar - kinetik nazariyaning asosiy tushunchalari. Gazning bosimi. Absolyut temperatura. Ideal gaz. Mendeleev-Klapeyron tenglamasi. Gazlar kinetik - nazariyasining asosiy tenglamasi. Absolyut temperatura va bosimning molekulyar-kinetik talqini. Molekulalar tezligini o'lchash. Shtern tajribasi. Molekulalar tezliklarini Maksvell taqsimoti. Barometrik formula. Maksvell-Bolsman taqsimoti. Avogadro sonini tajribada aniqlash. Energiyani erkinlik darajalari bo'yicha taqsimlanishi. Molekula erkin yugurish yo'lining o'rtacha uz unligi va o'rtacha vaqti. Diffuziya. Ichki ishqalanish. Issiqlik o'tkazuvchanlik. Van-der-Vaals tenglamasi.	Molekulyar-kinetik nazariya haqida tushuncha. Molekulalarning o'Ichami va massasi. Modda miqdori. Molyar massa. Ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi. Temperatura. Gaz molekularining harakat tezligi. Ichki energiya va ish. Issiqlik miqdori. Solishtirma issiqlik sig'imi. Ideal gaz holat tenglamalari. Izojarayonlar. Termodinamikaning birinchi qonuni.	Molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy qonun - qoidalari va ularni tajribada tasdiqlanishi. Molekulalarning tavsifi va kattaligi. Molekulalarning o'zaro ta'sir kuchlari va energiyasi. Ideal gaz va uning parametrlari. Ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi. Mendeleev - Klapeyron tenglamasi. Gaz molekularining tezligi va Maksvell taqsimoti. Shtern tajribasi. Gazlardagi izojarayonlar va ularning tenglamalari. Sistemaning ichki energiyasi. Energiyani erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimlanishi. Ichki energiyani o'zgartirish usullari. Ish va issiqlik. Issiqlik sig'imi. Solishtirma issiqlik sig'imi. Issiqlik balansi tenglamasi. Termodinamikaning birinchi qonuni va uning tadbiiqlari. Mayer formulasi. Adiabatik jarayon. Qaytuvchan va qaytmas jarayonlar. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Real gazlar va ularning holat tenglamasi. Van-der-Vaals tenglamasi va izotermalari. Kritik holat.



Termodinamikada topilgan umumiy formulalar, sodda misol sifatida ideal gazga tatbiq qilinib, yuqorida aytilgan natijalardan tashqari, entropiya uchun ham ifoda topiladi. Bu kattalik esa jarayonlarning qaytuvchan va qaytmasligini miqdoriy tavsifi bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiatning fundamental qonunlaridan biri bo'lgan termodinamikaning ikkinchi qonuni hanzugacha o'rtamumta'lim maktabda o'qitilmaydi. Bizning va boshqa metodist-olimlarning fikricha, maktab fizika kursiga bu qonunni kiritish kerak. Hozirgi vaqtda bunga to'la asos bor, chunki 9 - sinf molekulyar fizika kursida issiqlik jarayonlarning qaytmasligi, issiqlik dvigatellari va ularning foydali ish koeffitsientlarini o'rganish dasturda e'tiborga olingan [4].

Shuning uchun, statistik fizika va termodinamika kursida ideal gaz xossalarini o'rganishda, talabalarga unga taalluqli ehtimoliy-statistik g'oya va tushunchalarning izchilligini o'qitish bosqichlari bo'yicha ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi PF-5847-son Farmoni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.

2. Djorayev M., Xujanov E.B. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma - TDPU, Toshkent., 2021. - 248 b.

3. Жўраев М. «Физика ўқитишда статистик гоёлар. Методик қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1996. - 88 б.

4. Хужанов Э.Б. Преподавание физики в общеобразовательных школах на основе статистического метода // Проблемы современного образования. Электронный журнал. <http://www.pmedu.ru>. - Москва, 2019. - № 1. - С. 175 - 182.



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KREATIV SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

**I.E. SHERNAZAROV,**

*TDPU, Pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent*

*Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarda kreativ fikrlash savodxonligi va bu savodxonlikni shakllantirishda zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Kreativ fikrlash savodxonligi umumta'lim maktablarini qaysi sinflarida shakllanishi, qisman qaysi mavzularda shakllantirishi va rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kreativ fikrlash, PISA, Xalqaro tadqiqot, OECD, kreativlik, ijodiy fikirlash.*

*В статье представлена информация о грамотности творческого мышления учащихся в системе непрерывного образования, а также о навыках и умениях, необходимых для формирования этой грамотности. Дана информация о том, в каких классах общеобразовательных школ формируется грамотность творческого мышления, частично по каким предметам она формируется и развивается.*

**Ключевые слова:** *креативное мышление, PISA, международные исследования, OECD, креативность, творческое мышление.*

*The article provides information on the literacy of creative thinking of students in the system of continuing education, as well as on the skills and abilities necessary for the formation of this literacy. Information is given about which classes of secondary schools form literacy of creative thinking, partly in which subjects it is formed and developed.*

**Key words:** *creative thinking, PISA, international studies, OECD, creativity, creative thinking.*

2022-yil o'tkazilgan PISA (programme for international student assessment) xalqaro dasturida kreativ fikrlashni baholash ilk marta amalga oshirilgan bo'lib, OECD (The Organisation for Economic Co-operation and Development)-ning kreativ fikrlashni rivojlanishiga qodir yangi pedagogik g'oyalarni qollab quvvatlash bilan bog'liq yana bir yangi loyihadir. Bundan maqsad faqat ijodkor shaxslarni ajratib olish emas aksincha o'quvchilar g'oyalarni qidirish va ifodalashda kreativ fikrlash qobiliyatini hamda qobiliyatning o'qish yondashuvi maktab faoliyati va talim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog'liqligini tavsiflaydi [1].

Kreativ fikrlash nima? Kreativ fikrlash – Inovatsion, yangi novator, original, nostandart, noodatiy va samarali, amaliy, natijaviy, tejimli, optimal yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni tasirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni



ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Kreativ fikirlash – bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishda yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikirlash bilan adashtirib yubormasligimiz aksincha bizga muammolarni xal qilishda bir-birini to‘ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan manbalardek qarashimiz kerak [2-3].

PISA tadqiqotlarida o‘quvchilardan kreativ fikirlashni baholash modeliga ko‘ra ilmiy muammolarni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish, o‘z fikirlarini yozma yoki vizual ifodalash talab etiladi. Kreativ fikirlashni baholashda turli kreativ g‘oyalarni ishlab chiqish hamda g‘oyalarni baholash va takomillashtirish kompetentligiga etibor qaratiladi.

Kreativlikning mohiyati – intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta‘lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda [5].

Ta‘lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, quyida ayrimlarini keltirib o‘tish mumkin. Masalan:

kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish umumta‘lim maktablarining 7-sinfidan boshlanadi. Masalan, kimyo fani mavzulariga oid masalalarni ishlash davomida o‘zaro tahlili qilish jarayonida izlanuvchanlik, muammoli tadqiqotchilik kompetensiyalari shakllanadi;

– ta‘lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish esa 8-sinf o‘quvchilarida fanlarni o‘zlashtirishi natijasida shakllantirib boriladi. Masalan, metallarga kislotalarni ta‘siri natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlarni aniqlash va ularni reaksiya tenglamalarini ifodalash vaqtida o‘quvchilarda muammoni ijodiy yechimi shakllanadi. 10-sinf o‘quvchilarida organik kimyo fanidagi reaksiyalarni (organik moddalar o‘zaro reaksiyaga kirishganda hosil bo‘ladigan moddalarni) ifodalashda o‘quvchilarda yaratuvchanlik qobiliyati va kimyoviy jarayonlarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllanib boradi [6];

– ta‘lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish esa 9-sinfda o‘tiladigan fanlarni o‘zlashtirish natijasida amalga oshiriladi;

– ta‘lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga



erishish esa 10-11-sinf o'quvchilarini kasbga yunaldirishga oid fanlarni o'zlashtirish natijasida amalga oshiriladi;

– ta'lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar esa 11-sinf o'quvchilarida shakllantiriladi.

Umumta'lim maktab o'quvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

– ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

– tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

– keyslar bilan ishlash;

– guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish;

– o'quv loyihalarini tayyorlash;

– portfoliolarni shakllantirish;

– kastinglar uyushtirish;

– to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va hokazo.

O'quvchilarni kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud:

– kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi;

– kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi;

– kreativ sifatning shakllanganligi;

– amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish;

– ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi [7].

Ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bu - o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. Aynan talabalar oliy ta'lim muassasalaridagi fanlarni o'zlashtirish davomida professor-o'qituvchilar tomonidan rivojlantirib boriladi. Ular pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

– ilmiy bilish;

– gnoseologik bilish;

– pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;

– har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy-kreativ yondashish;



– ta’limiy, tarbiyaviy ta’sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;

– o‘zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o‘rganish va ichki psixologik zaxirasidan samarali foydalanish orqali o‘zini muttasil rivojlantirish;

– jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish ijobiy pozitiv fikrlashga o‘tish tajribasidan iboratdir.

Tashkiliy boshqaruv bo'yicha tadqiqotning predmeti tashkil etish jarayonlarini boshqarish hisoblanadi. Korporativ boshqaruv metodlarida esa boshqaruvni tashkil etish fan sifatida, asosan, tavsifiy metodlarga tayanadi. Ayni paytda boshqaruv nazariyasi sifatida ham empirik, ham nazariy metodlardan foydalanadi.

Korporativ boshqaruv faoliyatini ko'rib chiqishning to'rt darajasini alohida ko'rsatish mumkin:

- 1) konseptual daraja (boshqaruv faoliyatining umumiy kategoriyalaridan foydalaniladi);

- 2) tahlil darajasi (boshqaruv subyektlarining faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beruvchi detalizatsiyalashtiruvchi tavsif);

- 3) sintez darajasi (boshqaruv subyektlarining faoliyat ko'rsatishining eng samarali usullarini topish imkoniyatlarini beruvchi konkretlashtiruvchi tavsif);

- 4) amalga oshirish darajasi (aniq belgilangan sharoitlarda mavjud barcha jihatlarni e'tiborga oluvchi ham boshqaruv faoliyati, ham boshqariladigan subyektlar faoliyatining optimal darajasi).

Korporativ boshqaruv amaliy faoliyat turlaridan biri sifatida umumiy xususiyatlarga ega. Undan tashqari, o'ziga xos bo'lgan jihatlardan ham tavsiflanadi.



1. Boshqaruv faoliyatining subyektivligi. Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, boshqaruv faoliyati subyektivdir. Boshqaruv faoliyatida boshqaruv subyektining shaxsiy sifatлари, ularning kasbiy tajribasi va axloqiy nuqtai nazari muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Boshqaruv obyektі tomonidan amalga oshiriladigan maqsadni mustaqil belgilash uning ajralmas qismi hisoblanadi. Odatda, u nafaqat o’z faoliyati maqsadini mustaqil belgilaydi, balki boshqarilayotgan tizim maqsadini belgilaydi, uning vazifalarini, maqsadga erishish usullarini shakllantiradi.

3. Boshqaruv faoliyati natijalarining bevositaliligi shundan iboratki, unda boshqaruv faoliyatining natijasi bevosita boshqaruv tizimiga ta’sir ko’rsatadi. Biroq bu ta’sir o’z-o’zidan sodir bo’lmaydi, balki boshqariladigan tizimni maqsadga muvofiq faoliyat ko’rsatishini ta’minlash niyatida amalga oshiriladi.

Boshqaruv tizimining faoliyati boshqaruv faoliyatining predmeti hisoblanadi, ya’ni boshqaruv faoliyatining pirovord natijasi boshqaruv tizimining holatini bildiradi. Aynan shu natijaga asosan boshqaruv faoliyatining samaradorlik darajasi baholanadi.

4. Qarorlar qabul qilish jarayonlarini to’liq shakllantirish mumkin emas. Zero, unda har doim noma’lum omillar bilan birga ijodkorlik elementlari mavjud. Ayni paytda ijodkorlik mavjud qoidalar, etik va boshqa talablar, zaxira va boshqa cheklovlar sababli reglamentlashtirilgan.

Boshqaruv subyektі tomonidan boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayoni shundan iboratki, har bir aniq vaziyatda muayyan qarorlar qabul qilinadi.

Ta’lim siyosatini shakllantirish, ta’lim sifatini boshqarish va nazorat qilishda jamoatchilikning ishtirokini rivojlantirish davlatning ta’lim sohasidagi siyosatining yaqin kelajakdagi ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi. Ta’limni korporativ boshqarishga oid tadqiqotlarning son jihatidan salmoqliligi shundan dalolat beradiki, ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish muammolarini tadqiq etish jahon miqyosida e’tibor qaratilayotgan muammolar sirasiga kiradi.

### **Foydalanilgan manbalar:**

1. Лапыгин Ю.Н. Теория организации: учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2007. - 222 с.

2. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. Jamoa // Toshkent: «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 400 b.

3. Исаев И.Ф. Школа как педагогическая система: основы управления. - Белгород: БГУ, 1997. - 145с.

4. Третьяков П.И. Оперативное управление качеством образования в школе. Теория и практика. Новые технологии. - М.: Скрипторий, 2004. - С.568. 51-б.



## FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**D.Z.SAYDALIYEVA,**

*Toshkent davlat transport universiteti  
«Chet tillar» kafedrasi dosenti v.b.*

*Raqamli texnologiyalar turli sohalarda, jumladan, ta'lim, o'qitish usullarini takomillashtirish va ta'lim natijalarini yaxshilashda inqilob qildi. Filologiya fanlari sohasida raqamli vositalardan foydalanish tilni o'zlashtirish, matni tahlil qilish va mavzu bo'yicha umumiy ishtirokni kuchaytirish uchun ulkan salohiyatga ega. Ushbu maqola filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishning ahamiyatini o'rganadi.*

**Kalit so'zlar:** *texnologiya, tadqiqotlar, metodlar, yevropa mamlakatlari, indekslar, filologiya ta'limi.*

*Цифровые технологии произвели революцию в различных областях, включая образование, усовершенствование методов преподавания и улучшение результатов обучения. В области филологических наук использование цифровых инструментов имеет огромный потенциал для улучшения овладения языком, текстового анализа и общего вовлечения в предмет. В данной статье исследуется значение совершенствования механизмов использования цифровых технологий в преподавании филологических наук.*

**Ключевые слова:** *технологии, исследования, методы, страны Европы, показатели, филологическое образование.*

*Digital technologies have revolutionized various fields, including education, enhancing teaching methods and improving learning outcomes. In the domain of philological sciences, the utilization of digital tools has enormous potential to enhance language acquisition, textual analysis, and overall engagement in the subject matter. This article explores the significance of improving the mechanisms of using digital technologies in the teaching of philological sciences*

**Key words:** *technology, research, methods, European countries, indexes, philological education.*

*Zamonaviy ta'lim tizimi o'quv materialini o'qitishning turli usullarini o'zgartirish, muvofiqlashtirish va modernizatsiya qilish natijasidir. Filologiya fanlarini o'rganish tarkibida talabalarga ma'lumot taqdim etishning yangi yondashuvlari shakllangan, bilimlarni idrok etishning yangilangan usullari an'anaviy ta'limdan farq qiladi [1,2].*

*Zamonaviy tadqiqotchilar filologiya fanlarini raqamli o'qitishni ta'minlash uchun quyidagi vositalarni ajratib ko'rsatish kerakligini ta'kidlaydilar, xususan: – robotlar, mexanizatsiyalashgan aqlli yordamchilar va sun'iy intellekt yordamida*



filologiya fanlarini o'qitish. Ushbu o'qitish nazariyasi o'quv materialini sun'iy intellekt orqali talabalarga yetkazish uchun bilimlarni axborot to'plashning mexanizatsiyalashgan vositalariga birlashtirishni o'z ichiga oladi. Filologiya fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish zamonaviy o'qituvchilarning modernizatsiya qilingan va kompyuterlashtirilgan ta'lim makoniga moslashishiga yordam beradi, shuningdek ularning raqamli savodxonligi va xabardorligini oshiradi.

– Amaliy vaziyatlarni modellashtirish imkoniyati bilan virtual studiyalar yoki onlayn laboratoriyalar-o'quv markazlarini shakllantirish orqali olingan bilimlarni amaliy qo'llash bilan o'qitishning nazariy jihatlarini birlashtirish. Bunday o'qitish yondashuvlarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: talabalar va o'qituvchilarning real vaqt rejimida raqamli qurilmalar orqali aloqasi, analitik vositalarga masofadan kirish imkoniyati, fanlarni masofadan o'qitish va boshqalar. Virtual studiyaning o'ziga xos xususiyati yuqori texnologiyali dunyoning afzalliklaridan foydalanish orqali chet tillarini o'rganishda an'anaviy universitet yondashuvlaridan tashqariga chiqish qobiliyatidir [5]. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ma'lumot almashishning eng muvaffaqiyatli vositasi bu til bloglarini – o'qituvchilar tegishli o'quv materiallarini joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan onlayn jumallarni yuritishdir. Filologiya fanlarini o'rganishda bunday texnologiyaning samaradorligi nafaqat o'quv jarayonini tashkil etishning qulayligi, balki zamonaviy talabalar ijodining rivojlanishi, ularning raqamli postindustrial jamiyatga moslashishi bilan ham tasdiqlanadi.

– Ochiq ma'lumotlar bazalari va elektron raqamli manbalar orqali chet tillarini o'qitish, bu talabalarining shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish va o'quv jarayonida olgan bilimlarini oshirish uchun o'quv materiallarini uzatish mexanizmini soddalashtiradi. Ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanish o'qituvchilarga eng dolzarb ma'lumot manbalarini aniqlashga yordam beradi. O'z navbatida, talabalar olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta ishlash, tahlil qilish va talqin qilish imkoniyatiga ega [6]. Zamonaviy ta'lim muassasalari filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda faol ishtirok etib, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi.

Belgilangan usul tufayli filologik ta'lim sifatining ba'zi yevropa mamlakatlari ta'lim jarayonlarini axborot-kommunikatsiya, texnologik, raqamli va innovatsion qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liqligi aniqlandi. Statistika-analitik usul Evropa amaliyotida filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati va dinamikasini tahlil qilish jarayonida qo'llanilgan [4]. Shu bilan birga, Evropa ta'lim muassasalari talabalar tomonidan filologiya fanlarini, shu jumladan chet tillarini o'rganish darajasi va dinamikasini, shuningdek ko'rsatkichlarni tahlil qilish kontekstida inson kapitalining raqamli kompetentsiyasi darajasini tahlil qilish uchun jadvalli, grafik va analitik modellashtirish qo'llanildi. Turli qit'alar va alohida yevropa mamlakatlari, xususan, filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yuqori.



Filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning kuchayishi fonida o'qituvchilar malakasiga, xususan, raqamli savodxonlik va axborot-raqamli kompetensiya darajasiga yangi talablar paydo bo'ladi. «Raqamli savodxonlik» tushunchasi yaqinda shakllana boshladi, ammo u allaqachon raqamli ko'nikmalar to'plami sifatida talqin qiladigan zamonaviy olimlarning tadqiqotlarida batafsil tavsifga ega bo'ldi.

Ko'p tillilik zamonaviy Evropa jamiyatining ijtimoiy-madaniy hodisasi sifatida ta'lim jarayonlariga ta'sir qiladi va davlatlararo aloqani yaxshilash uchun plurilingualizmning muhimligini ta'kidlaydi. Biroq, ta'lim sohasini dinamik raqamlashtirish sharoitida o'quvchilarga o'quv materialini taqdim etishning eng yangi usullarining ahamiyati oshib bormoqda va shuning uchun hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar pedagogik faoliyatga faol joriy etilmoqda. Filologiya fanlarini o'qitish lingvistik xilma-xillik muhitida istiqbolli ish sohasidir. Bunday tendentsiyalar milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning yevropa makoniga integratsiyalashuvining oqibat-laridir[2]. Faol farqlash davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirishga yordam beradi va aloqa imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Filologiya fanlarini o'qitish tarkibiga raqamli texnologiyalarni joriy etish faoliyati raqamli Iqtisodiyot va jamiyat indeksi 2020 (bundan keyin – DESI-2020) bilan o'lchanadigan yevropa raqamlashtirish darajasiga bog'liq. Belgilangan indeks jamiyatning turli sohalarda, shu jumladan ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuv darajasining har tomonlama ko'rsatkichidir. Ko'rsatkich aholining hayot sifati va yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning raqamli va axborot raqobatbardoshligi darajasidagi o'zgarishlarning miqdoriy tavsifini beradi.

2019-2020 yillar davomida ba'zi yevropa mamlakatlari o'quv jarayonlarini raqamli qo'llab-quvvatlash darajasini sezilarli darajada yaxshiladilar, bu esa filologiya fanlarini o'qitish sifatiga ta'sir ko'rsatdi. Binobarin, Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya va Gollandiya DESI-2020da eng yuqori ko'rsatkichlarni oldi. Bunday tendentsiyalarning natijasi filologiya mutaxassisliklari talabalarining ta'lim sifatining yuqori darajasi va ko'rsatilgan davlatlar hududlarida ikki tilli va plurilingualizmning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Filologiya yo'nalishda oliy ma'lumot olayotgan talabalar integratsiyalashgan, moslashuvchan va samarali o'qitish tizimiga muhtoj, shuningdek, raqamli jamiyat talablariga moslashtirilgan yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini izlaydilar, hukumatlararo ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatini farqlash uchun bir qator nazariy tamoyillarni taklif etadi. Binobarin, filologiya fanlarini o'qitishda kompyuterlashtirilgan yondashuvning muvaffaqiyati jahon ta'lim tashkilotlari tomonidan taklif qilingan printsiplarga rioya qilish darajasiga bog'liq, ya'ni:

1. Talabalarga kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'rgatish. Shunga ko'ra, filologiya fanlarini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quv materialini uning ustuvorligi darajasiga va amaliyotda foydalanish imkoniyatiga muvofiq ravishda tuzish uchun amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, raqamli resurslardan foydalanish muqobil martaba yo'llarini baholashga yordam beradi.



2. Dastlabki investitsiyalarning turli darajalariga ega bo'lgan turli xil o'quv dasturlarini taklif qilish orqali talabalarning moliyaviy savodxonligini oshirish. Yuqorida aytib o'tilgan printsipga rioya qilish talabalar bilan turli xil ta'lim vositalariga (Internet resurslari yoki filologiya fanlarini o'rganish uchun dasturiy ta'minot, amaliy til ko'nikmalarini oshirish xizmatlari, onlayn kurslar, o'quv materiallari, adabiyotlar va boshqalarga) moliyaviy investitsiyalar balansi bo'yicha axborot va maslahat ishlarini olib borishni o'z ichiga oladi.) va ta'limga investitsiyalarning potentsial daromad darajasi.

3. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun filologiya fanlarini o'qitishda yuqori texnologiyali yondashuvlardan foydalanish. Filologiya fanlarini o'qitish jarayonida raqamli dasturlardan foydalanish kelajakdagi mutaxassislarning zamonaviy kompyuterlashtirilgan ta'lim makoni talablariga yuqori darajada moslashishini kafolatlaydi.

4. O'quv jarayonini talabaning shaxsiy hayotiga va uning hayotiy ustuvorliklariga moslashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish. Raqamli ta'limning ushbu modeli nafaqat kompyuter texnologiyalaridan, balki mobil axborot almashish vositalaridan ham foydalanishni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash tilni o'zlashtirish, matn tahlili va talabalar o'rtasida umumiy faollikni targ'ib qilish uchun ulkan salohiyatga ega. Filologiya fanlari bo'yicha o'qitish va o'qitish tajribasini oshirish, talabalarni raqamli asrning ko'p qirrali muammolariga tayyorlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning innovatsion usullarini doimiy ravishda o'rganish juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Indikator 4.4.2 uchun raqamli savodxonlik ko'nikmalari bo'yicha global ma'lumotnoma asosi. Mavjud: <http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/ip51-global-framework-reference-digital-literacy-ko'nikmalar-2018-uz.pdf>.

2. ATENAS, Xavyera; HAVERMANN, Arslon; PRIEGO, Ernesto. Ochiq ma'lumotlar ochiq ta'lim resurslari sifatida: transversal ko'nikmalar va global fuqarolikka. Open Praxis, v. 7, n. 4, p. 377-389, 2015 yil.

3. BAZELUK, Oleksandr. Kasb-hunar ta'limi va ta'lim muassasalari o'qituvchilarining raqamli madaniyati. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim byulleteni. Seriya: Pedagogika fanlari, 6-bet, bet. 23-36, 2018 yil.

4. BROWN, Mark. Raqamli savodxonlik uchun asoslarning tanqidiy sharhi: Beyond the svety, flimsy and faddish, 2017. Mavjud: <http://blog.ascilite.org/a-critical-review-of-frameworks-for-digital-literacy-beyondthe-1-qism/>.

5. Raqamli iqtisod va jamiyat indeksi, 2020. Mavjud: <https://digital-agenda-data.eu/datasets/desi/visualizations>. Kirish sanasi: 2020 yil 16-may.



## МЕТОДИКА CLIL КАК ОСНОВА БИЛИНГВАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И РАЗВИТИЯ БИЛИНГВАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

**Р. АМАНОВ,**  
кафедра «Химия и методика ее преподавания»  
ТГПУ им. Низами

*В статье рассматривается возможность развития билингвально-коммуникативной компетенции, актуализации педагогического потенциала диалога в двуязычном образовательном пространстве. Раскрываются понятия «предметно-языковое интегрированное обучение», «билингвальное обучение», «билингвально-коммуникативная компетенция». Затронуты основные аспекты планирования с применением методики CLIL как наиболее эффективного метода осуществления межпредметных связей при проведении интегрированных билингвальных занятий.*

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, предметно-языковое обучение, билингвальное обучение, междисциплинарная интеграция.

*The article examines the possibility of developing bilingual communicative competence and actualizing the pedagogical potential of dialogue in a bilingual educational space. The concepts of «subject-language integrated learning», «bilingual learning», «bilingual-communicative competence» are revealed. The main aspects of planning using the CLIL methodology as the most effective method of implementing bilingual classes are touched upon.*

**Key words:** communicative competence, subject-language training, bilingual education, interdisciplinary integration.

*Maqolada bilingval-kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish, pedagogik salohiyatini faollashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. «Fan va til integratsiyalashgan ta'lim», «bilingval o'qitish», «bilingval-kommunikativ kompetensiya» tushunchalari ochib berilgan. Integratsiyalashgan darslar o'tkazilishida CLIL metodiga asoslangan rejalashtirishning asosiy aspektlari fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng samarali usuli sifatida aytib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, fan va til integratsiyasidagi ta'lim, bilingval ta'lim, fanlararo integratsiya.

Термин CLIL – предметно-языковое интегрированное обучение (Content and Language Integrated Learning) довольно часто используется для описания метода обучения предмету при помощи средств иностранного языка, главная цель которого – изучение предмета и улучшение языковых навыков в профильном предмете [5].



Наиболее эффективным способом реализации межпредметной коммуникации, с использованием методологии CLIL, является проведение интегрированных билингвальных занятий. Одно из главных преимуществ этой методики – повышение мотивации к изучению, как профильного предмета, так и иностранного языка. Учащийся проходит через достаточно большой объем предметных и языковых материалов, что представляет собой полное погружение в интегрированную среду. Следует отметить, что работа над различными темами позволяет выучить специфические научные термины, тем самым способствует пополнению словарного запаса учащегося узкой научной терминологией и подготовке его к дальнейшему изучению и применению полученных знаний и умений.

В зарубежных школах и вузах интеграция предметов естественно-научного цикла, в частности, химии и иностранного языка практикуется в последнее десятилетие очень широко. Целью проектов CLIL является ознакомление учащихся с новыми областями знаний и понятиями в рамках уже известных им предметов с использованием английского языка, как среды коммуникации, это помогает избежать ограничений, накладываемых применением в учебном процессе исключительно родного языка [6].

Опыт использования CLIL в ряде стран дает основания полагать, что метод потенциально успешен. Преимуществом этого метода в том, что он не имеет ограничений в совершенствовании языковых навыков и предметных знаний. Наряду с этим, CLIL дает учащимся возможность развивать свои межкультурные знания. Метод помогает использовать другие стратегии обучения, применять инновационные методы и технологии преподавания, а также повышает мотивацию к изучению предметов и иностранного языка. В дополнение к преимуществам, перечисленным выше, методика CLIL, позволяет усилить преподавание иностранного языка, не требуя дополнительных часов учебной программы. При планировании учебной программы с использованием CLIL обычно учитывается 4С: содержание, коммуникация, когнитивные способности (способность мыслить), культура (культурологические знания).

Существует пять аспектов данного метода, которые выполняются по-разному, в зависимости от возраста обучаемых, социально-языковой среды и степени погружения в CLIL.

1. Культурный аспект.
2. Социальный аспект.
3. Языковой аспект.
4. Предметный аспект.
5. Образовательный аспект.



Большая часть уроков в рамках CLIL проводится в основном преподавателями – предметниками, если их лингвистическая подготовка достаточна. Согласно Основным позициям Европейского Союза по CLIL, и осуществлению подготовки для CLIL, начиная с 2004 года, особое внимание при подготовке учителей естественных наук уделяется формированию их лингвистической компетенции, способности преподавать свой предмет на иностранном языке.

Для успешности урока в рамках CLIL необходимы четыре условия:

1. Коммуникативность, то есть ориентированность на общение;
2. Когнитивность, то есть развитие умственных навыков и стратегий обучения, учащиеся должны чувствовать свой прогресс в овладении знаниями и умениями, относящимися к определенной части учебной программы;
3. Культурное взаимодействие, то есть способность взглянуть на проблему через призму различного социокультурного окружения и объективно рассмотреть чужое мнение;
4. Содержательность, то есть акцент на уроке должен быть перенесен с грамматической и лингвистической точности на общение по научной тематике и понимание конкретного учебного материала.

Организация учебной работы по химии с использованием взаимосвязи химии и иностранного языка наиболее эффективна при следующих условиях:

- использование иностранного языка как единственного средства общения на уроке;
- активном применении визуальных опор, что облегчает восприятие иноязычной информации (особое внимание уделяется образности предъявляемого материала);
- многократном повторении материала, в различных коммуникативных ситуациях (монолог, диалог, дискуссия; письменная и устная речь), и с разными способами предъявления информации (устная речь учителя, текст, схемы и таблицы, химические формулы и уравнения, рисунки с комментариями), при этом желательное использование ИКТ.

При проведении уроков химии в рамках CLIL речь на иностранном языке рассматривается как средство, коммуникативная среда, в которой идет формирование химических знаний и умений, а не как предмет изучения.

При контроле знаний внимание уделяется химическим знаниям, умениям и навыкам; самовыражение учащихся на химическую тематику важнее демонстрации языковых знаний; допускаются отдельные нарушения языковых правил.

Использование диалога культур, как источника формирования коммуникативной компетентности, придает образовательному процессу личност-



но-ориентированную направленность. Обращение к этому ресурсу означает, что все участники образовательного процесса учатся слушать и задавать вопросы, соглашаться и сомневаться, восхищаться, спорить и убеждать.

Результатом его применения должно стать «развитие толерантности и эмпатии, понимание других людей, способность ценить других и завоевывать чувство собственного достоинства». По мнению Е.И. Пассова диалог культур – это способ овладения родной и зарубежной научной культурой [1].

Задачами билингвального обучения на современном этапе развития общества являются:

- владение предметными знаниями, с использованием двух языков (родной и иностранный);

- развитие навыков двустороннего общения и совместной деятельности;

- формирование и совершенствование межкультурной компетентности;

- развитие возможностей получения дополнительной научной информации из различных областей знания.

Билингвальное обучение основано на следующих принципах:

- человечность: введение в философию гуманизма, согласно которой характер человека позитивен и направлен на созидание;

- мультикультурализм: интеграция образовательного процесса в мировую культуру, построенная с учетом особенностей доступа к различным ее слоям;

- вариативность: использование различных инструментов, методов, различных технологий, организационных форм билингвальной системы обучения;

- целостность: ориентация на восприятие культурного контента, основанного на межпредметных связях, интеграция знаний из различных предметов, одновременное развитие как коммуникативного, так и профессионального общения, академических и социальных навыков;

- участие: взаимодействие всех участников образовательного процесса для реализации решений, основанное на взаимопонимании и сотрудничестве, наличии предметно-объектных отношений и интерактивности образовательного процесса;

- коммуникативная направленность: предусматривает доминирование проблемно-речевых, творческих упражнений и заданий для репродуктивного воспитания, использование реальных ситуаций общения, развитие навыков самостоятельного реагирования в процессе общения, формирование психологической готовности к реальному общению в различных ситуациях.

В состав процесса формирования коммуникативной компетентности



в диалоге двуязычного образовательного пространства входят мотивационно-целевой, аксиологический, технический, рефлексивно-оценочный и результирующий компоненты.

Культуроведческое содержание подразумевает создание другой культурной модели, которая может функционально заменить реальную систему культуры. Главной задачей должно быть не столько понимание других культурных особенностей, сколько духовное совершенствование.

Социальное содержание состоит из речевых навыков, которыми учащийся должен овладеть как средством общения.

Технологическая составляющая процесса коммуникативной компетенции учащихся обеспечивает использование методов, средств и форм, способствующих наиболее эффективной организации образовательного процесса [3].

Билингвальное обучение способствует личностному росту учащихся и их успешному общению в различных культурах, а также развитию индивидуальных навыков и умений, необходимых для успешного функционирования когнитивных систем, эмоциональной оценки и смены сфер деятельности.

#### **Литература:**

1. Семенова Ю.Л. Диалог культур в билингвальном образовании как курс формирования коммуникативной компетенции учащихся // Инновационные проекты и программы в образовании. - 2012. - №3. - С. 45 - 49.
2. Давыдова Н.Н. Организационно-управленческая модель взаимодействия образовательных учреждений как фактор инновационного развития регионального образования // Образование и наука. Изв. УрО РАО.2010. - № 8(76) - С. 32 - 43.
3. Салехова Л.Л. Психолого-педагогические науки: педагогика // Вестник ТГГПУ. 2010. - №2(20). - С. 16 - 20.
4. Amanov, R. A. (2022). Integrated learning in the study of chemistry course. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 194-198.
5. Amanov, R. A., & Masagutova, D. S. (2022). Formation of a system of concepts about a chemical reaction at the level of electronic representations. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 446-451.



## «HAMKORLIK ZANJIRI» ASOSIDA TALABA-YOSHLARDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK JIHATLARI

**A. T. TILEGENOV,**

O'zPFITI Qoraqalpog'iston  
Filiali direktori, erkin izlanuvchi

*Ushbu maqolada fol'klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish yo'llari va oliy ta'lim tizimida yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyani shakllantirish imkoniyatlarini modernizatsiyalash, zamonaviy yechimlar, uslub va metodlar ustida doimo izlanish, yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning innovatsion potentsiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan yechim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etishi yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** milliy g'oyani shakllantirish yo'llari, yoshlar; Oliy ta'lim tizimida yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyani shakllantirish imkoniyatlari, ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy jarayon, zamonaviy pedagogikaning didaktik hamda tarbiyaviy xarakteri, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish texnologiyasi.

*В данной статье на основе фольклора рассмотрены пути формирования национальной идеи в сознании молодежи и модернизированы возможности формирования национальной самостоятельной идеи в сознании молодежи в системе высшего образования, постоянно ищущей современные решения.*

**Ключевые слова:** способы формирования национальной идеи, молодежь, возможности формирования национальной самостоятельной идеи в сознании молодежи в системе высшего образования, образовательно-воспитательный, духовно-воспитательный, социальный процесс, дидактико-воспитательный характер. современной педагогики, технологии использования фольклора в формировании идеи национальной независимости.

*This article, based on folklore, examines the ways of forming a national idea in the minds of young people and modernizes the possibilities of forming a national independent idea in the minds of young people in the higher education system, which is constantly looking for modern solutions. , methods and methods that develop the creative thinking of young people and their innovation.*

**Key words:** ways of forming a national idea, youth, possibilities of forming a national independent idea in the minds of young people in the higher education system, educational and educational, spiritual and educational, social process, didactic and educational character. modern pedagogy, technology of using folklore in the formation of the idea of national independence.

Talaba-yoshlarga milliy istiqlol g'oyasini singdirishning boshqa bir muhim jihati bu – ta'lim jarayonida ularda xalqimizning tarixiy, milliy-ma'naviy merosi, qadriyatlarini, maqsad va mo'ljallari, demokratik printsiplarini namoyon bo'lishining



umumiy va milliy xususiyatlarini o'rgatish asnosida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, dastlabki manbalarni o'zlashtirishning aniq uslubini egallash, egallangan bilimlarga aqliy jihatdan hayotga tatbiq eta olishlariga qaratilgandir. Bu jarayonda Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, t'yutorlar yoshlar bilan ishlash mobaynida o'z-o'zini mustaqil boshqarish va o'zlashtirish yo'nalishlarini turli omillar orqali mukammallashtirib borishlariga ko'maklashishlari, amaliy mashg'ulotlarda, mustaqil ta'lim va alohida suhbatlarda yoshlarga mustaqil ish olib borish, fikrlashga o'rgatish, mulohaza yuritishga va bayon etishga qaratilgan ko'nikmalarni shakllantirishga amaliy yordam ko'rsatadilar. Yoshlarga barcha fanlarni mustaqil ravishda egallashga o'rgatishdan ko'zlangan maqsad ularni mustaqil fikrlay oladigan milliy istiqloq g'oyasini targ'ibotchisi sifatida tarbiyalash iboratdir.

Shundan kelib chiqib biz, yoshlarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning pedagogik tizimini quyidagicha talqin etdik: yoshlarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishda ta'lim muassasalari, (uzluksiz ta'lim tizimi) – oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari – Yoshlar faolining hamkorlikdagi faoliyati mevasi bo'lib, ular: – talaba shaxsini – yosh xususiyatlarini inobatga olishi – bilim va malakalarni egallashga intilishga ko'maklashishi – talabayoshlarni ijtimoiy muhofaza qilishi – axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda shaxsiy qadriyatga tayanishi – ma'naviy barkamollik nuqtai nazaridan barkamollikka erishish – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik – ommaviy axborot vositalari, kino, teatr va musiqa san'atida yoshlar o'rtasida xalqimiz ma'naviyatini targ'ib qilishi – ta'lim-tarbiya muassasalari, oila, mehnat yoki o'qish dargohi, mahallada ma'naviy axloqiy turmush madaniyatini shakllanishiga harakat qilishi va jamiyatga ijobiy ta'sir o'tkazish olishi – jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish kabi tushunchalarning uzviyligi, ular davomiyligi va ustuvorligini talab etadi.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida yuqorida qayd etilgan mas'uliyatli vazifalar bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan uch omil, ya'ni oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari – Yoshlar faolining hamkorlikdagi faoliyati asosida tizimli ravishda amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratdik. Aytish o'rinliki, ushbu hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilishi o'quv faoliyatidan tashqari vaqtlarda ham talabalar orasida turli salbiy odatlar, huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining, shuningdek, giyohvandlik, diniy ekstremizm, «ommaviy madaniyat» va shunga o'xshash illatlarning oldini olishda, ularni sportga jalb etish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda qo'l keldi.

Shu bois, tadqiqotda yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishda oila, mahalla



va fuqarolik jamiyati institutlari, Yoshlar faolining hamkorlikdagi faoliyati doirasidagi quyidagi andazasi ishlab chiqildi.

Respublikamizning turli viloyatlarida o'tkazgan tajriba va kuzatuvlarimiz, bugun ta'lim muassasalari, oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari «hamkorlik zanjiri» doirasida talabalar milliy g'oyaga bo'lgan ishonch va e'tiqodini mustahkamlash, Vatanga sadoqat va xalqqa hurmat ruhini oshirishda ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy ongini tarbiyalash, qaror toptirish, yoshlar tarbiyasida hamkorlikda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan ishlarimiz ham talaygina ekanligini ko'rsatmoqda, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

– birinchidan, «Ta'lim muassasalari – oila – mahalla» hamkorligi doirasida yoshlarning ogohligini va sezgirligini kuchaytirish hamda ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida birlashtirish va safarbar etish, talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, talaba-yoshlarning oilasi va ota-onalari bilan yaqindan tanishish har bir oilaning ilm-ma'rifatga munosabatini o'rganish, tarbiyada ota-ona ibrati, ota-onaning farzand oldidagi burchi va mas'uliyatini to'liq his etishi muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g'oya va mafkuralarga oqilona munosabatni tarkib toptirishga qaratilgan mashg'ulotlarini zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish;

– uchinchidan, yoshlarni ta'lim jarayonlariga to'liq qamrab olish, talabalarning o'z vaqtida darslarga qatnashishini nazorat qilish, ularning qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli sport, fan va ijodiy to'garaklar faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish.

– to'rtinchidan, talaba-yoshlarni o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarining mahallalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilishiga erishish kabi dolzarb vazifalar oldimizda turibdi.

Mazkur zanjir mazmuni va uning samaradorligi tarbiyaviy tadbir uchun tanlanadigan mavzu quyidagicha ilmiy-metodik manbalarga bog'liq: milliy g'oya va milliy ma'naviy meros o'rtasidagi uzviylikka oid ilmiy-metodik, ommabop adabiyotlar; qadimgi va O'rta asr Sharq mutafakkirlari merosi, diniy manbalar; teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar; internet materiallari; ilg'or ish tajribalari, fan yutuqlari namunalari; ko'rgazmali vositalar (plakatlar, bukletlar, tarqatma materiallar) bo'lishi mumkin.

Hamkorlik zanjiri asosida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning muvaffa-



qiyati pedagog o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, dunyoqarashi, davr talabiga mosligi, bilim saviyasi, tajribasi, o'z ustida ishlashi, mas'uliyat va imkoniyat darajasi, ijodkorligi, ishga munosabati, natijani oldindan ko'ra bilishi, fidoyiligi, yangiliklarga munosabatiga bog'liq.

Alohida urg'u berib o'tish lozimki, yuqorida biz bejiz «hamkorlik zanjiri» masalasiga to'xtalmadik. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, Oliy ta'lim muassasida tahsil olayotgan har bir talaba uchun t'yutor, ma'muriyat mas'ul bo'lib hisoblanadi. Yoshlarning darsdan tashqari faoliyat mazmuni bilan uning oilasi, mahalla bevosita xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq. To'g'ri «Oliygo'hal talabasi o'zi uchun javob bera oladigan mustaqil shaxs» degan qarashlar ham mavjud. Biroq sir emaski, oliygo'hal talabalari o'rtasida ham bilib bilmay turli xil oqimlarga qo'shilish holatlari kuzatilmoqda. Psixologik nuqtai nazardan yondashganda, ayrim yoshlar ichki dunyosida vujudga keladigan ruhiy inqiroz va tanglik, ularni hayotda uchraydigan muammolarga, voqea va hodisalarga jiddiy, obyektiv munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Shunday bo'lsada bu davrda yoshlarda uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyotsiz xatti-harakatlarga moyillik, faktlarga tayanib emas balki emotsional hissiyotlarga berilib ish ko'rish kabi holatlarning kelib chiqishi kuzatiladi. Ushbu holatlardan kelib chiqib, dilga yaqin so'zlar orqali yoshlarning ichki dunyosiga ta'sir etish mumkinligi hamda ularda negativ his-tuyg'ularga nisbatan immuniteti birmuncha beqarorligini doimo nazarda tutish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Milliy g'oya va O'zbekistoining taraqqiyot strategiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma. Q.Nazarov, A.Safarov, A.Rahmonov, K.Haydarov, N.Alimuxamedova, D.O'rinboyev, B.Qandov, - T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019.
2. Mirzaeva F.O. Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish. P.f.b.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Namangan - 2020.
3. Mamajonov I. G', R. Mamatov Germaniya davlati ta'lim tizimi. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017-yil.
4. Mavlonova R.A., Normurodova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - T.: Fan, 2007. - 320 b.



## **YOSHLARNI SOG‘LOM TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDA TASAVVURLARINI SHAKLLANISHIDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARI**

**A.I.SAIDOV,**

*Samarqand davlat chet tillari instituti  
Magistratura bo‘limi boshlig‘i,  
psixologiya fanlari doktori, (DSc) professor*

*Ushbu maqolada oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota-onalari ekanligi, o‘zbek oilalaridagi o‘zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e‘zoz, farzandlarga mehr-muhabbat va kattalarga izzat-ikrom ko‘rsata olish, imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga ijtimoiy-psixologik tavsiyalar berish, oilada eng muhimi, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitning muhimligi yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *sog‘lom turmush tarzi, ruhiy salomatlik, oilada sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom bolani shakllantirish, salomatlik psixologiyasi, tarbiyada izchillik.*

*This article highlights in the family, first of all, the people closest to the child, the fact that they are his parents, mutual respect in Uzbek families, respect for parents, love for children and honor for adults, giving socio-psychological recommendations to parents of children with disabilities, and, most importantly, the importance of a positive socio-psychological environment in the family.*

**Key words:** *healthy lifestyle, mental health, healthy lifestyle in the family, the formation of a Healthy Child, Health Psychology, consistency in upbringing.*

*В этой статье будет рассказано о том, что в семье, прежде всего, самые близкие для ребенка люди, его родители, взаимное уважение в узбекских семьях, уважение к родителям, любовь к детям и уважение к взрослым, предоставление социально-психологических рекомендаций родителям детей с ограниченными возможностями, самое важное в семье, освещается важность позитивного социально-психологического климата.*

**Ключевые слова:** *здоровый образ жизни, психическое здоровье, здоровый образ жизни в семье, формирование здорового ребенка, психология здоровья, последовательность в воспитании.*

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘mi beqiyos hisoblanadi. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, bevosita iqtisodiy,



ijtimoiy taraqqiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. Zero, oilaviy muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida tarkib topadigan inson kamolotida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oila – davlat, jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutadigan makondir.

Ma'lumki, oila hayotning abadiyligini ta'minlaydi, ota-ona boshlagan ishni vorislar amalga oshirishini ta'minlovchi muqaddas dargoh ham hisoblanadi. Bu dargoh millatning ma'naviyati, qadriyati, urf-odatlarini saqlashga ko'maklashadi.

Keyingi yillarda keng jamoatchilik va olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelayotgan masalalardan biri shaxs va oila, oilaviy munosabatlar muammosidir. Bu muammoni o'rganish bugungi kunda o'zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarini tiklayotgan O'zbekiston davlati ravnaqi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Avlodlar o'rtasidagi, ayniqsa oilada turli avlod vakillari, ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi insoniyat taraqqiyotining ilk davrlaridan buyon eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Chunki odamzot erishgan hayotiy tajriba, bilim, malaka, ko'nikmalar avloddan-avlodga aynan shu munosabatlar tizimi, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, ona va bola munosabatlari orqali uzatiladi va bu meros avloddan avlodga boyitib boriladi.

U yoki bu xalqning milliy qadriyatlariga aylanib qolgan urf-odatlari, xulq-atvor me'yorlari aynan shu avlodlararo munosabatlar orqali asrlar davomida saqlanib, sayqallanib yoki aksincha yemirilib boradi. Agar avlodlararo munosabatlar maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinmagan bo'lsa, ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarida salbiy jihatlar namoyon bo'lsa, bunday qadriyatlar yo'q bo'lib ketishi, ularning o'rini yot, destruktiv aqidalar egallashi mumkin.

Katta avlod vakillari tomonidan hayotiy tajribani yosh avlodga yetkazish va yosh avlod vakillari tomonidan katta avlod merosini o'zlashtirib olish, ularni yanada boyitish va o'z navbatida keyingi avlod vakillariga yetkazish hamma vaqt ham oson kechavermaydi. Bu borada turli zamon, davr, yosh vakillari o'zaro munosabatlarida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar ham yuzaga kelib turadi.

Gap sog'lom avlod, sog'lom bolani shakllantirish masalalari haqida borar ekan, uning ildizini shu avlod dunyoga kelgan vaqtdan emas, balki o'tmishdagi ajdodlar turmush tarzidan, ular amal qilgan urf-odatlar xarakteridan va shu kabi ko'plab an'anaviy, milliy qadriyatlar mohiyatidan qidirish lozim bo'ladi. Bunday qadriyatlar esa avloddan avlodga avlodlararo munosabatlarning eng yaqin, eng mustahkam bo'g'ini bo'lmish ona va bola o'zaro munosabati orqali uzatiladi.

Shuning uchun, bizning nazarimizda sog'lom bolani shakllantirish bilan bog'liq



bo'lgan muammolar yechimini dastavval ota-ona va bola o'zaro munosabatlaridan, mazkur munosabatlar dinamikasidan, bu jarayonda yuz berayotgan o'zgarishlar xarakteridan qidirish lozim. Shu kabi mulohazalardan kelib chiqqan holda, o'tmishi ulug' bo'lgan kelajak avlodlarimiz davomchilarining tom ma'noda sog'lom avlod, sog'lom bola, buyuk kelajagimizning munosib vorislari bo'lib yetishishlari uchun zarur omillarni tahlil qilishda ajdodlarimiz so'zsiz amal qilgan va bugungi kunda unutilayotgan ayrim ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga e'tibor qaratishga jazm etdik. Bunda esa ota-ona va bola munosabatlarining o'tmishi va buguni misolida solishtirishga harakat qilindi.

Ota-ona va bola o'zaro munosabatlarining psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida gapirishdan oldin shuni aytib o'tish joizki, odamlar turmush tarzi rivojlanib, unda urbanizatsiyalashuv darajasining ortib borishi, insonlar kundalik hayotiga fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or texnologiya yutuqlari singishi natijasida bu munosabatlar ham murakkablashib, takomillashib, jiddiylashib boraveradi.

Hech kimga sir emaski, hozirgi zamon oilalarida ota-ona va bolalar o'zaro munosabati xarakteri oldingi avlodlar vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan ancha murakkabligi, o'zgachaligi bilan farqlanib turadi. Haqiqatan ham, hozirgi zamon ota-onalari o'rtasida farzandlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlardan, ularning xulqi, xatti-harakatlari, xarakteri, psixologik dunyosining shakllanishi va rivojlanish holatidan qoniqmaydigan, bu borada qator muammolarga duch kelayotganlar oldingi zamonlardagiga qaraganda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Faoliyatlari bevosita farzand tarbiyasi muammolari, bolalar xulqida va ularning atrofidagilar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlari tizimida kuzatiladigan noxush hodisalar, xulqiy og'ishlar, ruhiy rivojlanishdagi kechikishlar va shu kabi muammolarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan pedagog va psixolog mutaxassislar bunday holatlarning sababini ko'proq shu bolalarning o'ziga emas, balki ularning ota-onalari, aniqrog'i onalariga bog'liq deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham bolalar xulqida kuzatiladigan noxush hodisalarning aksariyati bola tarbiyasi borasida ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarning asorati hisoblanadi. Ular ko'pchiligining yechimi bola xatti-harakati, xulqi emas, balki ota-ona va ular tomonidan oilada yaratilgan psixologik muhitga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, odamlar turmush tarzi taraqqiy etib, yuksalib borishining o'ziga xos oqibatlari ham mavjud. Fan-texnika yutuqlaridan odamlar turmush tarzini, yashash sharoitini qulaylashtirish, yengillatish maqsadida qanchalik ko'proq foydalanilsa, insonlar ruhiyati, ular psixikasi rivojlanishidagi tabiiylik shunchalik o'zgarib boraveradi. Inson ruhiyatidagi tabiiylikning buzilishi esa hamma vaqt ham kutilgan ijobiy natijalarga olib kelavermasligi mumkin.



Tamaddun taraqqiy etib, mislsiz yutuqlarga erishib borishi jarayonida, boy berilayotgan qadriyatlarimiz ham borki, ularni e'tibordan chetda qoldirish, unutilib yuborish, ahamiyat bermaslik odamlar hayoti, o'zaro munosabatlarida jiddiy ko'ngilsizliklarni yuzaga keltirishi ehtimoli mavjud.

Holbuki, sog'lom bolani dunyoga keltirish va shakllantirish, oilada ota-ona va bola munosabatlarini tashkil etishda ming yillar davomida ajdodlarimiz amal qilib kelgan, xalqimiz ruhiyatiga, turmush tarzi, urf-odatlariga singib ketgan shunday qadriyatlarimiz borki, bu qadriyatlar oiladagi munosabatlarning maqsadga muvofiq shakllanishi va rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, balki xalqimiz, millatimiz orasidan dunyo tanigan yuzlab, minglab buyuk allomalarning yetishib chiqishiga ham xizmat qilgan.

Ming afsuslar bo'lsinki, yaqin o'tmishimiz, 70-80 yillik mustabid tuzum davrida «yagona sovet xalqi»ni, «yagona sovet madaniyati»ni shakllantirishdek mash'um g'oyalarni ta'siri ostida xalqimiz, ajdodlarimiz ming yillar mobaynida amal qilib kelgan ko'plab urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz «eskilik sarqitlari» sifatida unutilib yuborilayotgan edi.

Ayni kunlarda hukumatimiz tomonidan onalik va bolalikni himoya qilish, ayollarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, homilador ayollarga qulay shart-sharoitlar yaratib berish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay, hozirgi vaqtda homiladorlikning kechishi bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Chunki hozirgi sharoit, ishlab chiqarish jarayonlari, ijtimoiy hayot, odamlarning o'zaro munosabatlari, turmush tarzi o'tgan zamonlardagidan o'zining jadalligi, murakkabligi bilan keskin farq qiladi.

Yuqorida biz sog'lom avlodni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari haqida gap yuritib, ona va bola munosabati zamirida ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlar asosida sog'lom bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar xususida to'xtalib o'tgan edik. Fikr-mulohazalarimiz ko'pchilikka tanish bo'lgan, ayrim holatlarda arziyasdek tuyulgan holat, vaziyatlarni ifodalashga harakat qilamiz. Lekin shu kabi «arziyas» omillarga o'z vaqtida o'rinli e'tibor berish tug'ilajak farzandlarimiz katta hayotlari poydevorining mustahkam qo'yilishini ta'minlashi mumkin. Bu esa farzandlarimizning ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy sog'lom bo'lib o'sishlarida ortiqcha vaqt, kuch, mablag' talab qilmasdan erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlar hisoblanadi.

Ma'lumki, yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi xilma-xil omillarga bog'liqdir. Shuning uchun uni tadqiq qilish ishlari bu muammoga har tomonlama yondashuvni taqozo qiladi. Shu boisdan tadqiqotimizda yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaning o'rnini o'rganishda Sheferning «Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» (1965) test-so'rovnoma-sining Z.Mateychik, Rjichan (1983) tomonidan moslashtirilgan va tadqiqot uchun maxsus qayta ishlangan variantidan foydalanildi. Ushbu testni qo'llashdan



maqsad o'smirlarning ota-onalari xulq-atvori va ularning farzandlariga qiladigan munosabatlarini o'rganishdan iboratdir.

Oilada «Tarbiyada izchillikning yo'qligi» asosidagi ota-ona munosabati bolalarni kundalik hayot tarzlarining rejasiz o'tishiga, foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanmasliklariga hamda o'z sog'liklari haqida qayg'urmaslik odatlarining shakllanishiga olib keladi. Bu yoshlar ongida sog'lom turmush tarzi haqidagi tushuncha va tasavvurlarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Xulosa o'mida tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, ota-onalar oilada farzandlari bilan turlicha muomala va munosabatda bo'lishlari holati ma'lum bo'ldi. Buni nosog'lom turmush tarziga ega bo'lgan yoshlarning o'z ota-onalari xulq-atvorlari to'g'risida bergan ma'lumotlari ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'ra, nosog'lom turmush tarziga ega bo'lgan yoshlar tarbiya ko'rgan oilalarda ota-onalarning ko'pincha farzandlariga «erkinlik berish» asosida muomala munosabatda bo'lishliklari kuzatiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Саидов А. Оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг илмий-методологик асослари //Involta Scientific Journal. - 2023. - Т. 2. - №. 4. - С. 58-60.

2. Саидов А. И. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзи психологиясини шакллантириш омили сифатида //Psixologiya Учреди-тели: Бухарский государственный университет. - №. 3. - С. 77-81.

3. Саидов А. И. Оилада соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психологик жиҳатлари: Саидов Азамат Исмоилович, Самарқанд давлат чет тиллар институти «Педагогика ва психология» кафедраси мудири, педагогика фанлари номзоди, доцент //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. - 2021. - №. 6. - С. 367-372.

4. Саидов А. И. Ёшларни оилавий ҳаёт ҳақидаги тасаввурларини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Саидов Азамат Исмоилович. Самарқанд давлат чет тиллари институти «Магистратура бФлими бошлиғи», Психология фанлари доктори (DSc), доцент //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. - 2022. - №. 11. - С. 320-323.



## TALABA-QIZLAR IJTIMOYIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA QARATILGAN JARAYON MAZMUNI

**G.M. QURBONOVA,**  
TDPU dostenti

*Mazkur maqolada talaba-qizlarning ijtimoiy faoliyati, shuningdek, pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy kasbiy faolligi mazmuni yoritilgan. Profressor-o'qituvchilarning mazkur faoliyat jarayonida o'qitish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, tarbiyalash, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilish hamda, Prezident farmonlari va qarorlari, xukumat farmoyishlarini targ'ib etishdagi pedagogik mahorat qirralari o'z aksini topgan.*

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy faoliyat, ta'lim, tarbiya, kasb, mahorat, mazmun, xususiyat, kasbiy faollik.

*В данной статье описывается содержание социальной активности студенток-девушек, а также социально-профессиональной деятельности, которая осуществляется средствами педагогического воздействия. Педагогическое мастерство профессоров-педагогов в процессе обучения, руководства, воспитания, организации воспитательной работы и продвижения указов и постановлений Президента, распоряжений правительства нашло свое отражение.*

**Ключевые слова:** социальная деятельность, образование, подготовка, профессия, навыки, содержание, характеристика, профессиональная деятельность.

*This article describes the content of social activity of female students, as well as social and professional activities, which are carried out by means of pedagogical influence. The pedagogical skills of professors and teachers in the process of teaching, leadership, education, organization of educational work and promotion of decrees and resolutions of the President, government orders are reflected.*

**Key words:** social activity, education, training, profession, skills, content, characteristics, professional activity.

Jahonda sivilizatsiya taraqqiyotida talabalarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishning muayyan omillariga, ularning axloqi, kasbiy va kommunikativ jarayonlarning ma'naviy-madaniy asoslari, ijtimoiy yondashish g'oyasi, ya'ni texnokratik fikrlashning muhimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi, ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali kadrlarning tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi.

Talaba-qizlarlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish – bu uning o'z maqsadini tanlashi va unga erishishda yuqori darajada kuch-g'ayrat, shijoat, jo'shqinlik



bilan faoliyat ko'rsatish va mehnat qilishdir. Bu hol shaxsning bilim, kasb-malaka, mahoratiga ega bo'lib, jamiyat xayotida o'ziga munosib joyni erkin egallash, yuqori natija va samara bilan ishlashdir.

Ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish – bu mustaqil shaxsni o'zining mehnati va tengdoshlari bilan mahopati, ishbilarmonligi tufayli ko'pgina ehtiyojlarni qondira oladigan bo'lajak mutaxassisni voyaga etkazishdir. Umuman olganda, ijtimoiy faoliyat sub'ekt (jamiyat, guruh, shaxs) tomonidan turli muhitlarda amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlar majmuidir.

Bunda talaba-qizlarning ahloqiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish asosida yot g'oyalarga, tabiat buzg'unchilariga qarshi kurashish, ularga salbiy ta'sir etadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olish barqarorlik, tinchlikni saqlash demakdir. Talaba-qizlarning bo'sh vaqti etarli bo'lishiga erishish, ularning kuchli, adolatli, xuquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xohish irodasini mustahkamlash, jamiyat va inson muhofazasini saqlashga intilishini xar bir talaba turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish xususiyatlarini amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarining acociy vazifalari hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining faoliyati muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi PQ-436 sonli «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ - 2909-son», 2017-yil 27-iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ - 3151-son, 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ - 3775 - son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi 226 -sonli qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 24-avgustdagi 18-2018-sonli qo'shma qarorlari va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 29-avgustdagi 781-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida talabalari orasida ilm-fan vakillari seleksiyasini kuchaytirishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar to'g'risida»gi buyrug'i shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi «Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ - 4433-sonli qarorlari yoshlar ijtimoiy faoliyatini ta'minlashga karatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyun-dagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim



sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ - 3775-son qaroriga muvofiq har bir oliy ta'lim muassasasida bu borada olib borilayotgan ishlarni muvofiqlash-tirishdan iborat.

Talabalar-qizlar ijtimoiy faoliyatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- talaba-qizlar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy faodiyat va mashg'ulotlar grafigini ishlab chiqish;
- talaba-qizlarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
- malakali professor-o'qituvchilarni talaba-qizlar bilan individual ishlashga jalb etish;
- talaba-qizlarni yuqori malakali kadrlar sifatida tayyorlash, oliy ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash ishlariga jalb qilish;
- taniqli yozuvchilar jamiat faollari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- turli ilmiy tanlovlar va ko'rgazmalar tashkil etish;
- universitetning yuqori bilim va malakaga ega professor-o'qituvchilarini tugarak faoliyatiga jalb etish;
- talaba-qizlarni ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy, ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- talabalar-qizlar ijtimoiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni universitetning rasmiy veb-saytida yoritib borilishini ta'minlash;
- talabalar-qizlar bilan ishlashni hamda amalga oshirilishi rejalashtirilgan seminarlar, davra suhbatlarini yuqori saviyada tashkil etish;
- kafedra hamda fakultetlar rahbariyati bilan hamkorlikda «Ustoz-shogird» tizimi orqali talaba-kizlar ilmiy faoliyatini shakllantirish;
- universitet miqiyosida bosqichma-bosqich yilning «Eng yaxshi innovatsion g'oyasi», «Eng yaxshi maqola», «Eng yaxshi ijodiy yondashuv» mavzularida ko'rik tanlovlar o'tkazish va fan olimpiadalariga talaba-kizlarni jalb etish;
- tarbiyalanuvchining hayotida axloqiy fazilatлами, ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarni, munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- yil yakunida talaba-qizlarning ijtimoiy faoliyati bo'yicha yillik hisobotlarini tahlil qilish jarayoniga ko'maklashish.

Talaba-kizlar o'zlarining ijtimoiy faoliyati va ijodiy ishlarini to'la va belgilangan muddatlarda bajarishi, o'qishda, ijtimoiy faoliyat, ilmiy-ijodiy ishlarni bajarishda boshqa talabalarga o'mak bo'lishi zarur.

Pedagogik faoliyat – bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir. O'qituvchi mazkur



faoliyat jarayonida o'qitadi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, tarbiyalaydi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi, Prezident, hukumat farmoyishlarini targ'ibot qiladi, o'z malakasini oshirish uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o'zi ham kamol topadi, o'quvchilarni ham kamol toptiradi.

Pedagogik faoliyat o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bo'lib, u insonni hayot, mehnat, ijtimoiy turmushga tayyorlash va eng avvalo, yosh avlodni mustaqil faoliyat urgatish, mamlakatda, jamiyatda muvaffaqiyatli mehnat qilib, ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug'ullana oladigan inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat – bu shaxsga uning ijtimoiylashuvi jarayonida yordam berishga, uning ijtimoiy-madaniy tajribasini o'zlashtirishga va uning jamiyatda o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi.(4) Ijtimoiy-pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatga juda yaqin bo'lib, undan ajralib turadigan va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy-pedagogik faoliyat – bu ma'lum tajribani o'qitish orqali o'tkazish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi.

Hozirgi vaqtda kasbiy ijtimoiy faoliyatning tanlangan turlarini nazariy rivojlantirish, tashkiliy loyihalash, me'yoriy mustahkamlash, metod va texnologiyalardan umumli foydalanish talaba -kizlarni ijtimoiy faoliyatdagi faolligini ragbatlantirish bilan amalga oshiriladi. Natijada bunday mutaxassisning kasbiy salohiyati, qoida tariqasida, to'liq amalga oshadi – uning funktsional vazifalari rivojlanadi, maxsus kasbiy ma'lumotga ega bulishi kuzatiladi. Boshqa tomondan, oliy ta'lim muassasalari professor-ukituvchilari (o'qituvchilar, to'garaklar, to'garaklar rahbarlari, maslahatchilar, tarbiyachilar va boshqalar) har doim professional tarzda ijtimoiy faoliyatda talabalar bilan xamkorlik kiladi. Pedagoglar mavjud sharoitda muayyan ijtimoiy-pedagogik funktsiyalarni bajarishda davom etmoqdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qoraboeva 3., Abdusamatova N. Ijtimoiy pedagogika (atamalar izohli lug'ati). -Namangan, 2017, 12-bet.
2. Mudrik, A. V. Sotsialnaya pedagogika: ucheb. dlya stud. ped. vuzov / A. V. Mudrik / pod red. V. A. Slastenina. 3-ye izd., ispr. i dop. M.: Izd. sentr Akademiya, 2002.200 s.
3. Xodjaev B.Q., Juraev B.T. Pedagogik faoliyatga kirish [Matn]: monografiya / B.Q. Xodjaev, B.T. Juraev. - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. -148b.



## O'QUVCHILARNI MA'NAVIY MEROSGA HURMAT RUHIDA TARBİYALASHDA MUZEY PEDAGOGIKASINING ILMIY AHAMIYATI

**N.E. NIZOMXONOVA,**

*Qarshi Davlat universiteti mustaqil ilmiy izlanuvchisi*

*Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi o'quv-tarbiya maskanlari va muzeylar faoliyatining uzluksiz aloqadorligi o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning o'ziga xos yo'nalish bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida, muzey manbalaridan foydalanish orqali mashg'ulotlar va ekskursiyalar tarzida amalga oshirilish bilan muzey pedagogikasining ilmiy ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *muzei, tarixiy meros, ajdodlarimiz merosi, eksponat, ekspozitsiya, ekskursiya, intellektual, badiiy-estetik, muzei to'garaklari, kolleksiyalar.*

*В статье освещены вопросы о научном значении музейной педагогики как направления воспитания учащихся в духе уважения к духовному наследию, осуществляемого в учебно-воспитательном процессе, в виде занятий и экскурсий с использованием музейных ресурсов.*

**Ключевые слова:** *Музей, историческое наследие, Наследие наших предков, экспонатный, экспозиционный, экскурсионный, интеллектуальный, художественно-эстетический, музейные кружки, коллекции.*

*The article highlights the issues of the scientific significance of museum pedagogy as a direction of educating students in the spirit of spiritual heritage, carried out in the educational process, in the form of classes and excursions using museum resources.*

**Key words:** *Museum, historical heritage, heritage of our respect for ancestors, exposition, exposition, excursion, intellectual, artistic-aesthetic, museum circles, collections.*

Muzei har bir xalqning tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklari to'plangan hamda ularni saqlab, o'rganish, targ'ib va tashviq etish kabi ishlarni amalga oshiradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy maskan sanaladi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, dastlab hukmdorlarning saroylari, aslzodalarning qarlarida noyob buyumlar, hujjatlar to'plamlari paydo bo'lgan. Miloddan avval III asrda Iskandariyada muzalarga atalgan bino – Muzeyonda qadimgi Yunon san'ati yodgorliklari yig'imi sifatida tashkil topgan.

Muzeylar Yunon madaniyati, san'ati namunalaridan kolleksiyalar to'planadigan joy bo'lgan. Tadqiqotlarda keltirilishicha, Yunonistonning Gelikon tog'i atrofida muzalarga (san'at va fan ma'budalari) bag'ishlanib, har besh yilda bir marta bayram o'tkazilgan. Muzeyonlar Yunon ma'naviy hayotida din namoyondalarining, faylasuflarning, shoir va musiqachilarning ijodiy va ilmiy munozaralar o'tkazadigan joyiga aylanib, unda noyob san'at namunalari to'plangan.



XV asrga kelib mashhur muzeylarning tashkil bo'lishiga asos bo'lgan san'at asarlari, noyob buyumlarni to'plash boshlanadi. XVII-XIX asrlarda muzeylar faoliyatida o'zgarish yuz beradi. Muzeylar endi aholining barcha qatlamlari uchun xizmat qila boshlaydi. XIX asrga kelib, dunyodagi barcha yirik muzeylar tashkil topgan edi.

Ammo bu madaniy-ma'naviy boyliklar mo'g'ul istilochilari tomonidan oyoq osti qilinib, madaniy hayot 100-150 yilga to'xtab qoladi. Faqat Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi munosabati bilan markazlashgan davlatning tuzilishi va Samarqandning poytaxt etib belgilanishi O'rta Osiyoda fan, madaniyatning rivojlanishiga va noyob boyliklarning to'planishiga zamin tayyorladi.

O'z navbatida Alisher Navoiy Hirotning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari majmui fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan. Bunday majmualar Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida va Toshkent shahrida ham bo'lgan. Shunday qilib, O'rta Osiyoda qad ko'targan me'moriy obidalar va ulardagi saroylarda yig'ib to'plangan xalq amaliy san'ati namunalari saqlangan joylar – Samarqand me'moriy obidalari, Xorazmdagi Ichan qal'a, Qo'qon va Buxoro arki va boshqalarni ham ana shunday muzeylar sirasiga qo'shish mumkin.

Lekin ba'zi muzeyshunoslar O'rta Osiyoda hozirgi muzeylarning paydo bo'lishini XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida ruslarning bosib olish davri bilan bog'laydilar. Vaholanki, tadqiqotchilar Rim, G'arbiy Yevropa, Rossiyada ham muzeylarning dastlabki namunalari hunarmandlar yasagan noyob buyumlar, san'at asarlari namunalarini yig'ib to'plagan joy bilan bog'lab tushuntiradilar[1].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyaning O'rta Osiyoni istilo qilishi munosabati bilan noyob boyliklar yana chetga chiqib keta boshlaydi va bu ishlar go'yo ilmiy tadqiqot ishlari ko'rinishida amalga oshiriladi. Juda ko'p moddiy va ma'naviy boyliklar esa ochiq talon-taroj qilinadi. Hatto soldat va ofitserlarga tayyorlangan tavsianomalar asosida: «Turkiston shaharlari va xonliklarda qo'lyozmalar, hujjatlar, tanga, muhr, amaliy san'at namunalari, osori-atiqalar, mahalliy hunarmandlarning ijod mahsulotlari, gilamlar, mis o'yimakorligi buyumlari, nodir egar-jabduqlar, zargarlik buyumlari, ayniqsa, soplari dur, gavhar toshlar bilan bezatilgan qimmatbaho metallardan yasalgan qilich, xanjar, pichoqlar va boshqa buyumlar Peterburgdagi muzey va kutubxonalarga jo'natilishi» ko'rsatilgan edi[2].

O'zbekiston poytaxtida yagoni Tabiat muzeyining tashkil etilganiga 120 yilga yaqin vaqt o'tdi. Bundan tashqari olimlar, rassomlar, davlat arboblari, adiblarning Uy-muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 1996 yilning 1 oktabrida Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi zamonaviy talablar asosida yangicha qurildi, ekspozitsiyalar qaytadan ko'rib chiqildi. Shahidlar xotirasiga bag'ishlangan muzey



ham tashkil etildi. Bularning barchasi O'zbekistonda mustaqillik yillarida muzeylarning rivojlanib borayotganidan dalolatdir.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda buyuk davlat arbobi Amir Temur va temuriylar tarixi Davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Sharq milliy me'morchiligining yuksak namunasi bo'lgan mazkur muzeyda o'zbek xalqining shonli o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi namoyon bo'ladi. Muzeyda Amir Temurning tarixda qilgan buyuk xizmatlari bilan tanishgan har bir inson uning o'z Vatani, xalqi uchun vatanparvarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini his etadi va kelajakka bo'lgan ishonchi ya nada ortadi. Amir Temur va temuriylar tarixi davlat muzeyi tariximizning haqiqiy ko'zgusi, ma'naviyatimiz mezonidir.

Ma'lumki, muzeylar o'z faoliyati xarakteriga ko'ra moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini, shuningdek, tabiat va insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida yaratilgan bilimlar yig'ilgan manbalar bo'lib, tabiiy-tarixiy kolleksiyalarni to'plash, saqlash, o'rganish, ko'rgazma sifatida ommaga yetkazish bilan shug'ullanadigan muassasadir.

Muzeylar ijtimoiy-madaniy xususiyatiga ko'ra o'z faoliyatida kolleksiyalarni xarakteriga qarab ilmiy tadqiqot, ilmiy-ma'rifiy va o'quv muzeylariga bo'linadi. Lekin muzeylarning bu uch turi bir-biri bilan bog'langan teng ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida muzeylar sohaviy faoliyati jarayonida ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib borishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mazkur muzeylar ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida ma'naviy va tarixiy yodgorliklarni, tabiat va jamiyat haqidagi manbalarni o'rganadi, ilmiy tahlil etadi.

Ilmiy-ma'rifiy muzeylar esa ana shu ilmiy tadqiqotlar ishining natijalarini ommaga yetkazib, uni targ'ib va tashviq qiladi.

Shuningdek, muzeylarni sohalar bo'yicha tasniflaganda ular: tarixiy, badiiy, san'atshunoslik, adabiy, me'morchilik, tabiiy-ilmiy, texnikaga oid, turli fan sohalari, kompleks muzeylarga bo'linadi.

Bu borada:

– muzeylarning ta'limiy faoliyatida an'anaviy shakllarini rivojlantira borib, noan'anaviy metodlarni uzluksiz qo'llash. Masalan, ekskursiyalarni teatrlashtirish, ishbop o'yinlar, diologik muomala asosida o'tkazish;

– muzeyga tashrif buyurganlarning muzeydagi muhit va bebaho muzey ashyolaridan uning ma'naviyat markazi sifatida anglab, uni shaxsni shakllantirish vositasi sifatida tushunishiga erishish va hokazo.

Hozirgi kunda muzeylarning uzluksiz ta'lim-tarbiyaviy vazifasidan kelib chiqqan holda uni amalga oshirish uchun pedagogika fanidan «Muzey pedagogikasi» sohasini yaratishni taqozo etadi. Bu soha, ya'ni «Muzey pedagogikasi» nafaqat muzeylarning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini hisobga olish, balki tashrif buyuruvchilarga «pedagogik» ta'sir uzluksiz ta'lim yo'llarini ham o'rgatadi. «Muzey pedagogikasi» bu borada yangi dasturlar ishlab chiqishi va muzeyga



tashrif buyuruvchi turli guruhlarining yosh xususiyatlari, bilim darajasi, sohaviy tayyorgarligini hisobga olishi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Xullas, muzeylar o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda madaniy-tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarini yig'uvchi va ular haqidagi ma'lumotlarni muzey ashyolari vositasida targ'ib qiluvchi ijtimoiy institut bo'lib, ulardan o'quv-tarbiyaviy va uzluksiz ta'limiy maqsadda foydalanishda qator muammolarni hal etishni taqozo etadi. Bu sohada muzeyshunoslikka zamon talabi bilan kirib kelgan yangi soha «Muзей pedagogikasi» katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dresvyanskaya G. Muзей i obshestvo // Moziydan sado jurnali. - T.: 2000. №1-2. - B.31.
2. O'ljayeva Sh.M. Muзейshunoslik (o'quv qo'llanma). - T.: O'zMU, 2002. - B. 10.
3. Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - T.: Fan, 1993. - 56 b.
4. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. - T.: Fan, 1995. - 118 b.
5. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. - T.: Fan, 1981. - 270 b.
6. Nizomxonova N.E. Muзей pedagogikasining rivojlanish tarixiga bir nazar // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2007. - №3. - B.91-96.
7. Nizomxonova N.E. O'quvchilarini muzeylar vositasida ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalash // Metodik qo'llanma.-Toshkent, «Fan va texnologiya» nashriyoti. 2009. 6,75 b.t.



## ПРОЦЕСС ПОЗНАНИЯ НАСЛЕДИЯ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА КАК ФАКТОР ТВОРЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ-МУЗЫКОВЕДОВ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**И. Г. ГАЛУЩЕНКО**

кандидат искусствоведения,  
профессор Государственной  
Консерватории Узбекистана

*В статье актуализируются аксиологические вопросы познания культурного наследия великих мыслителей Востока в обучении и воспитании студентов-музыковедов консерватории.*

**Ключевые слова:** познание, ценность, наследие, музыка, обучение, воспитание.

*Maqolada konservatoriyada musiqashunos talabalarni tayyorlash va tarbiyalashda Sharqning buyuk mutafakkirlari madaniy merosini bilishning aksiologik masalalari yangilanadi.*

**Kalit soʻzlar:** bilish, qadriyat, meros, musiqa, tarbiya, ta'lim.

*The article updates the axiological issues of knowledge of the cultural heritage of the great thinkers of the East in the training and education of musicology students at the conservatory.*

**Key words:** cognition, value, heritage, music, training, education.

Профессия музыковеда является одной из самых сложных, поскольку требует от специалиста в данной области широких и разносторонних знаний, способности ориентации в историческом и современном социокультурном пространстве. В формировании гармонично развитой личности музыковеда огромную роль играет познание наследия мыслителей Востока, представляющее собой многоуровневый процесс, осуществляемый непрерывно на протяжении обучения студента в консерватории и продолжающийся в дальнейшем в самостоятельной творческой практике.

В консерватории различные аспекты культурного наследия великих мыслителей Востока изучаются в рамках разных дисциплин, но помимо этого очень важно уделять внимание аксиологическим вопросам познания наследия учёных прошлого, на занятиях по специальности и во внеаудиторное время, концентрируя внимание обучающихся на музыкально-педагогической деятельности и воспитательной практике мыслителей Востока.

Известно, что, по сути, все они были прекрасными музыкантами, педагогами, создавали научные трактаты о музыке и поэзии. «История музыкальной



педагогике также, как и педагогике в целом, – отмечает Рауф Кадыров, – имеет богатое научно-теоретическое и практическое наследие, которое должно всесторонне изучаться, совершенствоваться и приумножаться» [1, с. 12-13]. Исходя из этого, необходимо актуализировать музыкально-педагогические взгляды, идеи и принципы учёных-мыслителей прошлого в соответствии с прогрессивными направлениями музыкального искусства и педагогики XXI века.

Методология научно-художественного познания трудов учёных-мыслителей Востока представляет собой многоуровневую систему, главными этапами в которой являются чувственный и логический уровни. На уровне чувственного познания наиболее целесообразно сначала обращаться к поэтическим миниатюрам и газелям, рубаи, мухаммасам, масневи, а затем к поэмам, связывая их с вокальными, вокально-хоровыми и инструментальными жанрами узбекского композиторского творчества. На следующем уровне логического познания целесообразно обратиться к трактатам о музыке Фараби, Навои, Джамии, Бабура и других учёных Востока.

Анализ музыкальных трактатов способствует творческому развитию музыковеда, помогает ему в поиске самовыражения собственных идей и мыслей. При ознакомлении студента-музыковеда с трактатами великих мыслителей Востока важно подчёркивать их аксиологическое значение для развития музыкального искусства и науки нынешнего времени. «Ценность – столь же универсальная и фундаментальная категория познания, как и наука. Соответственно, понимание представляет собой такую же важную функцию науки, как и объяснение» [2, с. 258]. Действительно, герменевтика имеет очень важное значение в музыкальной науке и педагогике, поскольку специалист обязан понимать смысл понятий и терминов, прежде чем интерпретировать их в своей практической деятельности.

Трактаты, созданные великими мыслителями в разные исторические эпохи, содержат в себе отпечаток своего времени, языка, стиля, уровня науки и образования. Они, безусловно, требуют герменевтики, пояснений, соответствующих комментариев педагога, поскольку профессиональное владение понятийным аппаратом является важнейшим составляющим компонентом практической деятельности музыковеда. «В объяснении мира сурфиста, – проникательно заметил Хамиджан Хомиди, – пользуются мимикой, символами, иносказанием, поэтому трудно вдруг понять их философские размышления» [3, с. 310]. Учитывая, что базовыми параметрами познания являются представления, ощущения и воображение, без которых невозможна жизнь музыкального искусства как творческого процесса, необходимо установить тесную связь между познанием и музыкой. Так, в частно-



сти, сущность музыкального исполнительства состоит в познании свойств, теоретических механизмов инструмента, с которым повседневно общается музыкант, ощущая соприкосновения с клавишами, струнами, педалями.

Представления и воображения помогают музыканту-исполнителю создать художественный образ и его звуковое воплощение. Эти особенности музыкально-исполнительского процесса не должны ускользать от научного внимания музыковеда, создающего литературный творческий портрет музыканта, очерк или эссе.

Особое внимание необходимо уделять музыкальной просветительской работе в махалиях, рассказывать различным слоям социума о великих мыслителях Востока и их музыкальной деятельности, привлекая для лекций музыкантов-исполнителей на узбекских народных инструментах. Такая форма познания музыкального наследия, основанная на чувственном уровне познания, на слуховом восприятии музыки с профессиональными научными комментариями музыковеда ведёт к уровню логического познания окружающего мира через эмоционально-психологическое восприятие музыкального искусства.

Основные научно-методические аспекты деятельности педагога в этом направлении могут быть следующими:

- диалог как форма непосредственного общения со студентами, озадаченными целевой установкой на процесс познания;
- предпочтение определённому представителю научной мысли Востока, познание деятельности которого получает отражение в студенческом эссе;
- посещение спектаклей, выставок, музейных экспонатов в плане обогащения представлений о великих личностях Востока;
- анализ материалов Интернет-ресурсов в области освещения культурного наследия Востока.

Изучение культурного наследия великих мыслителей Востока – это магистральный путь к познанию окружающего мира, философскому осмыслению бытия, реальных явлений жизни. Жизненный и творческий опыт великих исторических личностей Востока предоставляет молодому поколению нынешнего времени ценный питательный источник познания и воспитания благородных и возвышенных чувств и мыслей. В качестве примера весьма интересен методологический опыт познания наследия Бабура на основе его уникального труда Бабур-наме [4].

Великий мыслитель Востока, писатель, поэт, историк и знаток музыкального искусства и культуры Захириддин Мухаммад Бабур обладал глубочайшими знаниями во многих областях науки и жизни. Он раскрылся в Бабур-наме как мемуарист, философ, историк, эстетик, психолог, культуролог.



лог и социолог. Большой интерес представляют описания быта, повседневной жизни людей, обычаев и досуга.

Как и его современники, Бабур был замечательным музыкантом. Поэтому в Бабур-наме особую ценность для студентов консерватории представляют страницы книги, на которых говорится о музыке, музыкантах, жанрах и формах музыкального искусства, о музыкальных инструментах. Характеристики исторических личностей даны предельно лаконично и образно. Такова, в частности, образная зарисовка Навои: «Алишербек был человек бесподобный. С тех пор, как на тюркском языке слагают стихи, никто другой не слагал их так много и так хорошо» [4, с. 102]. Бабур охарактеризовал Навои и как создателя музыки: «В музыке он сочинял хорошие вещи, у него есть прекрасные накши и пишравы» [4, с. 102]. Трудно переоценить значимость содержания Бабур-наме как источника познания мира.

Обобщая рассмотрение научно-методологических аспектов познания наследия великих мыслителей Востока, следует заметить, что методы изучения путей к познанию окружающего мира через призму исторической ретроспекции, обращённой к великим мыслителям прошлого, пробуждает научно-творческое мышление студентов-музыковедов, развивает профессиональные качества труда педагога, обогащает духовно-образовательно аудиторию слушателей и, в итоге, способствует повышению гуманитарной культуры и гуманизации общества.

Процесс познания бесконечен как окружающий нас мир и природа.

### **Литература:**

1. Кадыров Р.Г. Музыка и педагогика: Монография. - Ташкент: Complex Print, 2022. - 376 с.
2. Ивин А.А. Ценности в научном познании // Логика научного познания. Актуальные проблемы / Отв. ред. Д.П.Горский. - Москва: Наука, 1987. - С. 230-258.
3. Хамиджан Хомиди. Мыслители Востока: научно-художественные очерки / Пер. с узб. языка Ш.М.Джурабаевой; отв. ред. А.Миразизов. - Ташкент: ART FLEX, 2019. - 344 с.
4. Бабур Захириддин Мухаммад. Бабур-наме / Пер. М.Салье; отв. ред. В.Рахманов. - Ташкент: Главная редакция ИПАК «Шарк», 2008. - 244 с.



## O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY TARBIYA VA SIYOSIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZARO ALOQADORLIGI

**I.A.SAMATOVA,**

*O'zPFITI, tayanch doktaranti*

*Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarida ijtimoiy tarbiya va siyosiy tarbiyani shakllantirishning o'zaro aloqadorligi, o'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirish mezonlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy kompetensiya, hayotiy tajriba, «Men-konsepsiyasi», Vitagenik tajriba aktualizatsiya.*

*В данной статье описывается взаимосвязь формирования социального воспитания и политического воспитания у учащихся общеобразовательных школ, критерии формирования социально-политической компетентности учащихся.*

**Ключевые слова:** *социальная компетентность, жизненный опыт, «Я-концепция», актуализация витагенного опыта.*

*This article describes the relationship between the formation of social education and political education among students in general education schools, the criteria for the formation of social and political competence of students.*

**Key words:** *social competence, life experience, "I-concept", actualization of life experience.*

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlar, uni bugungi kun talablariga mos odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishni talab etadi.

Ushbu talablar doirasida O'zbekiston «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga xam o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda.

O'quvchi-yoshlar ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda natijaviyliligni ta'minlash uchun ularning boshlang'ich tushunchalari, ijtimoiy faolligining ahamiyati va zaruriyati haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish; ta'lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; yoshlarda ilm olishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish; yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish; pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash; ijtimoiy faolligini oshirish



jarayonlariga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish; pedagogik jarayonlarda yoshlarda o'tmish va kelajak haqidagi boy tasavvumi shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish; pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning axamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kabi shartlarning bajarilishini ta'minlash zarur[1].

Shaxsning shakllanishida vitagen tajribaning roli bir necha jihatlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, u «Men-kontseptsiya» ning asosini tashkil qiladi va shaxsning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan rassom Pavel Filonov «hayotiy tajriba» atamasini tilga olmay, ta'lim jarayonini faqat o'quvchidan boshlash kerakligini yozadi. Rassomning fikricha, «o'quvchi – birinchi mashg'ulotdan o'zining ustoz sifatidagi huquqlari, burchi va tafakkuri bilan yaqindan tanishgan yangi ustadir». Ushbu pozitsiyalardan ta'lim o'z «Men» ining qiyofasini yaratish jarayoni va shu bilan birga o'z «men»ini ro'yobga chiqaruvchi vositasi sifatida qaraladi[2].

Ikkinchidan, hayotiy tajriba – bu shaxsni ijtimoiylashtirish, ta'lim va tarbiyalash jarayonining mazmuni. Yuqorida ta'kidlanganidek, pedagogik o'zaro ta'sirning mohiyati ko'proq ma'lumot uzatishda emas, balki hayotiy tajriba almashishdadir. Aynan shu sharoitda o'zaro ta'sir qiymat xarakteriga ega bo'ladi.

Uchinchidan, hayotiy tajriba boshqa shaxsga yo'naltirilgan, chunki u faqat boshqa odamlarning hayotiy tajribasiga nisbatan qimmatlidir. Shunday qilib, vitagenik tajribaning o'ziga xos xususiyatlari hamkorlik uchun zarur shartlarni o'z ichiga oladi.

Vitagenik tajriba aktualizatsiya jarayonida o'zini namoyon qila olmaydi. Aktualizatsiya – bu, birinchi navbatda, hayotiy tajribani amalga oshirish. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, vitagenik tajribaning aktuallashuvi inson amalga oshirilgan faoliyatning ma'nosini anglagan holda sodir bo'ladi[3].

O'rganilayotgan muammo bo'yicha pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bolani tarbiyalash, o'qitish va ijtimoiylashtirishda hayotiy tajribadan foydalanish g'oyasi qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lib kelgan, garchi uni amalga oshirish jarayonida hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish muammosi va vitagenik tajriba faqat XX asrning oxirgi choragida ishlab chiqilgan bo'lsada.

Insoniyat madaniyati tomonidan to'plangan tajribani tushunish va undan foydalanish, bizga o'rganilayotgan muammo rivojlanishining uch bosqichini ajratishga imkon berdi:

Birinchi bosqich – informatsion. Xronologik jihatdan u qadimgi dunyodan boshlab XVI asr boshlarigacha davom etgan (E. Rotterdam). Hayotiy tajribaning mazmuni faylasuflar va pedagoglarning diqqat markazida edi. Hayotiy tajribani amalga oshirish shartlari o'qituvchilarning manfaatlaridan tashqarida edi.



Ikkinchi bosqich – muammoli. XVI asrning 20-yillarida boshlanadi (E. Rotterdamskiy) va XX asrning 60-yillarida tugaydi. Bu bosqich empirik bilimlarning rivojlanishi va fanning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu vaqtda hayotiy tajribani aktuallashtirish shartlari ta'lim bilan bog'liq muammolar toifasiga kiradi. Biroq, bu masala hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish muammosi bilan bog'liq emas.

Uchinchi bosqich – texnologik. XX asrning 60-yillaridan bizning davrimizgacha bo'lgan vaqt oralig'ini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda ta'lim jarayoni texnologiyalarining turli modellari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon ta'limda obyekt-subyekt munosabatlaridan subyekt-subyekt munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan talaba shaxsining hayotiy tajribasidan foydalanish zarurati masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Shu bilan birga, maktab o'quvchilarining ijtimoiylashuvi muammolari bevosita hayotiy tajribani aktuallashtirish va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq [4].

Mamlakatimizda ta'limning zamonaviy mazmunini tushunishga qaratilgan yondashuvlar birining zamirida «tajriba» tushunchasi yotadi, shunga muvofiq, ta'lim mazmunining asosiy elementlari: tabiat, jamiyat, inson haqidagi bilimlar; ma'lum usullar bo'yicha faoliyat tajriba; ijodiy faoliyat tajribasi; hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonining asosiy qarama-qarshiliklaridan biri bolalarning hayotiy tajribasi va ta'limga oid (ilmiy) bilimlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdadir. O'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, shaxsni shakllantirishga oid pozitsiyalar orasida bolaning shaxsiy tajribasini o'rganish, uni o'quv jarayonida qo'llash bo'yicha ma'lumotlar to'plangan. Ta'lim jarayonida individual kognitiv faollik amalga oshiriladi, u bola faolligining tabiatiga ko'ra juda erta, stixiyali tarzda, tizimli maktabgacha ta'limidan oldin ham shakllanadi. Maktabga ta'lim olish uchun kelgan bola o'z hayotiy tajribasining tashuvchisi, ya'ni o'z-o'zini rivojlantiradigan va o'z imkoniyatlarini amalga oshiradigan ta'lim jarayonining bir subyektini hisoblanadi. Maktabning asosiy vazifasi bola tajribasini qadrsizlatirish, ahamiyatsiz deb rad etish emas, aksincha, ijtimoiy-tarixiy tajriba natijalarini boyitish orqali uni maksimal darajada aniqlash, foydalanish, «o'stirish» dir.

Zamonaviy amerikalik pedagog-tadqiqotchi U. Glasser fikriga ko'ra: «Agar maktab dasturlari bolaning hayotiy tajribasiga hech qanday tarzda mos kelmasa, unda o'quv motivatsiyasi rivojlanmaydi. O'quv jarayoni murakkablashib borar ekan, faqat motivatsiya bolaga qiyin mavzularni yengishga yordam beradi, ammo u yo'q ekan, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Maktab bolalar hayotiy tajribasi va kuzatishlari asosida o'z fikrlarini ochiq ifoda eta oladigan joy bo'lishi kerak. Maktab tomonidan bola dunyosiga bo'lgan qiziqishi ularda qoniqish hissini uyg'otadi» [5].



Tadqiqotlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, vitagen ta'lim – bu o'qituvchi va o'quvchilarning darsda o'zaro bir-birini to'ldirib, boyitib boradigan muloqotni tashkil etishdagi birgalikdagi faoliyati bo'lib, u shaxsning hayotiy tajribasini (rivojlanishning ushbu bosqichida dunyoqarashni belgilaydigan shaxs uchun muhim hayotiy tajribasi) va jamoaviy hayotiy tajribasini aktuallashtirish jarayoniga asoslanadi. Vitagenik ta'limni tashkil etish, muayyan tashkiliy shakllar va texnologiyalarning mavjudligini, shuningdek, o'qituvchi ish dasturning ma'lum bir bo'limida maktab o'quvchilarining vitagenik ongini bilishini nazarda tutadi.

Bola – o'z faoliyatining subyekti bo'lib, unda faqat kattalar ta'siri obyektini ko'rmaslik kerak. Hamkorlik pedagogikasi nuqtai nazariga ko'ra ta'limni individuallashtirishning yondashuvlaridan biri bu – hayotiy (vitagen) ta'lim bo'lib, unda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayaniladi.

Keling, asosiy tushunchalarni aniqlab olamiz. Hayotiy tajriba deganda, shaxsning mulkiga aylangan, uzoq muddatli xotira xazinalarida saqlanadigan va adekvat vaziyatlarni aktuallashtirishga doimiy tayyor bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi. Bu individ tomonidan to'plangan va u uchun ma'lum (ko'pincha juda muhim) qiymatga ega bo'lgan fikrlar, bilimlar, his-tuyg'ular, harakatlarning birlashishi. Bu ma'lumot ong, his-tuyg'ular, xulq-atvor xotirasi bilan bog'liq, ya'ni inson boshidan kechirgan narsadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr «O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni.

2. «Yoshlarga oid davlat siyosati tug'risida»gi O'zbekiston Respublikasining URK,-406-son konuni 14.09.2016 y. // Lex.uz. Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son.

3. Abzalov E.M. Yoshlar muammosi va xukukiy madaniyat. - T.: TDYuI. Huquqiy ma'rifat targ'iboti Markazi, 2000. - 53 b.

4. Ишмухаммедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар. - Т.: Фан ва технология, 2016 й.

5. Куронов М. Узбекистон умумий урта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед.фан.док.... дисс. - Т., 1998.-3166



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBGA YO'NALTIRISHNI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

**SH. T. ERGASHEV,**  
NamMQI, t.f.n., prof.

*Maqolada kasbga yo'naltirishning bugungi kundagi muammolari va ularning echimlari to'g'risida taklif va tavsiyalar berilgan. Uzuksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishda fanlar va ularning mavzularidagi uzviylik hamda uzliksizlik bilan o'zaro bog'lash orqali kasbga qiziqtirish metodikasi keltirilgan.*

*Kalit so'zlar. Kasbga yo'naltirish, uzliksiz ta'lim, kasbga qiziqtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

*The article contains suggestions and recommendations about today's problems of career guidance and their solutions. In the system of education without a ring, the method of interest in the profession by interlinking with the unity and continuity of subjects and their topics is presented.*

**Key words.** Career orientation, continuing education, career interest, person-oriented education.

Jahondagi yetakchi davlatlarning pedagogik tajribalariga asosan bo'lajak muhandislarning texnologik jarayonlarni innovatsion modelini qurish asosida zaruriy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, loyihalash, konstruksiyalash va tadqiqotchilik faoliyati turlariga tayyorlash muhim o'rin egallaydi. Jumladan, fanlararo integratsiya asosida o'qitishning didaktik ta'minotini takomillash-tirish, hodisa va jarayonlarni faoliyatli, matematik va strategik yondashuvlarga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyat turlariga tayyorlashda dasturiy vositalar, ta'lim metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali mehnat bozori talablariga muvofiq loyihalash, konstruktorlik, tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plangan materiallarni tahlil qilish, shunga qo'shimcha maxsus tadqiqotlarimiz shaxsga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan yo'naltirishni tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan asosiy konseptual qoidalarni aniq ajratib ko'rsatib o'tish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ko'p o'lchovli va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uni quyidagicha ko'rish mumkin:



1) jamiyatning shaxs oldiga qo‘ygan turkum vazifalari to‘plami – sosiologik yondashuv;

2) shaxsning o‘z imtiyozlari va jamiyatda mehnat taqsimoti tizimi ehtiyojlari orasidagi muvozanatni shakllantiradigan yechimlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqish jarayonidir – ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar;

3) shaxsning o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirish jarayoni, bunda kasbiy faoliyat shaxs turmush tarzining bir qismini tashkil qilib turadi – differensial psixologik yondashuv [9].

Shaxsga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan yo‘naltirish barcha o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishga yo‘naltirishni nazarda tutadi:

– yoshga oid, fiziologiyasi, psixologik, intellektua xususiyatlar;

– shaxsiy ehtiyojlar, o‘quvchining mavjud dastur materialining turli murakkablik darajalariga yo‘nalganligi;

– bilimi, qobiliyati va u yo bu kasbiy yo‘nalganligidan kelib chiqib bolalarni guruhlarga bo‘lish;

– bolalarni o‘zlashtirishlari, qobiliyatlari, u yoki bu kasbga yo‘nalganliklariga qarab guruhlarga taqsimlash;

– har bir bolaga u noyob inson sifatida qarash.

Kasbga yo‘naltirishning mazkur konsepsisi har bir bitiruvchida quyidagilarni shakllantirish zarurligini nazarda tutadi:

– o‘zlikni anglashni;

– qadriyatlar tizimini shakllantirishni;

– o‘zidagi qobiliyat va imkoniyatlarni o‘zi yetarli darajada to‘g‘ri baholashi qobiliyatini;

– o‘zidagi mavjud imkoniyatlar va orzucidagi kasb talablarini o‘zaro qiyoslay olishini;

– tanlash va o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatini.

Tadqiqot ishini bajarishda kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish jarayonini loyihalashga e‘tibor qaratdik. Bunda, kasbiy faoliyat mazmunini belgilovchi fanlar bloklarini tahlil qilish orqali talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi fanlarni integratsiyalashni amalga oshiramiz:

1-blok: Umumkasbiy fanlar: Nazariy mexanika. Materiallar qarshiligi.

2-blok: Ixtisoslik fanlari: Ichki yonuv dvigatellari.


3-blok: Qo‘shimcha ixtisoslik fanlari. Avtotransport vositalarini diagnostikalash (1-rasm).



O'qitish texnologiyasini tashkil qilishning bir necha yo'li mavjud:  
Jamoaviy o'qish (Student Team Learning (STL))

Butun guruhning muvaffaqiyati o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki masalani ishlab chiqishda guruhning har bir a'zosining (guruhning) boshqa guruh a'zolari bilan doimiy aloqada mustaqil ishlashi natijasida erishiladi. Guruhning har bir a'zosi kerakli o'quv materialini o'rganishini ta'minlash uchun javobgardir. O'qitishni tashkil qilishning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- jamoaning barcha a'zolari bir xil rag'batlantiriladi;
- butun guruhning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi uchun barchaning shaxsiy javobgarligi mavjud;
- muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlar beriladi (guruhning har bir a'zosining muvaffaqiyati avval erishilgan natijalarni taqqoslash orqali baholanadi, bu kuchli, o'rta va zaif talabalarga o'z jamoalariga ballar olishda teng imkoniyatlarni beradi).



1-rasm. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlar mavzulari bilan o'zaro bog'lash orqali kasbga qiziqtirish metodikasi



### Birgalikda o'qish (Learning Together)

Ta'lim faoliyatini tashkil etishning ushbu turidagi asosiy g'oya shundan iboratki, butun auditoriya chet tillarni bilish nuqtai nazaridan bir hil bo'lgan

3-5 kishilik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh o'z vazifasining bir qismini bajaradi. Har bir guruhni shakllantirishda professor-o'qituvchi nafaqat bo'lajak mutaxassislarini teng darajada tayyorgarligini, balki ularning psixologik muvofiqligi, birgalikda qaror qabul qilish qobiliyatini ham hisobga olishi kerak.

Iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohaları uchun mutaxassislar tayyorlab beradigan mutasaddi tashkilot oliy ta'lim hisoblanadi. Shuning uchun ushbu ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yangicha innovatsion texnologiya-lar asosida tashkil qilish muammosi dolzarb hisoblanadi. Bu muammoni hal qilishning yagona yo'li zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng qo'llash orqali amalga oshiriladi. Buning natijasida kasb xunarga yo'naltirishda yuqoridagi rasm(1-rasm)dagi uzviylik va uzluksizlik orqali amalga oshirishga asos bo'ladi.

Uzluksiz ta'limda kasbga yo'naltirish talimning bosqichiga qarab fanlarning o'zaro aloqadorligi, o'qitish vositalari, zamonaviy ta'lim metodlari orqali amalga oshirishni talab etadi. Kasbga qiziqitirish va yo'naltirish orqali jamiyatning kasbga bo'lgan extiyojlarini qondirish masalasi uzluksiz ta'lim tizimining natijasi sifatida samarali bo'ladi va bugungi kun talablari qondiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук - СПб.: 1995. - 43 с.

2. Djurayev R.X, Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - : «Voriz-Nashriyot» nashriyoti, 2006. - 264 b.

3. Эргашев Ш., Коротина В. Профорориентационные возможности общеобразовательных предметов в 4 классе начальной школы / Материали Республиканской научно-практической конференции на тему: «Перспективы непрерывной профессиональной ориентации учащихся». 18 - 19 декабря 2008 года. - Ташкент, 2008. - С. 263 - 267.

4. Эргашев Ш.Т. Профорориентационная работа в системе непрерывного образования Республики Узбекистан: подсистема народного образования. Ленинградский государственный университет им. А.С.Пушкина, X-е Саркоселские чтения. Материали международной научной конференции, апрел 2006. - Санкт-Петербург, ЛГУ, 2006. - с.134-136.

5. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan.nom. - T.: 2000. - 186 b.



## KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KASBBIY IJODKORLIGINI RIVOJLANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

**F.X.IBRAIMOVA,**

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston  
Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, (PhD)*

*Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv faoliyat tajribasini egallashga yo‘naltirish, kasbiiy ijodligini rivojlanishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari tahlil qilingan.*

**Tayanch so‘zlar:** *ta‘lim-tarbiya jarayoni, kasbiy takomillashuv, kognitiv ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy ijodkorlik, bilim, metod, kognitiv-pedagogik faoliyat.*

*В данной статье анализируются психолого-педагогические условия направления будущих учителей на приобретение опыта познавательной деятельности и развитие их профессионального творчества.*

**Ключевые слова:** *учебно-воспитательный процесс, профессиональное совершенствование, познавательное образование, будущий учитель, профессиональное творчество, знания, метод, познавательно-педагогическая деятельность.*

*This article analyzes the psychological and pedagogical conditions for directing future teachers to gain experience in cognitive activity and develop their professional creativity.*

**Key words:** *educational process, professional development, cognitive education, future teacher, professional creativity, knowledge, method, cognitive and pedagogical activity.*

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi unda faollik, mustaqillik, mustaqil bilim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Bu jarayon bevosita bo‘lajak o‘qituvchilar bilan muloqot asosida pedagogik amaliyot bosqichida amalga oshiriladi.

Shubhasiz, ta‘lim-tarbiya jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlarida o‘z-o‘zini bilish, baholash, nazorat qilish hamda ixtiyoriy takomillashish ehtiyojini vujudga keltirish orqali ta‘minlanadi.

Kognitiv ta‘lim o‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanishini uyg‘un tarzda amalga oshiradigan jarayondir. Mazkur jarayonning har bir ishtirokchisi o‘z faoliyati davomida ushbu yondashuvga amal qilishi lozim. Bu esa o‘qituvchi-lardan shaxsiy kuch-quvvat va bilimlarini sarf qilishni talab etadi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘zining kasbiy takomillashuvi va bo‘lajak o‘qituvchilari haqida o‘ylay boshlaydi. Shuning uchun ham bo‘lajak



o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy rivojlan-tirishi muhim hisoblanadi. Bu esa uning pedagogik jarayonlarni bilishi, aniq loyihalashtira olishi va maqsadga muvofiq tarzda tashkil eta olishiga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyot jarayonida ijodkor bo'lajak o'qituvchilarning mustaqillik darajasi keskin tarzda oshadi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustlarida ishlay olishlari alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchi o'z-o'zini rivojlantirish maqsadida mustaqil bilim olishga kirishar ekan, birinchi navbatda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi kerak. Har bir mutaxassis kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlay olishi lozim. Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchilar uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

- o'zining shaxsiy sifatlarini bilishi va baholay olishi;
- o'z xulq-atvorida nimani o'zgartirish zarurligini aniqlashi;
- o'ziga ta'sir qilish yo'llari va usullarini egallashi kabilar.

Bugungi vaziyatda o'qituvchining yuksak pedagogik darajasini nafaqat o'z faniga oid bilimlarni chuqur o'zlashtirganligi, balki bo'lajak o'qituvchilarni ijodkor shaxs sifatida tarbiyalay olishi ham ifodalaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning bo'lajak o'qituvchilarning o'z rivojlanish traekto-riyalarini shakllantirish, o'zlarini ijodiy rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini loyihalashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

- bo'lajak o'qituvchilarning o'z dunyoqarashlari va faoliyatlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning o'z ehtiyojlari, mayllari, odatlari, layoqatlarini to'g'ri baholay olishlariga imkoniyat yaratish;
- bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy moyilliklari, qiziqishlari va layoqatlarini aniqlashga ko'maklashish;
- bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy tanlovlarini aniqlashlariga xizmat qiladigan fikriy faoliyatlarini kengaytirish;
- bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zlarini tarbiyalash, mustaqil bilim olish, rivojlanish hamda takomillashish istagini uyg'otish;
- har bir bo'lajak o'qituvchini xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga ko'maklashish maqsadida chuqur o'rganish;
- bo'lajak o'qituvchilarning o'zlaridagi muayyan sifatarni aniqlashlariga xizmat qiladigan metodlar va usullar bilan tanishtirish kabilar.

Buning uchun o'qituvchi ijodkor va novator bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zlarini ijodiy rivojlantirishlariga erishish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda, birinchi navbatda, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida qulay pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish lozim. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:



a) bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zlarini kasbiy takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirish;

b) bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini ta'minlash;

v) O'zbekiston maktablari va xorijiy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan ilg'or pedagogik tajribalarni muntazam o'rganish va tahlil qila olish.

Pedagogik yondashuvlarga tayangan holda ehtiyojni insonning muayyan holati sifatida baholash mumkin. Mazkur holat ularni nimanidir sinab ko'rishga undaydi. Ehtiyojlarni qondirish jarayoni shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati orqali amalga oshadi. Ehtiyoj inson faolligining manbai hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – shaxsning istaklari va mazkur istaklarni qondirish holatlari orasidagi mutanosiblikni vujudga keltirishdan iborat [2].

Pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun faqatgina ehtiyojning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarning imkoniyatlarini qo'zg'atuvchi quvvatlar ham zarur. Ushbu quvvatlar ularning ijodiy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirishi va aniq faoliyatni amalga oshirishiga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy moyilligi ham ularni faollikka undaydi.

Pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy munosabat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ehtiyoji, o'z ijodiy quvvatlari, pedagogik ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga intilish, o'zini o'qituvchi sifatida nimoyon qilish imkoniyatini beradi [3]. Bu o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish omili sifatida xizmat qiladi. Bu quyidagilarga bog'liq:

– bo'lajak o'qituvchilarga kasbiy rivojlanish imkonini beradigan qulay pedagogik-psixologik muhitning mavjudligi;

– ishchan hamkorlik muhitini vujudga keltirish uchun birgalikda ishlaydigan ijodiy guruhning shakllantirilganligi;

– pedagogik hamkorlikning rivojlantirilishi;

– ijodiy innovatsion muhitning vujudga keltirilganligi;

– pedagogik amaliyot jarayonida ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagogik jamoa tomonidan yangi g'oyalar va pedagogik loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi;

– innovatsion faoliyat ichki va tashqi bosimlardan xoliligi va mustaqilligining ta'minlanganligi;

– bo'lajak mutaxassislarning iqtidorlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda ularning maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirilganligi;

– bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ijodkorlikka muntazam yo'naltirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi va tatbiq etilganligi kabilar.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash – uzluksiz pedagogik ta'lim olishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, didaktik shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir. Qulay



didaktik shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning sharti bo'lib, o'quv jarayonining muhim omili sifatida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-biluv faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi [3]. Mazkur didaktik shart-sharoitlar bo'lajak mutaxassislarni ijodkor shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgandir.

Bo'lajak o'qituvchilarning yosh xususiyatlari, o'zlarining ijodiy faolliklari va bilimdonliklari bilan boshqalardan farqlanishlari bo'lajak o'qituvchilar intellektining murakkab tarkibini ifodalaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'zlari tanlagan kasbni egallashga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyatni amalga oshirishlaridadir. Bunday faoliyatning yetakchi belgilari sifatida kasbiy-o'quv va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatlarini ko'rsatish mumkin. Kasbiy faoliyat ko'nikmalarini egallash yetuklikka erishishning dastlabki davri hisoblanadi. Bu davr bo'lajak mutaxassislarda shaxsiy-kasbiy sifatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi [4]. Bunday sifatlarni sirasiga: maqsad sari intilish, qat'iylik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini bilishga intilish, o'zining shaxsiy kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda ijodiy layoqatlilik kabilarni kiritish mumkin. Muayyan, bir-biriga zid bo'lgan hayotiy vaziyatlarga duch kelganda bo'lajak o'qituvchilar o'z ijodiy quvvatlarini faollashtiradilar va aniq maqsadga yo'naltiradilar.

Ta'lim jarayonining boshqa subyektlari bilan o'zaro munosabatga kirishganda bo'lajak o'qituvchilarning faolliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu faollik o'zaro dialog jarayonida aniq ko'zga tashlanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni dialogik yondashuv asosida kasbiy tayyorlash subyekt-subyekt munosabatlarining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, mazkur munosabatlarni amalga oshirishning qulay imkoniyati sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoni subyektlari orasidagi bunday o'zaro hamkorlik har doim o'zaro hurmat, bir-birlariga ishonch, ochiqlik, qiziquvchanlik, bir-birlarini jalb etish prinsipiga tayangan holda amalga oshadi.

Birgalikdagi ijodiy faoliyatga asoslangan hamkorlik birgalikda ijod qilish muhitini vujudga keltirib, o'qituvchi-bo'lajak o'qituvchi hamkorligining yuqori darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday o'quv vaziyatlari ta'lim oluvchilarning ijobiy sifatlarni o'zlashtirishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi va mustaqil rivojlanishning individual-ijodiy yo'lini tanlashlariga asos bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy tayyorgarliklarini tashkil etishning asosiy sharti ularning ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishlarini tashkil etishdan iborat. Bu jarayonda ular kognitiv pedagogik faoliyatni loyihalashtirish tajribasini egallaydilar. Bunday faoliyat sirasiga a) bo'lajak o'qituvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish va uni metodik jihatdan boshqarish; b) ta'lim-tarbiyaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish va uni tashkil etish; v) tadqiqotchilik izlanishlariga oid ishlarni amalga oshirish usullarini egallash kabilarni kiritish mumkin.

Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni



rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat o'zining didaktik hamda psixologik xususiyatlariga ega bo'lib, mazkur xususiyatlarni aniqlash orqali o'qituvchi kasbiy faoliyatini sifat jihatdan takomillashtirish imkoniyati vujudga keladi [5].

Oliy pedagogik ta'lim jarayonini talabalarda pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirish professor o'qituvchilar faoliyatining tarkibiy qismiga aylanib, bo'lajak pedagoqlarni bunday jarayonga tayyorlash uchun ularni nazariy jihatdan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida bu sohada mavjud bo'lgan yondashuvlar, konsepsiyalar, modellar, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va oliy pedagogik ta'lim jarayoni mazmuniga singdirish alohida ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishning konseptual asoslari, kreativlik o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismini tashkil etishi zarurligini asoslovchi nazariy yondashuvlar va ilmiy metodik tavsiyalar vujudga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida oliy pedagogik ta'lim mazmunini kognitiv yondashuv asosida loyihalash va tashkil etish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent.: O'zbekiston. 2021. - B. 219.
2. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. «Pedagogika nazariyasi (darslik).» - T.: Fan va texnologiya, 288 (2008).
3. Ibraimov Kh.I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. - 2018. - No. 3 (27). - P. 44-46.
4. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). - T., «Shaffof», 2023, 416-bet.
5. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. - Toshkent, 2023.



## PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING MALAKAVIY AMALIYOTLARINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

**O.O. BAQOYEV,**

*Vobkent tuman 2-son kasb-hunar maktabi direktori,  
mustaqil izlanuvchi,*

**A.K. AVLIYAKULOV,**

*Pedagogik innovatsiyalar kasb-hunar  
talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti dotsenti p.f.n., dos.*

*Maqolada professional ta'lim muassasalarda o'quv jarayonini tashkil etishda malakaviy amaliyotlarni amalga oshirish modeli ko'rib chiqilgan. Bunda professional ta'lim muassasalari va biznes hamkorlar o'rtasida samarali hamkorlik va ta'lim natijalarini tijoratlashtirishni ta'minlash orqali erishish jihatlari yoritilgan.*

**Kalit so'zar:** malakaviy amaliyotlar, kompetensiya, natijalarni tijoratlashtirish, kasbiy ta'lim, biznes.

*В статье рассматривается модель реализации квалификационных практик в организации образовательного процесса в учреждениях профессионального образования. В нем освещаются способы достижения этого посредством эффективного сотрудничества между профессиональными учебными заведениями и деловыми партнерами и коммерциализации результатов обучения.*

**Ключевые слова:** квалификационные практики, компетенции, коммерциализация результатов, профессиональное обучение, бизнес.

*The article considers a model for the implementation of qualification practices in the organization of the educational process in vocational education institutions. It highlights ways to achieve this through effective collaboration between vocational schools and business partners and the commercialization of learning outcomes.*

**Key words:** qualifying practices, competence, commercialization of results, vocational training, business.

Muhtaram yurtboshimiz tomonidan 2019-yil 6-sentyabrda qabul qilingan «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5812-son Farmonida professional ta'lim dasturlarini YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish, professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta



va oʻrta maxsus professional taʼlim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish vazifalari belgilangan [1].

Farmoniga asosan kasb-hunar maktablari Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi taʼlim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan boshlangʻich professional taʼlim bosqichida kadrlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida professional taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, birinchi navbatda, oʻquvchilarning professional taʼlim muassasasida egallagan bilim, koʻnikma va malaka hamda kompetensiyaga asoslangan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan va boʻlajak bitiruvchilarni tayyorlashda ixtisoslik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun asos boʻlishi kerak. Oʻqitish jarayoniga malakaviy amaliyotga bagʻishlangan nashr etilgan ishlar tahlili shuni koʻrsatadiki, hozirgi vaqtda ushbu muammoni hal etishda quyidagi uchta yoʻnalish belgilangan.

1. Integratsiya – nazariy mashgʻulotlar asosida korxonalarda amaliyot oʻtash, ularni kelgusida ushbu korxonalarda ishga joylashtirish.

2. Oʻquvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida malakaviy amaliyot texnologiyalarini joriy etish.

3. Muloqot – real ishbiarmonlik bilan nazariy tayyorgarlik, oʻqitish va ishlab chiqarish amaliyotini tijoratlashtirish belgisi ostida amalga oshirish.

Ushbu jarayonda amaliyotga yoʻnaltirilgan oʻqitish usulidan foydalanishning Germaniya davlati tajribasi shuni koʻrsatadiki, mehnat bozori tomonidan talab qilinadigan mutaxassislarni tayyorlash samaradorligi oʻquvchilarning korxonalarda uning motivatsiyasi, shaxsiy fazilatlarini, moyilligi va aqliy qobiliyatlarini hisobga oladigan professional taʼlim muassasasi tomonidan qanday tashkil etilganiga bogʻliq [3]. Shu sababli, bugungi kunda Oʻzbekistonda dual taʼlim tizimini joriy etilishi korxonada amaliyot oʻtash amaliyotga yoʻnaltirilgan oʻqitish-ning asosiy ustuvor tarkibiy qismi boʻlib, u kasbiy taʼlim muassasasida olingan bilim, koʻnikma va malakalar asosida oʻquvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi [4].

Ushbu murakkab oʻqitish tizimining natijasi quyidagi talablarga javob beradigan malakali bitiruvchi mutaxassisni tayyorlashdir:

- professional taʼlimiga ish beruvchining munosabati;
- mustaqil qarorlar qabul qilinishi;
- ijodkorlik;
- dunyoqarash;
- maqsadga muvofiqlik va oʻzini-oʻzi tanqidiy baholash;
- AKT savodxonligi.

Shubhasiz, agar yuqoridagi shartlar bajarilsa, professional taʼlim muassasalarining bitiruvchisi oʻzi tanlagan mutaxassislik boʻyicha kasbiy kompetentli, izlanuvchan



mutaxassis bo'ladi, professional ta'lim muassasasida egallagan bilim, ko'nikma, malakalar ta'lim standartlari, haqiqiy ish beruvchining talablariga javob beradi. Professional ta'lim tizimida malakaviy amaliyotlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi ta'lim muassasasida o'quv faoliyati davomida bir vaqtning o'zida amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi (u kasb-hunar maktabini tugatgandan keyin ishlaydigan korxonaning hozirgi ish muhiti, jamoasi, mehnat sharoitlari bilan tanishadi).

Ta'limni tijoratlashtirish dolzarb vazifa bo'lib, bitiruvchi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishni aniq tushunishi kerak, malakaviy amaliyot o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi.

Masalan:

- o'z g'oya va loyihalarini muayyan ishlab chiqarishga joriy etadi;
- professional ta'lim muassasasi – o'z ta'lim jarayonini takomillashtiradi, ta'lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar, uslub va vositalar joriy etadi;
- korxonaning talablariga javob beradigan tayyor ijodiy mutaxassisni oladi;
- Davlat muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammoni – bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlashni hal qiladi.

– Ta'lim standartlari takomillashtiriladi;

– Biznes muhiti yangi hamkorlarga ega bo'ladi.

Agar professional ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari o'z faoliyati doirasida malakaviy amaliyot natijalarini tijoratlashtirishga qaratgan bo'lsa, yuqorida aytilganlarning barchasi amalga oshirilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Malakaviy amaliyot natijalarini tijoratlashtirish orqali amalga oshirish jarayoni



Malakaviy amaliyotning natijasi kasbiy faoliyatni amalga oshirish yo‘li bilan professional ta‘lim muassasasini tamomlagan bitiruvchi-o‘quvchi, ta‘lim faoliyati, shuningdek, amaliyot o‘tash jarayonida yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi va kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘ldi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston professional ta‘limi muassasalarida ta‘limni tijoratlashtirish jarayonini nima sekinlashtirmoqda?

Bu savolga javob berishda mamlakatimiz professional ta‘lim tizimi oldida turgan quyidagi muammolar mavjud bo‘lib, ushbu muammolarni bartaraf etish lozim:

1. Malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha normativ-huquqiy bazaning yetishmasligi;

2. Professional ta‘limi muassasalari rahbar kadrlarining aksariyati bunday innovatsion faoliyatga tayyor emasligi;

3. Professional ta‘lim muassasasi tuzilmasida malakaviy amaliyotini to‘laqonli amalga oshirishni bog‘lovchi elementlarning mavjud emasligi: nazariy tayyorgarlik – amaliyot – o‘quvchilarning mahsulotlarini sotish;

4. O‘quv dasturlarida tijoratlashtirish samaradorligini yaxshilash bo‘yicha treninglar yetarli emasligi;

5. O‘quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini tijoratlashtirishni o‘rgatuvchi o‘qituvchilar ta‘minotining yetarli emas.

Misol tariqasida O‘zbekistonning Buxoro viloyati Vobkent tumanida joylashgan tuman 2-son kasb-hunar ta‘limi muassasada malakaviy amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish tajribalari joriy etilganini keltirish mumkin.

Vobkent tuman 2-son kasb-hunar maktabi joylashgan hududda istiqomat qiladigan aholisi azaldan asalari oilalarini parvarishlash bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lib, bu tajriba avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Kasb-hunar maktabida asalarichilik ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-kursda 30 nafar, 2-bosqichda 30 nafar, jami 60 nafar o‘quvchilar tahsil olmoqda. 2021 yilda «Buxoro viloyat asalarichilar assotsiatsiyasi» va AT «Aloqabank» Buxoro filiali mablag‘lari hisobidan Vobkent tuman 2-son kasb-hunar maktabida asalarichilik yo‘nalishi bo‘yicha tajriba sinov tariqasida «Simulyatsion markaz» tashkil etildi.

Kasb-hunar maktabida asalarichilik yo‘nalishida tashkil qilinadigan «Simulyatsion markaz»i zarur zamonaviy ko‘rgazmali vositalar, simulyatsion jihozlar, o‘quv asbob-uskunalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jixozlari bilan to‘liq ta‘minlandi. Asalarichilik yo‘nalishida zamonaviy texnologiyalar asosida



o'qitish va o'rgatish uslublari ishlab chiqildi, o'quvchilarda kompetensiyalarni hosil qilish maqsadida, o'qituvchilarga zarur o'quv qo'llanmalar yaratildi, zamonaviy agrotexnologiyalar asosida o'qitish jarayonlari tashkil etildi. Natijada o'quvchilar asalarichilik kasbi bo'yicha faqatgina nazariy bilimlarni olibgina qolmasdan, tashkil etilgan asalarichilik xo'jaligida va o'quv ustaxonasida amaliy bilimlarni ham olish imkoniyatlariga ega bo'ldilar.

Bu harakatlar professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni munosib darajaga ko'tarish imkonini beradi. Ular mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadi deb hisoblasak bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги «Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПФ-5812-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 октябрдаги «Республикада асаричилик тармоғини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-3327-сон қарори.

3. Авлиякулов А.К., Ходжаев Н.С. «Проблемы модернизации организации учебного процесса в учебных заведениях» научно-методический журнал, «Просвещение и познание» М. 2022. № 4 (11). - С. 43-50

4. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход в образовании / Э.Ф. Зеер // Образование и наука. Известия УрО РАО. 2005, - №3 (33). - С. 27-34.



## «UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIIYA KONSEPSIYASI» ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**O'.T.MAMAJONOV,**

Andijon davlat universiteti, Matematika  
fakulteti o'quv ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

*Maqolada bugungi kunda ma'naviy yetuk va barkamol yoshlar tarbiyasiga qaratilgan davlat siyosati, «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirishda bo'lajak o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar haqida so'z boradi*

**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim, uzluksiz tarbiya, konsepsiya, ma'naviy kompetentlik, pedagogik-psixologik xususiyatlar, jamiyat, ilmiy-texnika va texnologiya, talaba-yoshlar, ijtimoiy funktsiya, mehnat, siyosiy va axloqiy madaniyat.

*В статье представлена государственная политика, направленная на воспитание духовно зрелой и гармоничной молодежи на сегодняшний день, развитие профессиональной компетентности будущих педагогов на основе «концепции непрерывного духовного воспитания», определение основных направлений духовного воспитания детей с опорой на принципы преемственности, преемственности в воспитательном процессе, воспитание у молодежи преданности Родине, предпринимательства, воли, идеологического иммунитета, доброты-последовательность, ответственность, терпимость, правовая культура, инновационное мышление, речь идет о требованиях, предъявляемых к личности будущего педагога при поэтапном формировании с детства таких важных качеств, как трудолюбие.*

**Ключевые слова:** непрерывное образование, непрерывное образование, понятие, духовная компетентность, педагогико-психологические особенности, общество, Научно-техническая и технологическая, студенческая молодежь, социальная функция, трудовая, политическая и нравственная культура.

*In the article, the state policy aimed at the education of spiritually mature and harmonious youth today, the development of professional competence of future teachers on the basis of the «concept of continuous spiritual education», establishing the main directions for spiritual education of children based on the principles of continuity, continuity in the educational process, loyalty to the motherland in youth, entrepreneurship, willfulness,*



*ideological immunity, kindness, responsiveness, tolerance, legal culture, innovative thinking, in the step-by-step formation of such important qualities as hard work, from childhood, one speaks of the requirements for the personality of the future teacher*

**Key words:** *continuing education, continuing education, conception, spiritual competence, pedagogical-psychological characteristics, society, scientific-technical and Technology, student-youth, social function, Labor; political and moral culture.*

Bugungi kunda ma'naviy yetuk va barkamol yoshlar tarbiyasiga qaratilgan davlat siyosati ma'naviy-axloqiy tarbiya usullariga chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil tafakkuri, shaxsiy va kasbiy kompetentligi, ijodiy va intellektual salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish vazifasi bilan uzviylikda amalga oshiriladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son qaroriga asosan bir qancha vazifalar belgilangan. Jumladan,

– tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash;

– yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

– aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

– ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilyotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish;

– uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish kabilar shular jumlasidandir.

Yurtimizda «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yilmoqda. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda. Ushbu talablar



doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas. Shu munosabat bilan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya»[3] konsepsiyasi tasdiqlanib, unda belgilangan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotidan shu narsa ma'lumki, har qanday sog'lom yangi g'oya keng jamoatchilikning ongiga chuqur singsa, hayotda chuqur ildiz otsa, amaliyotda o'zini oqlasa o'shanda real voqelikka, katta ijtimoiy kuchga aylanadi. Globollashuv jarayonlarida insonlarning bilim va g'oya, milliy istiqloq mafkurasi to'g'risida tasavvurlari ularning ma'naviy ongi, imon va e'tiqodiga, dunyoqarashiga



aylanib qolishi inson kapitalini yanada rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Zero har bir insonning o'z-o'zini tarbiyalashai, erkinlikka, adolatga, kamolotga intilishi, ijod qilishi kasbiy va shaxsiy ma'naviy ehtiyojlarini qondirib borishi bu uning kelajakda yuqori natijalarga erishishini ta'minlashga yordam beradi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashi, ongi, tafakkurini rivojlantirish bu unib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Ma'naviyat har bir shaxs ruhiy va aqliy olamining majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u ta'lim-tarbiya vositasida yuqori natijaga erishishni taqazo etadi.

Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, uzluksiz ta'limda tarbiya jarayonining ijtimoiy omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlari;
- tarbiyaning ijtimoiy shart-sharoitlar bilan aloqadorligi;
- tarbiya ijtimoiy voqelikni boshqarish, nazorat qilish va ijtimoiylashtirish omili ekanligi;
- tarbiya ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvor namunalari odatlantirish sifatida; kichik (mikro muhit), o'rta (mezo muhit) va katta (makro muhit) guruh va hamjamiyatlar orqali tarbiyalash va h.k.

Mazkur omillardan ko'rinadiki, tarbiyaning ijtimoiy mohiyati uning turlaridan biri bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ham taalluqlidir. «Ma'naviy-axloqiy tarbiya» tushunchasi ham «tarbiya» tushunchasi kabi turlicha talqin qilinadi. Masalan, pedagogik lug'atlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyatda axloqni qayta yaratish, tadqiq qilish shakllaridan biri sifatida ta'riflanadi[5]

– tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga oshno etish: ishonch, muhabbat, erkinlik, vijdon, minnatdorlik, burch, oliyjanoblik;

– axloqiy his-tuyg'ularni uyg'otish va rivojlantirish – uyat, hayo, qayg'urish, javobgarlik;

– axloqiy irodani rivojlantirish – ezigulikka xizmat qilish va yomonlikka qarshi turish, hayotiy sinovlarni yengishga tayyorlik va vahimaga berilmaslik, ma'naviy takomillashuvga intilish;

– axloqiy xulq-atvor motivatsiyasi – tinglash, empatiya, yaqinlari, oilasi va Vatanga xizmat qilish.

«Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish rivojlantirish tuzilmasi maqsadga muvofiq ravishda quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:



- tanishtiruv- tahliliy;
- qadriyatli-yo‘naltiruvchi;
- refleksiv-faoliyatli;
- gerontopedagogik ta’limga asoslangan.

Mazkur komponentlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligining ijtimoiy tavsifini ham o‘zida aks ettiradi:

- ma’naviy mazmunga ega axborot umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil etilishi va baholanishi,
- shaxsiy-ma’naviy qadriyatlar bilan ijodiy jihatdan muvofiq bo‘lishi,
- boshqa kishilarni tushunish uchun qulay shaklda ifodalanishi,
- ma’naviy qadriyatlarning turli variantlarini hisobga olish uchun asoslangan dalillar asosida ishlab chiqilishi,
- axloqiy refleksiya va keng hayotiy vaziyatlar doirasida to‘g‘ri harakatlanishni amalga oshirishi uchun zarurdir.

O‘z navbatida, ushbu komponentlar bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy kompetentlikni rivojlanganligini o‘rganish ko‘rsatkichlari sifatida ham xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora - tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ - 3151- sonli Qarori [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Ma’naviy - ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ - 4307 - son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF- 6108-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son

5. Педагогический энциклопедический словарь. -М.: Большая Российская энциклопедия, 2003. - Б.171.



## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI DEONTOLOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINING MAZMUNI

**G.M.AKRAMOVA,**

*Buxoro DU «Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti»  
kafedrasida o'qituvchisi*

*Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarini deontologik faoliyatga tayyorlash jarayonining mazmunini va tuzilishini ochib berish uchun uning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqilgan. jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun deontologik tayyorgarlikning o'ziga xos tarkibiy qismlari ta'lim muassasalari, mahalliy qoidalar va muassasa yoki dasturning umumiy falsafasiga qarab farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, axloqiy mulohazalar samarali o'qitish amaliyoti va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishining keng kontekstiga kiritilishi kerak.*

**Kalit so'zlar:** deontologik tayyorgarlik, komponentlar, deontologik faoliyat, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

*The article examines its components in order to reveal the content and structure of the process of preparing physical education teachers for deontological activities. The specific components of deontological training for a physical education teacher may vary by educational institution, local regulations, and the general philosophy of the institution or program. In addition, ethical considerations must be placed within the broader context of effective teaching practice and holistic student development.*

**Key words:** deontological training, components, deontological activity, future physical education teacher.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatda bo'lishga deontologik tayyorgarligining asosiy ko'rinishlari vijdon, shaxsning o'zini axloqiy nazorat qilish qobiliyati, o'quvchiga ishonish, o'qituvchining chidamliligi va bag'rikengligi, bolalarga yuqori pedagogik mehr-muhabbat, «O'qituvchi – o'quvchi» o'zaro munosabatlar tizimida kasbiy burch va deontologik me'yorlarni bajarish. Shu munosabat bilan deontologik me'yorlar pedagogik burch va faoliyat natijalari uchun javobgarlik nuqtai nazaridan kasbiy standart talablarining bajarilishini ta'minlab, muayyan pedagogik vaziyatlarda pedagogik ta'sirlarni ko'rsatuvchi va cheklovchi bo'lib xizmat qiladi. Tartibga soluvchi talablar va kasbiy me'yorlarni ongda aks ettirish o'qituvchiga pedagogik voqelikni to'liqroq va adekvat idrok etishga, uni boshqarishga, o'quvchilar bilan ishlash strategiyasi va taktikasini, o'zaro munosabatlar rejasi va maqsadlarini ishlab chiqishga, konfliktli yoki muammoli vaziyatlarda ularning xatti-harakatlarini ongli ravishda tartibga solishga imkon beradi. Bu qoidalar o'quvchilar bilan samarali pedagogik o'zaro munosabatlarning sharti, mahsuloti va vositasidir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatda bo'lishga deontologik tayyorgarligining funktsional mazmunini aniqlashda, tayyorgarlik fenomenida



an'anaviy ravishda aniqlangan funktsiyalarni (moslashuvchan, gnostik, integrativ, prognostik, qiymatga yo'naltirilgan, o'zini o'zi boshqarish funktsiyasi) ta'kidlash muhim. Jismoniy tarbiyada o'qitish jarayonining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan maxsus tarkibni ularga kiritish, shuningdek, o'ziga xos funktsiyalar (pertseptiv-diagnostik va motivatsion-emosional, jismoniy sifatlar)ni inobatga olish zarur.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatda bo'lishga deontologik tayyorlik tuzilishini ochib berish uchun uning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish kerak. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligi tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: kognitiv (nazariy), motivatsion-qiymatli, amaliy, ijodiy (ijodiy), affektiv.

Kognitiv (nazariy). Mazmun bo'yicha bilimlar: O'qituvchilar jismoniy tarbiyaning nazariy jihatlarini, jumladan, sport fani, anatomiya, fiziologiya va pedagogik tamoyillarni chuqur tushunishlari kerak.

Qonunlar va qoidalar: Turli sport va jismoniy faoliyatni tartibga soluvchi qoidalar va qoidalarni to'liq bilish juda muhimdir.

Motivatsion qiymat. Qadriyatlarini singdirish: Treningda o'qituvchilar sport mahorati, adolatli o'yin, jamoada ishlash va boshqalarga hurmat kabi muhim qadriyatlarini qanday berishlari mumkinligiga e'tibor qaratish kerak.

Motivatsion strategiyalar. o'quvchilarni jismoniy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishga va sog'lom turmush tarzini saqlashga undash usullari yoritilishi kerak.

Amaliy. O'qitish texnikasi: mashg'ulotlar jismoniy tarbiya sharoitida samarali o'qitish usullari, darsni rejalashtirish va sinfni boshqarish bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga olishi kerak.

Namoyishlar. O'qituvchilar o'quvchilarga to'g'ri texnika va mashqlarni ko'rsatishda malakali bo'lishi kerak.

Ijodiy (ijodiy). Innovatsion darsni rejalashtirish: Jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli va samarali loyihalashda ijodkorlikni rag'batlantirish.

Moslashuvchanlik. o'qituvchilarni o'quvchilarning turli xil ta'lim uslublari va qobiliyatlarini hal qilishda ijodiy va moslashuvchan bo'lishga o'rgatish.

Hissiy intellect. O'quvchilarning hissiy ehtiyojlarini tushunish va ularga javob berish uchun hissiy intellektni rivojlantirish.

Ijobiy munosabatlarni o'rnatish. O'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish muhimligini ta'kidlash. Bu komponentlar birgalikda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'z vazifalarini axloqiy va samarali bajarishlari uchun zarur bilim, qadriyatlar, amaliy ko'nikmalar, ijodkorlik va hissiy intellektga ega bo'lishini ta'minlovchi har tomonlama deontologik tayyorgarlik dasturiga hissa qo'shadi. U jismoniy tarbiyani o'qitishning ajralmas qismi bo'lgan motivatsion, amaliy, ijodiy va ta'sirchan



jihatlarni o'z ichiga olgan, faqat nazariy bilimlardan tashqari yaxlit yondashuvni aks ettiradi.

Deontologik axloq – axloqiy qarorlar qabul qilish uchun asos sifatida burchlar, qoidalar va majburiyatlarga qaratilgan axloqiy asos. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligi kontekstida qo'shimcha tarzda bir nechta tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

1. Qonunlar va qoidalarga rioya qilish. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari ta'lim muassasasi va sportni boshqarish organlari tomonidan belgilangan qoidalar va qoidalarga rioya qilishlari va ularga rioya qilishlari kerak.

Ular o'quvchilarga sportda ham, hayotda ham belgilangan qoidalarga rioya qilish muhimligini namuna qilib, o'rgatishlari kerak.

2. Fair Play targ'iboti. Deontologik mashg'ulotlar halol o'yinni targ'ib qilish va barcha o'quvchilarga adolatli munosabatda bo'lishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

O'qituvchilar o'z o'quvchilariga halollik, halollik va raqiblarga hurmat kabi qadriyatlarini singdirishlari kerak.

3. O'quvchilar xavfsizligini ta'minlash. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari jismoniy mashqlar paytida o'quvchilarning xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yishlari shart.

To'g'ri nazorat qilish, xavfsizlik qoidalari rioya qilish va birinchi yordamni bilishni ta'kidlash mumkin.

4. Axloqiy qadriyatlarini o'rgatish. Deontologik tayyorgarlik jismoniy tarbiya darslariga axloqiy va axloqiy qadriyatlarini kiritishga urg'u berishni o'z ichiga olishi mumkin.

O'qituvchilar sportdan jamoaviy ish, mas'uliyat va qat'iyat kabi fazilatlarini o'rgatish uchun platforma sifatida foydalanishga da'vat etilishi mumkin.

5. Professional halollik. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarida halol, oshkora va odob-axloq qoidalari rioya qilib, kasbiy halollikni namoyon etishlari kerak.

Kasbning obro'sini saqlash juda muhimdir.

6. Inklyuzivlikni ta'minlash. Deontologik tamoyillar barcha o'quvchilarga, ularning qobiliyatlari, kelib chiqishi yoki xususiyatlaridan qat'i nazar, hurmat va hurmat bilan munosabatda bo'lish muhimligini ta'kidlashi mumkin.

O'qituvchilar barcha o'quvchilarning jismoniy mashg'ulotlarda ishtirok etishlari uchun inklyuziv va mehmondo'st muhit yaratishlari kerak.

7. Kasbiy rivojlanishga sodiqlik. Doimiy takomillashtirish va kasbiy rivojlanish deontologik treningda ta'kidlanishi mumkin.

O'qituvchilar yangi o'qitish usullari, sport fanidagi yutuqlar va ta'lim siyosatidagi o'zgarishlar haqida xabardor bo'lishlari kerak.



8. Maxfiylikni saqlash. O'qituvchilar o'quvchilarning shaxsiy hayotini hurmat qilish va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashga o'rgatilgan bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun deontologik tayyorgarlikning o'ziga xos tarkibiy qismlari ta'lim muassasalari, mahalliy qoidalar va muassasa yoki dasturning umumiy falsafasiga qarab farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, axloqiy mulohazalar samarali o'qitish amaliyoti va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishining keng kontekstiga kiritilishi kerak.

Yuqoridagi fikrlar asosida ta'kidlash joizki, jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarga deontologik tayyorgarligi tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsion-aksiologik, shaxsiy-ijodiy, hissiy-irodaviy, kognitiv-substantiv, protsessual-faoliyat (amaliy), reflektiv-baholash, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish. Quyida keltirilgan komponentlarning mazmunini ko'rib chiqaylik.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'quvchilar bilan munosabatda bo'lishga deontologik tayyorgarligining motivatsion va aksiologik tarkibiy qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchining shaxsiy va kasbiy pozitsiyasini belgilovchi motivlar tizimi;
- o'qituvchining qadriyat yo'nalishlari.

Pedagogik faoliyatning qadriyatlari deganda o'qituvchining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan va ijtimoiy ahamiyatga ega insonparvarlik maqsadlariga erishishga qaratilgan ijtimoiy va kasbiy faoliyati uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan xususiyatlar tushuniladi. Shaxsning o'ziga xos ehtiyojlari va ularning o'qituvchilik kasbi va uning ijtimoiy ma'nosi bilan munosabatini hisobga olgan holda, biz pedagogik faoliyat qadriyatlarining quyidagi guruhlarini taklif qilamiz, ularga asoslanib, noto'g'ri o'qituvchining kasbiy xulq-atvorini shakllantirish mumkin. pedagogik vaziyatlarga mos keladigan o'smirlar:

– jamiyatda, bevosita ijtimoiy muhitda o'rnatilishi bilan bog'liq qadriyatlar (o'qituvchi mehnatining ijtimoiy ahamiyati, o'qituvchining kasbiy faoliyati nufuzi, qarindoshlar, do'stlar, tanishlar va boshqalarni tan olish);

– muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq qadriyatlar (bolalar bilan doimiy ishlash, bolalar mehr-muhabbati, qiziqarli odamlar, ota-onalar, hamkasblar bilan muloqot qilish imkoniyati, ma'naviy qadriyatlar almashinuvi va boshqalar);

– o'z-o'zini takomillashtirish bilan bog'liq qadriyatlar;

– pragmatik ehtiyojlar bilan bog'liq qadriyatlar (o'z-o'zini tasdiqlash, kasbiy o'sish, ko'tarilish, uzoq ta'vil va boshqalar).

Deontologik jihatdan tayyorlangan o'qituvchida ijodkorligi namoyon bo'ladi:



– o‘quvchilar bilan pedagogik o‘zaro munosabatlarni ijodiy o‘zgartirish zarurati;

– ijodkor o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish shartlari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik samaradorligini tizimli ravishda oshirishda;

– o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning yangi yo‘llari va vositalarini izlashga qiziqish, shuningdek, uning ta‘lim va darsdan tashqari ishlarga qiziqishini oshirish.

Pedagogik deontologiyaning kontseptual qoidalarini tahlil qilish asosida biz «o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga deontologik tayyorligi» ta‘rifini quyidagicha aniqladik: bu o‘qituvchining faol holatini tavsiflovchi integral ta‘limdir. Turli toifadagi o‘quvchilar bilan samarali o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutuvchi, real muayyan vaziyat sharoitida mustaqil va muvaffaqiyatli faoliyatning umumiy qobiliyatida namoyon bo‘ladigan shaxs.

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar bilan munosabatda bo‘lishga deontologik tayyorgarligi fenomeni, bir tomondan, shaxsning ajralmas sifati, ikkinchi tomondan, kasbiy pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo‘lib, tarkibiy tuzilishga ega. O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga deontologik tayyorgarligining tarkibiy qismlarini aniqlash turli xil ta‘lim muhitida o‘qituvchining kasbiy faoliyati mazmuni, shuningdek, psixologik-pedagogik hodisa sifatida tayyorgarlikni shakllantirishga umumiy yondashuvlar bilan belgilanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.

2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma.-T.: БРОК СЛАСС СЕРВИС, 2016. - 84 б.

3. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma.-T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. - 320 б.

4. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: ТИБ-КИТОВ, 2009. -183 б.

5. Muslimov N.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya.-T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik.-T.: Iqtisod-moliya, 2011.- 420 b.

7.Кертаева Г.М. Основы педагогической деонтологии. 2019. 6-40 б.

8.Akramova G.M. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini deontologik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida. Ta‘lim innovatsion tadqiqotlar 2022/№4 221-bet



## **BO'LAJAK SPORT MURABBIYLARNI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK STRATEGIYALARNING FAOLIYATDAGI O'RNI**

**S.U.IBRAXIMOV,**

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti  
pedagogika fanlari doktori (DSc), v.b dotsent*

*Mazkur maqolada akmeologik yondashuv asosida bo'lajak sport murabbiylarningi kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik strategiyalarning mazmun jihatdan uning mohiyati to'g'risida fikrlar bayon qilingan.*

**Tayanch so'zlar:** *akmeologik yondashuv, bo'lajak sport murabbiylari, kasbiy mahorat, kasbiy rivojlanish, kasbiy yuksalish, strategiyalar, pedagogik faoliyat, sport faoliyati.*

*В данной статье на основе акмеологического подхода высказаны мнения о сущности педагогических стратегий в совершенствовании профессионального мастерства будущих спортивных тренеров.*

**Ключевые слова:** *акмеологический подход, будущие спортивные тренеры, профессиональные навыки, профессиональное развитие, профессиональное развитие, стратегии, педагогическая деятельность, спортивная деятельность.*

*In this article, based on the acmeological approach, opinions are expressed about the essence of pedagogical strategies in improving the professional skills of future sports coaches.*

**Key words:** *acmeological approach, future sports coaches, professional skills, professional development, professional development, strategies, teaching activities, sports activities.*

Ma'lumki pedagogik jarayonda bo'lajak sport murabbiylari pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etish uchun sportchilar orasida do'stona munosabatlarni shakllantirish, halol kurashishga oid qoidalarini to'liq o'zlashtirishlari talab etiladi. Sportchilar orasidagi ziddiyatlarga yechim topish uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bo'lajak sport murabbiylari sportchilar orasidagi ziddiyatlarga yechim topishga oid turli yondashuvlarni o'rganishlari va unga amal qilishlari muhim ahamiyatga ega. Sportchilar orasidagi ziddiyatlarni barataraf etish uchun bo'lajak murabbiylar majburlash va ishontirish, o'zaro kelishuvga da'vat etish, hamkorlik, yon berish, dialogik munosabatlarga kirishish, tan olish kabi strategiyalardan foydalanish mahoratini puxta o'zlashtirishlari talab etiladi. Majburlash strategiyasi doirasida murabbiy sportchilar orasida qarama-qarshiliklarni vujudga keltirmaslik uchun harakat qiladi. Ziddiyatlarni oldini olish yo'lida harakat qilishga majburlanadi.



Ziddiyatlarni bartaraf etish mahoratini – «akme»ni egallashlari uchun bo‘lajak murabbiylar muayyan strategiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari lozim. Bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan strategiyalar hamda bevosita va bilvosita qo‘llaniladigan strategiyalardan ham ziddiyatlarni bartaraf etishda samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Ziddiyatlarni bartaraf etish jarayonida har bir sportchi yokm sportchilar guruhi a‘zolariga maqsadli pedagogik ta‘sir ko‘rsatish talab etiladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun murabbiy sportchilar orasida vujudga kelgan ziddiyatlarning xarakterini yaxshi bilishi va uni muntazam tekshirib turishi muhim ahamiyatga ega. Murabbiy har doim vujudga kelgan qarama-qarshiliklarga o‘z vaqtida yechim topishi va ziddiyatli vaziyat ishtirokchilarining o‘z harakatlarini muntazam nazorat qilib, mustaqil boshqarishlari uchun ularning ahloqiy tanlovini amalga oshirishlariga erishishi muhim hisoblanadi.

Aksariyat hollarda sportchilarning ota-onalari ham sababchi bo‘ladilar. Ular farzandlarining g‘olib bo‘lishini astoydil istaganliklari uchun turli shubhagumonga borib sportchilar orasida adovat, o‘zaro bir-birini ko‘rolmaslik kabi holatlarning vujudga kelishini ta‘minlaydilar. Bunday vaziyat ziddiyatlashuvchi tomonlarning ahloqiy harakatlari va dunyoqarashlariga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Sportchilarning faoliyat turi, uning maqsadi, natijalari, muloqot vositalarini uyg‘unlashtirgan holda ziddiyatdan chiqishning quyidagi strategiyalarini taklif qilish mumkin:

- tajavvuskor xulq-atvordan voz kechish;
- vaziyatga moslashuvchanlikning namoyon bo‘lishi;
- to‘qnashuvlardan chekinish;
- hamkorlikka kirishish;
- mavqe‘ini boy berishga ko‘nikish va munosib qabul qilish kabilar.

Sportchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda tahlil usulidan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda sportchilarning his-tuyg‘ularini nazorat qilish, ziddiyatlarning sabablarini aniqlash, ziddiyatlarga samarali yechim topishni ta‘minlash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga erishish maqsadida izlanishlarni amalga oshirish, vujudga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni tarkibiy qismlarga bo‘lib tahlil qilish muhim hisoblanadi. Sportchilar orasida vujudga keladigan ziddiyatlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur ziddiyatlarga muvaffaqiyatli yechim topish uchun muloqotga asoslangan hamkorlik jarayonini faoliyatga asoslangan hamkorlik va birgalikda ishlash jarayoniga o‘tkazish ushbu yo‘nalishda samaradorlikni ta‘minlash imkonini beradi. Bunda sportchining o‘zini ikkinchi –



ziddiyatlashayotgan sportchi o‘rniga qo‘ya olishi ya‘ni introspeksiya strategiyasidan foydalanish nazarda tutiladi.

Sportchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda subyekt-subyekt munosabatlariga kirishish ya‘ni dialog strategiyasidan foydalanish ham alohida natijaviylikka ega. Sportchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun ular orasida shaxslararo ijobiy munosabat tajribasini hosil qilish nihoyatda zarur. Mazkur yondashuv ikkita o‘zaro bir-birini taqozo qiluvchi modelni qo‘llashni talab qiladi. Ular arbitraj, ya‘ni hakamlik modeli hamda vositachilik modeli kabilar. Hakamliklikning mohiyati shundaki, hakam mavqe‘idagi murabbiy ziddiyatning mohiyatini har tomonlama chuqur o‘rganadi. So‘ngra uni ziddiyatli vaziyatni vujudga keltirgan sportchilar bilan muhokama qiladi. Shundan keyingina har ikkala tomon amal qilishlari zarur bo‘lgan yakunlovchi qaror murabbiy tomonidan e‘lon qiladi.

Ziddiyatlarni bartaraf etishda vositachilik strategiyasidan ham foydalanish mumkin. Vositachilik strategiyasi sportchilar orasidagi ziddiyatlarni vositachilik asosida bartaraf etishni nazarda tutadi. Vositachilar sportchilar bilan muzokara jarayonini tashkil qilib, o‘zlari betaraf mavqe‘nida bo‘ladilar. Vositachi rolidagi sportchi, ota-onalar, murabbiylar, klub yoki ta‘lim muassasasi rahbariyati vakillari ziddiyatga kirishgan sportchilarning vaziyatni to‘g‘ri baholashlariga ko‘maklashadilar. Ziddiyatdan qutulish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan maslahatlar beradilar. Mashg‘ulotlar jarayonida ziddiyatga kirishuvchi sportchilar hamda vositachilik qiluvchi shaxslar quyidagilarga amal qilishlari talab etiladi:

- 1) Ziddiyatga kirishuvchi sportchilar vositachilik qiluvchi shaxsning obyektiv pozitsiyaga ishonch hosil qilishlari;
- 2) Vositachilik qiladigan shaxslar betaraf mavqe‘da bo‘lishlari;
- 3) Ziddiyatga kirishga sportchilar murabbiyning ular orasidagi bosimni pasaytirishga intilishini qo‘llab-quvvatlashlari;
- 4) Ziddiyatga kirishuvchi sportchilar o‘zaro hamkorlikka kirishish jarayonida murabbiy – vositachining tavsiyalariga amal qilishlari;
- 5) Vositachi ziddiyatga borayotgan sportchilarning har birini alohida-alohida tinglashi;
- 6) Vositachining asosiy vazifalari – ziddiyatning kelib chiqishi va ma‘lumotlarni to‘plashi, tahlil qilishi va baholashi;
- 7) Vositachi ziddiyatga kirishayotgan sportchilarning fikrini ijobiy tomonga o‘zgartirish maqsadida ularga pedagogik-psixologik ta‘sir ko‘rsata olishi;



8) Vositachi ziddiyatga kirishgan sportchilarning o‘z hissiyotlari, qarashlari, dalillari va o‘z nuqtai nazarlarini bayon qilishlari uchun sharoit yaratishi;

9) Vositachi vujudga kelgan muammo doirasida har ikkala tomonning qarashlarini qiyoslash va uyg‘unlashtirish kompetensiyasiga ega bo‘lishi;

10) Vositachi ziddiyatga kirishgan sportchilarning bir-birlariga qay darajada yon berishlarini hal qilib olishlari uchun imkoniyat yaratishi kabilar.

Sportchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishning aniq yechimi mashg‘ulotlarning sifatini ta‘minlashda alohida ahamiyatga ega. Murabbiy sportchilar orasida ziddiyatlar vujudga kelganda ularning kechinmalarini aniq tasavvur qila olishi va baholashi va to‘g‘ri yechimlar qabul qilishida muhim o‘rin egallaydi. Murabbiy sportchilar orasidagi ziddiyatni bartaraf etish uchun samarali hisoblangan strategiyani tanlagandan keyin uni qo‘llash uchun qulay pedagogik vaziyat yarata olishi kerak. Ziddiyatni muvaffaqiyatli bartaraf qilish uchun murabbiy ziddiyatlashuvchi sportchilarning manfaatlari haqida aniq tasavvurgga ega bo‘lishi talab etiladi. Sportchilarning manfaatlarini qondirish orqali ular orasidagi ziddiyatlarga muvaffaqiyatli yechim topish mumkin.

Sportchilar orasida vujudga keladigan turli darajadagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun bo‘ljak sportchi murabbiylar quyidagilarga amal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari lozim:

1) murabbiyning ziddiyatga kirishayotgan sportchilardan biriga qarama-qarshilikning ko‘lamini kamaytirishi va rivojlanishini to‘xtatishi haqida samimiy, ochiq bayonot berishi zarurligini;

2) murabbiy ziddiyatga kirishgan sportchilarni o‘zaro yarashtirishi uchun zarur choralarni ko‘rishi lozimligini;

3) murabbiy har doim sportchilar orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish muhimligini

4) murabbiy ziddiyatga kirishayotgan sportchilarni navbatma-navbat yon berishga undashi zarurligini.

Bo‘ljak sport murabbiylari ziddiyat ishtirokchilari bo‘lgan sportchilarning turlicha xulq-atvoriga egaliklari tufayli mazkur ziddiyatni bartaraf etishda turli xil metodlarni qo‘llash talab qilinishi bilishlari muhim ahamiyatga ega. Bo‘ljak sport murabbiylari ziddiyatlar sportchilarning yosh xususiyatlari va faoliyat turlari bilan bog‘liq holda turli-tuman bo‘lishini anglab yetishlari lozim. Bo‘ljak sport murabbiylari ziddiyatli vaziyatlarda aksariyat sportchilar guvoh mavqe‘ida bo‘lishlarini tasavvur qila olishlari muhim. Aks holda mazkur ziddiyatlar jamoaviy xarakter kasb etishi mumkin. Bunday holat guruhdagi barcha sportchilarning



orasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada sportchilar orasida o'zaro qarama-qarshiliklar, ishonchsizlik va ruhiy bosim vujudga keladi.

Ma'lumki, murabbiyning pedagogik jarayonni boshqarish uslubi – demokratik, erkin, avtoritar xarakterga ega bo'lishi mumkin. Avtoritar xarakterdagi ish uslubi mavjud bo'lgan murabbiy va sportchilar orasida ziddiyatli vaziyatlar tez-tez vujudga keladi. Vaziyatli ziddiyatlar o'z navbatida muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Axloqiy tanlovning murakkabligi, u motivlar kurashi bilan tavsiflanadi. Bunday holat asosan qarorlar qabul qilish jarayonida vujudga keladi. Qarama-qarshi motivlar bir vaqtning o'zida o'z tadbiqiga ega bo'lmaydi. Bu sportchilar orasida qarama-qarshi harakatlarni vujudga keltiradi.

2. Ziddiyat ishtirokchilari va holat haqida obyektiv ma'lumotlarning yetarlicha mavjud emasligi, u sportchining shaxsiy harakatlari tashqi harakatlar bilan nomutanosib kelmagan holatlarda vujudga keladi. Bunda ziddiyatlashuvchi har ikkala tomon bir-birlarining harakatlarida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni yaqqol ko'radilar va shunga tayanadilar. Ichki qarama-qarshiliklar esa, to'qnashuvning vujudga kelishiga asos bo'lgani holda murabbiylarning e'tibori-dan chetda qoladi.

3. Ziddiyatlarning hissiy jihatdan aniqligi, keng ko'lamliligi va havotirliligi bilan tavsiflanadi. Ayni bir sportchining hatti-harakatlari ziddiyatning kelib chiqishi yoki uning bartaraf etilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kuzatishlarimiz natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, ziddiyatni bartaraf etishdan ko'ra uning vujudga kelishi haqida sportchilarni ogohlantirish murabbiy uchun bir qadar oson kechadi. Sportchilararo ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida ularda ijobiy xulq atvor tajribasini shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini bo'lajak murabbiy o'z vaqtida anglab yetishlari uchun zarur bilimlar bilan qurollanishlari muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бродал Х. Девять ступеней вниз, или ссоры – конфликты – войны // Знание-сила, М.: - 1991. № 11.

2. Бродовская Е.В, Киняшева Ю.Б, Лаврикова А.А. Конфликтология. Учебное пособие // Издательство ТулГУ. Тула 2013 - 2013. - 302 с.

3. Горбунов, Г.Д. Психопедагогика спорта: Учеб.пособие для студ.высших учебных заведений, обучающихся по направлению 032100 - Физическая культура / Г.Д.Горбунов. - М.: Советский спорт, 2007. - 296 с.



## FILOLOGIYANI O'QITISHDA XORIJ TAJRIBASI

**G. T. TULABOYEVA,**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti*

*«Chet tillar» kafedrasida dosenti v.b.*

*So'nggi yillarda talabalarga filologiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu tendentsiya, ayniqsa, o'qituvchilar talabalarni jalb qilish va ularning o'quv tajribasini oshirish uchun turli xil interaktiv usullar bilan tajriba o'tkazgan xorijiy mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu inshoda biz talabalarga filologiyani o'qitishda interfaol usullardan foydalanish bo'yicha ba'zi xorijiy tajribalarni o'rganamiz va ushbu yondashuv bilan bog'liq potentsial foyda va muammolarni muhokama qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** talabalar, ta'lim, interfaol usullar, texnologik yangiliklar, CLT

*В последние годы наблюдается растущий интерес к использованию интерактивных методов в обучении студентов филологии. Эта тенденция особенно ярко проявилась в зарубежных странах, где преподаватели экспериментируют с различными интерактивными техниками, чтобы вовлечь студентов и улучшить их опыт обучения. В этом эссе мы рассмотрим некоторые зарубежные примеры использования интерактивных методов в обучении студентов филологии и обсудим потенциальные преимущества и проблемы, связанные с таким подходом.*

**Ключевые слова:** студенты, образование, интерактивные методы, технологические инновации, CLT

*In recent years, there has been a growing interest in the use of interactive methods in teaching philology to students. This trend has been particularly pronounced in foreign countries, where educators have been experimenting with various interactive techniques to engage students and enhance their learning experience. In this essay, we will explore some of the foreign experiences in using interactive methods in teaching philology to students, and discuss the potential benefits and challenges associated with this approach.*

**Key words:** students, education, interactive methods, technological innovations, CLT

Bugungi kunda filologiya gumanitar va umumbashariy fanlarning meto-dologik asosi bo'lib, zamonaviy jamiyat ishtirokidagi amaliy xizmatlardan biriga aylanmoqda. Filologiyaning kasbiy imkoniyatlari cheksizdir. Chunki u hayot faoliyatining barcha imkoniyatlarini qamrab oladi. So'z va matn hamma joyda talab qilinadi, chunki filologiya, birinchi navbatda, matnlarni talqin qilishdir. Matnlarni lingvistik tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, matnlar orqali madaniyat va tsivilizatsiya rivojlanishini yoritish qobiliyati filologlarga ularning mazmuni va filologlarning avlodlari istiqbolini obyektiv baholashga imkon beradi. Filologiya sohasi fanlari



nafaqat filologlarning kasbiy ta'limi uchun, balki har qanday rahbarlar, diplomatlar, huquqshunolar, jurnalistlar, psixologlar va boshqalar uchun ham zarurdir. Shunday qilib, filologiya fanlari ko'nikmalarni shakllantirishda, yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har qanday filologik muammo bir qator ilmiy sohalarning o'zaro ta'siri bilan hal qilinadi: falsafa, tilshunoslik, matnshunoslik, syxolingvistika. Ko'p yillar davomida filologiya fani monologik faoliyat sohasi hisoblangan, ammo bugungi kunda u tobora ommalashib bormoqda. Buyuk Britaniyaning Durham universitetida gumanitar innovatsiyalar markazi tashkil etildi. Demak, filologiya sohasiga jahon miqyosida qaralmoqda, uning mohiyati bugungi kun uchun yangi jihatlar bilan o'rganilmoqda va tadqiq etilmoqda. Markazning maqsadi zamonaviy filologiya paradigmasini o'zgartirish, uning kuchini ko'rsatish, inson qobiliyatlari va unga e'tibor qaratish uchun mo'ljallangan [2].

Bugungi kunda filologiya fanlari zamonaviy o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi, ta'limning potentsial imkoniyatlari va talablari juda yuqori. Asosan, 2003 yildan keyin o'qitish uchun qulay dasturlar chet tillari yaratila boshlandi. Bu ishlar asosan Amerika mamlakatlarida boshlangan. Aslida, innovatsion ta'lim-bu ta'limdagi nazariya va amaliyotning uyg'unligi. Innovatsiya to'rtta asosiy atamani o'z ichiga oladi: 1 - o'zgarish 2 - rivojlanish 3 - yangilik 4 - takomillashtirish [3]. An'anaviy o'qitish usullari talabalarning xulq-atvorini tizimli tahlil qilishga bog'liq edi. Bu o'quv sinf markazi sifatida o'qituvchi aratilgan bir murakkab uslubda olib boriladi, deb qayd etildi [4].

Suggestopedia-1978 yilda Georgiy Lozanov tomonidan ishlab chiqilgan yana bir an'anaviy usul. O'qituvchining obro'si hali ham yuqori bo'lgan kursda oldinga siljish paytida ko'proq yodlashga asoslangan usul. Til o'qitishda muqobil usullardan foydalanish zarurati an'anaviy yondashuvlardan innovatsion yonda-shuvlarga o'tishning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Biroq, yuqorida aytib o'tganimizdek, an'anaviy taktikani e'tiborsiz qoldirib, noldan biror narsa yaratishga da'vo qilib bo'lmaydi. Yangi modellarni moslashtirish va birlashtirish kerak. Induktiv va samarali amaliyotlar haqida gapirganda, induktiv usullar mavzuning konsolidatsiyasini oshiradi va samaradorlikni baholashga yordam beradi, deb ta'kidlanadi. Gattenau. U ko'proq talabalarga e'tibor qaratishga harakat qildi va bu yangilik sari dadil qadamlardan biri edi. U talabalar ko'proq gaplashishi kerak degan xulosaga keldi. Kompyuter yordamida til o'rganish ko'pchilik o'ylagandek innovatsion boshlanmadi. 1960-yillarda ishlab chiqilgan, tilni o'qitishning gram-matik va leksik jihatlariga yo'naltirilgan kompyuterga asoslangan tillarni o'qitish dasturi mavjud edi. Biroq, o'sha vaqtdan boshlab ushbu texnikani takomillashtirish va sun'iy intellektdan foydalanishni rivojlantirish boshlandi, bu esa o'rganishni yanada interaktiv qilish uchun yo'l ochdi. Vazifalarga asoslangan usullar, shuningdek, o'qitish metodikasiga innovatsion g'oyalarni olib kela boshlagan o'tish usullaridan biri edi. Ushbu yondashuvning kommunikativ qismi kommuni-kativ yondashuvga qaraganda yaqinroq edi.



Innovatsion taktika va texnikani moslashtirgan asosiy yondashuvlardan biri bu tilni o'qitishga kommunikativ yondashuv (CLT) edi. CLT ma'noni ifodalash uchun tildan foydalanishni taklif qildi. Bu shuni anglatadiki, o'zaro ta'sir va aloqa tilning asosiy funksiyalari hisoblanadi. Grammatika va tuzilish, albatta, muhim ahamiyatga ega va ular haqida asosiy bilimsiz tilni o'rganish mumkin emas. Ammo funksional va kommunikativ ma'no ham juda muhimdir. Yuqorida aytib o'tilgan jihatlar o'quv maqsadiga erishish uchun bir-birini to'ldirishi kerak. Innovatsion usullardan foydalangan holda chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishdir. Ta'kidlanishicha, yangi texnologiyalardan foydalanish aloqa va simulyatsiyaga juda bog'liq bo'lgan o'quv dasturlarini uzluksiz va tezkor ravishda osonlashtirishga imkon beradi [4].

– Dars davomida ko'rgazmali qurollardan foydalanish (video, fotosuratlar, quvvat nuqtasi).

– o'quvchilarni dars davomida eslatma olishga o'rgatish.

– Ma'ruza paytida yoki dars paytida smartfon yoki kompyuterdan foydalanish.

– talabalarga amaliy mashg'ulotlar davomida muammolarni hal qilish imkoniyatini berish.

– Simulyatsiya foydalanish.

– kooperativ o'qitish usullarini ishlab chiqish.

Ba'zi tadqiqotchilar boshqa nuqtai nazardan faoliyat misollarini keltiradilar, bu o'qituvchilar qancha ko'p ta'lim olsalar, sinf amaliyotini shunchalik yaxshi tahlil qila olishlarini taklif qiladi. Bu ko'proq kommunikativ sinf muhitini yaratishga harakat qilayotgan o'qituvchilarga yordam beradi. An'anaviy yondashuvni moslashtirgan va ko'proq nazorat qilinadigan va shaklga yo'naltirilgan faoliyatga bog'langan o'qituvchilar uchun qarama-qarshi tomondan o'qituvchilar innovatsiya va kengayish parametrlarini o'rnatadilar. Shu tarzda, ular o'sishi mumkin, ammo xavfsizlik hissi va ilgari qilgan ishlarida qadr-qimmatni saqlashlari kerak. Innovatsiyalarga ta'lim imkoniyatlarini hamma uchun ochiq qilish orqali ham erishish mumkin [5]. Bu o'zaro ta'simi kuchaytirish va mo'ljallangan va tushunilgan narsalar o'rtasidagi kognitiv nomuvofiqlikni kamaytirish orqali amalga oshiriladi.

Til ko'nikmalarini birlashtirish ham o'qitish strategiyasining asosiy yaxshilanishlaridan biridir. Avval ko'rganimizdek, an'anaviy yondashuvlar o'qituvchining obro'sini yuqori darajada saqlashga harakat qiladi, innovatsion yondashuv esa talabalarning mustaqilligini ta'minlaydi, madaniy ong va ijtimoiy dolzarblikni oshiradi. O'qituvchilarning kommunikativ va innovatsion usulda dars berish qobiliyati ham ushbu sohada tajriba yetishmasligi tufayli qiyin bo'lishi mumkin. O'qituvchilarning aksariyati talabalar bilan ravon muloqot qilish uchun yetarli ko'nikmalarga ega emas. Ko'p hollarda o'qituvchilar yangi innovatsion usullardan to'g'ri foydalana olmaydilar. Bu borada ba'zan an'anaviy ta'lim muayyan rol



o'ynashi ta'kidlandi. Asosiy qiyinchiliklardan biri bu asosiy imtihonlarning an'anaviy yo'nalishi. An'anaviy yoki innovatsion usullardan foydalanmoqchimizmi, biz o'qitish maqsadlari maqsadli talabalar populyatsiyasi va ta'lim muhitining ehtiyojlari, yetishmasligi va ehtiyojlariga qarab belgilanishi kerakligiga ishonch hosil qilishimiz kerak. Umuman olganda, bugungi dunyo va ilm-fan har bir o'qituvchidan innovatsion, ochiq ko'ngil va sodda bo'lishni talab qiladi.

Umuman olganda, filologiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning faolligini, tushunishini, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini va hamkorlik ko'nikmalarini oshirishning samarali usuli ekanligi isbotlangan. Natijada, interfaol usullar butun dunyo bo'ylab filologiya o'quv xonalarida tobora ommalashib bormoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sheldon Pollak. Kelajak filologiyasi. Qattiq dunyoda yumshoq fanning taqdiri. Yangi adabiy sharh, 2011 yil.
2. Epshteyn Mixail. Transformatsion gumanitar fanlar: manifest. Nyu-York - London: Bloomsbury Academic, 2012. 318 p.
3. De Lano, L., Riley, L., & Crookes, G. ESL o'qituvchilari uchun innovatsiyaning ma'nosi, 1994 yil.
4. Nurutdinova, A. R., Perchatkina, V. G., Zinatullina, L. M., Zubkova, G. I. va Galeeva, F. T. Innovatsion o'qitish amaliyoti: an'anaviy va muqobil usullar (qiyinchiliklar va ta'sirlar).
5. Tulaboyeva G.T Multicultural literature of the USA. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. -60x84 1/8b/m12.5, 2022-yil. ISSN(E) 2795-739. May 2022. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1507>



## ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMASIDA TALABALAR PEDAGOGIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

**F. TURSUNOVA,**

Navoiy DPI o'qituvchisi

*Islohotlar davrida oliy ta'lim tizimi, xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarida ham ta'lim mazmunining yangilanishiga erishish, ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kabi vazifalarning hal etilishi bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish, kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

*In the period of reforms, the higher education system, in particular, the renewal of educational content, the implementation of pedagogical technologies in the educational process, and the creation of a new generation of educational literature, became important in improving the professional skills of future pedagogues.*

**Key words:** effective organization of the educational process, formation of pedagogical thinking in students, formation of skills and competencies of professional activity.

Uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar sirasida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini alohida o'rin tutadi. Binobarin, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, ularni psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga yo'naltirish, ularda kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, xalq xo'jaligining turli sohalariga malakali kadrlarni yetkazib berish masalalarining ijobiy hal etilishi, eng avvalo, o'z fanining bilimdoni, mahoratli pedagoglarning sa'yi-harakatlariga bog'liq.

Yangilangan ta'lim mazmuni hamda mavjud talablarga ko'ra talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Zero, bo'lajak o'qituvchilar:

- ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish;
- mavjud vaziyatlarni to'g'ri baholash;
- pedagogik munosabatlar jarayonida o'quvchining yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlariga muvofiq ish ko'rish;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish;
- istiqbolni bashoratlash kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari zarur. Bu kabi holatlarning mavjudligi esa ularning o'ziga xos pedagogik tafakkurga ega bo'lishlarini taqozo etadi.

Talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur jarayon pedagogik turkum fanlar – «Pedagogika» («Pedagogika nazariyasi»), «Pedagogika tarixi», «Pedagogik mahorat», «Pedagogik texnologiya»



(«Innovatsion pedagogika»), «Ijtimoiy pedagogika», «Oila pedagogikasi», «Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi» kabi o'quv fanlari hamda «Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni olib borish», «Zamonaviy pedagogika muammolari» kabi maxsus kurslarini o'qitish davrida kechadi. Pedagogik tafakkurning shakllanishida, shuningdek, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning eng faol shakli – pedagogik amaliyot ham muhim o'rin tutadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish nihoyatda murakkab va uzluksiz, izchil, tizimli tashkil etishni taqozo etuvchi jarayon bo'lib, uning mohiyatini to'la anglash uchun dastlab «tafakkur» tushunchasining mohiyatidan xabardor bo'lish maqsadga muvofiqdir.

«Tafakkur» tushunchasi psixologik manbalarda keng yoritilgan tushunchalardan biri bo'lib, uning sezgi, idrok, tasavvur yordamida atrof-muhit bilan bevosita bog'lanishi, so'ngra voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning belgi va sifatlarini bosh miya yarim sharlarida aks ettirish imkoniyatiga egaligi, mazkur aks ettirishning adekvatligi (to'g'riligi) insonning amaliy faoliyatida, tabiatni o'rganish va jamiyatni rivojlantirish jarayonida tekshirib borilishi, shuningdek, ong va aql-idrok yordamida uzluksiz ravishda nazorat qilib turilishi ta'kidlanadi.

Tegishli manbalarning barchasida ham ushbu tushuncha inson aqliy faoliyati, obyektiv olam in'kosining «yuksak shakli» deya ta'riflanib, sezgi, idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa hamda hodisalarning tafakkurda ongli ravishda aks etilishiga, tafakkur jarayonida fikrning vujudga kelishiga alohida urg'u beriladi.

«Tafakkur» tushunchasini sharhlashga quyidagicha yondashuv ham mavjud:

- yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador, tahlil va sintez jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirilgan aks ettirish jarayoni;
- obyektiv olamning inson miyasida mavhumlashgan, umumlashgan, til bilan ifodalanadigan aks etishi;
- inson ongining bilish ob'ektlari hisoblangan narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shakli;
- individning voqelikni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni.

Ayrim mualliflar tomonidan tushuncha mohiyatini yoritilgan ekan, tafakkurning psixologik hodisa sifatida yangi g'oyalarni yaratish va hali sodir etilmagan, biroq sodir etilishi nazarda tutilgan jarayonlarni bashoratlashdagi roliga yuqori baho beriladi. Ya'ni, «yangi nazariya, g'oyalar yaratish, bo'lajak jarayonlarni bashorat qilish kabilarda» namoyon bo'lishiga ham alohida urg'u beriladi.

Psixolog E.G'oziev mohiyatida aks etuvchi umumiy xususiyatlarni yaxlit qamrab olgani holda «tafakkur» tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik protsess, sotsial sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik



ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Manbalarda «tafakkur» tushunchasi ontogenezi arabcha «fikr» atamasi tashkil etishi to'g'risidagi ma'lumot ham keltirilgan. Ularda aytilishicha, tushuncha negizini tashkil etuvchi «fikr» atamasi o'ylash, fikrlash, mushohada qilish va muhokama ma'nolarini bildiradi.

A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo'raevlarning fikrlariga ko'ra, o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davri, xususan, XV asrda «fikr» tushunchasiga sinonim bo'lgan «ong», «aql», «tafakkur» so'zlari bilan birga sof turkiy so'z «o'g'» ishlatilgan. «O'git» so'zi ham ana shu atama negizida hosil qilingan.

Bu o'rinda mualliflar yana bir muhim ma'lumotni keltiradilar. Unga ko'ra, Turk hoqonligida «o'g'ilik» muhim ahamiyatga ega bo'lgan saroy amallaridan biri sanalagan. Ushbu amal egasi maslahatchilik, vasiylik vazifasini bajargan.

Psixologik adabiyotlarda tafakkurning bir qator o'ziga xos xususiyatlari sifatida: 1) voqelikni umumlashgan holda aks ettirish; 2) bog'lanishlarni bevosita aks ettirish; 3) so'z (nutq) orqali narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishdan iborat ekanligiga e'tibor qaratiladi.

L.V.Zanina hamda N.P.Menshikovalarning fikricha, pedagogik tafakkur – bu pedagogning o'quvchilar xatti-harakatlari motiv (sabab)lari, ularning asosiy qiziqishlari, ehtiyojlari, shuningdek, ichki dunyolarini tushinishida aks etuvchi tafakkuri sanaladi. Pedagog shu nuqtai nazaridan turli vaziyatlarda muayyan masalalarni doimo o'quvchilarning manfaatlari uchun hal qiladi va ular bilan pedagogik hamkorlikka erishadi. Pedagogik tafakkur o'z mohiyatiga ko'ra dialektik xususiyat kasb etadi, shu jihatdan pedagog o'quvchilarning xatti-harakatlari, xulqi va faoliyatlarida ro'y berayotgan yangiliklarni ko'ra oladi, o'z faoliyatini o'quvchilar shaxsi taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklarni anglashga, ularning yechimlarini topishga yo'naltiradi.

Talabalarning pedagogik tafakkurini shakllantirishda ularning muayyan darajada pedagogik qobiliyatlarga ega bo'lishlari muhimdir. Zero, pedagogik qobiliyat ma'lum darajada kasbiy faoliyat mohiyatini anglash, uni to'g'ri talqin etish, zimmadagi mas'uliyatni his etishga imkon berishi bilan birga zarur bilim, ko'nikma va malakalarni nisbatan oson o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Demak, pedagogik tafakkur o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahorat va madaniyat element (unsur)larini hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi. «Pedagogik mahorat» va «pedagogik madaniyat» tushunchalari mohiyatini anglash pedagogik tafakkurning ularga ega bo'lishdagi rolini yaqqol anglanishini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: Ўқитувчи. 1990. - 183 бет.
2. Умумий психология /Педагогика институтлари учун дарслик. Петровский А.В. ва бошқалар. - Т.: Ўқитувчи, 1992. - 328-бет.
3. Туленов Ж., Ғофуров З. Фалсафа. - Т.: Ўқитувчи, 1991. - 239-бет.



*Jurnalning ushbu sonini  
tayyorlashda qatnashganlar:  
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan  
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan  
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK  
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan  
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar  
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi  
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi  
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 20.02.2024 y. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$   
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.  
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.  
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**